Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

Toshkent Moliya instituti

H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev,
S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
5A340605 – «Xalqaro moliya» mutaxassisligining
magistrantlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2009

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

74.204
П240

Taqrizchilar: **To'xtaxo'jayeva M.X.** - Nizomiy nomli TDPU «Umumiy pedagogika» kafedrasining mudiri, p.f.d., professor;
Hasanov S. - TMI, p.f.d., professor

Omonov H.T.

P29 **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat:** 5A340605 - «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. – T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.

Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U.

Mazkur darslik iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarining davlat ta'lim standartlari va "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ravishda yaratildi. Unda pedagogik texnologiya asoslari, uning tarkibi, tuzilishi, vazifalari va unga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar hamda undan amalda foydalanishga doir tavsiyalar bayon qilingan.

Darslikdan oliy o'quv yurtlarining talabalari, shuningdek, professor-o'qituvchilar hamda ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasi bo'yicha shug'ullanayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

BBK 74.204я73

ISBN 978-9943-13-110-1

© «Iqtisod-moliya», 2009
© H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U. Eshchonov, 2009

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

«Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi esa uni topishga o‘rgatadi»

A.F.Disterveg – nemis pedagogi

KIRISH

O‘zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlab olgan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasini ham sobit qadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko‘lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo‘lgan e’tibor kuchayib ketdi.Shu tufayli ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi.

Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir.

O‘quv faoliyati – bu keng ma’noda inson faoliyatining muayyan maqsadlar yo‘nalishida namoyon bo‘lishidir. Bu faoliyat faqat insoniyat jamiyatida amalga oshirilishi sababli, u nafaqat har bir insonning, balki butun jamiyatning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladi.

O‘quv faoliyati-bu insonda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash maqsadida uni o‘qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to‘plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko‘nikmalar shaklida o‘zgartirish hamda uni o‘sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O‘quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq va uning hamma fazalarda-bolalikdan boshlab, to ulg‘aygan davrigacha mavjud bo‘ladi. Shuning uchun tarixiy ijtimoiy hodisa hisoblanmish o‘quv jarayoni o‘z tarixiga ega.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 440154

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Demak, o‘quv faoliyati, boshqa inson faoliyati turlari singari, kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan obyektiv hodisa sifatida amal qiladi. Jamiyatning o‘zi murakkab va ziddiyatli o‘zgarishlarga uchrab turar ekan, o‘quv faoliyati ham insoniyat taraqqiyotining turli rivojlanish bosqichlarida har xil muayyan shakllarga ega bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng ta’lim sohasida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi va uzluksiz ta’lim tizimi shaklan va mazmunan yangi rivojlanish bosqichlariga o‘tdi, ya’ni o‘qitish jarayoni takomillashish yo‘liga o‘tdi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quv faoliyati har doim ham barkamol insonni voyaga yetkazishga, uning ma’naviy va moddiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. O‘quv faoliyati o‘z rivojlanishining hamma bosqichlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsadga ega. Maqsadli amalga oshiriladigan jarayon hisoblangan o‘quv faoliyati ko‘p qirralidir. Uning asosini shaxsan o‘qitish jarayoni, ya’ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuasiga bevosita berish jarayoni tashkil etadi.

O‘quv faoliyatining aynan bu tomonini ta’lim berish jarayoni tushunchasi bilan belgilaymiz. O‘quv jarayoni deganda-o‘quv faoliyati, tor ma’noda, bir maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim berish sifatida tushuniladi.

Bu o‘quv faoliyatini asosiy tomoni hisoblanadi. Lekin u o‘quv faoliyatining mazmunini to‘laligicha yoritmaydi. O‘quv faoliyati tarkibiga keng ma’noda, ta’lim berishdan tashqari, yana bir eng muhim va ma’suliyatli jarayon-tarbiya kiradi. U o‘quv faoliyatining ajralmas qismi bo‘la turib, o‘quvchilardan bir qator zarur ijtimoiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi va ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Ularda o‘quv faoliyatining ikkita vazifasi-ta’lim berish va tarbiyalash vazifalari muayyanlashtiriladi. Ikkala jarayon ham bir-biridan farqli ravishda o‘zining aniq maqsad va vazifalariga ega bo‘lishiga qaramasdan, ular mohiyati jihatidan bitta ijtimoiy maslak-jamiyat a’zolarining komilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqillikni mustahkamlashning strategik yo‘lida og‘ishmay davom etayotgan va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo‘liga kirib borayotgan mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish, bu jara-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

yonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsad esa komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilandi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur hujjat talablarini amalga oshirish esa ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ya'ni xalq ta'limi taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Bu vazifalarning hal etilishi jahon ilmiy jamg'armasidagi juda katta hajmli axborot fondidan nimani ajratib olish, qancha va qanday o'qitish masalalarining yechimi bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu kesimda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan aloqador zamonaviy muammolar oydinlashadi. Qolaversa, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq davom ettirishni davr taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim amaliyotida kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq ayrim masalalarning o'z aksini yaxshi topmaganligi ham tegishli o'qitish metodikalarining takomillashuvini dolzarb masalaga aylantirib qo'ymoqda.

Hozirgi paytda, aksariyat metodist va pedagog-olimlar pedagogik texnologiyalar o'quvchi yoki talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qarashmoqda. Lekin bunday fikrlarni obyektiv haqiqat o'rnida qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor qilishi ham mumkin. Shuning uchun, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya (AKT) texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shu sababli pedagogik jarayonlarning kun tartibidagi aksariyat dolzarb muammolarining ijobiy yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda dasturlar va ma'ruza matnlarini elektron disketlarga ko'chirish, ular bilan har bir talabani ta'minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Xullas, pedagogik texnologiya - o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchi yoki talabalarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o'z navbatida, ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir.

Mazkur darslikda yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etishning ayrim jihatlari, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ahamiyati hamda ular bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishning metodik asoslari bayon qilingan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining magistrlari va pedagogik jarayonlar mexanizmi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan. Undan oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, pedagogika va o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

1 BOB. «PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT» FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1.O‘zbekiston ta’lim tizimining dolzarb muammolari

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchi faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o‘qituvchi mustaqillik g‘oyasiga e’tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma’lumoti bor, ya’ni o‘z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o‘rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lgan o‘qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

qonuniyatlari va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar.

Shu sababli ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshira borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Ammo shuni ham e'tirof etishimiz kerakki, o'quv yurtlarida ayrim o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratlarini oshira borishning ahamiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talablarini chuqurroq o'rganishga qiziqmaydilar, o'quv jarayonining ilmiyligiga, zamon talablariga mosligiga, turmush va amaliyot bilan bog'lanishiga yuzaki qaraydilar, o'qitilayotgan o'quv fanlarining ilmiy va g'oyaviy-tarbiyaviy birligini doimo esda tutmaydilar. Bu esa ular qo'lida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarning bilim darajasi va saviyasining yetarli bo'lmasligiga, o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo'lmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi va ikkinchi bosqichlari vazifalari muvaffaqiyatli hal qilinib, uchinchi bosqichdagi o'zgarishlar davom etmoqda. Bu bosqichda o'quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish talab qilinadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy qilishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e'tiborga molikdir.

«Pedagogik texnologiya» atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya»- yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, o'rganish, demakdir.

Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi;

4. Talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi;

5. O'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishligi;

7. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi.

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so'zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushun-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

chalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'l – aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Bugun har bir sog'lom fikrlovchi inson yangi asrda o'zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o'rni va salohiyati qanday bo'lishini o'ylashi tabiiy. O'tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi esa O'zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo'lganligi bilan baholanadi. Mustaqil davlat o'zining asosiy qonuni - Konstituttsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy hujjatlariga ega bo'ldiki, ular orasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi. Undagi g'oyalar, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustahkamlovchi insonlarning manfaatini ifodalaydi. Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish, ta'lim - tarbiya dasturlarining intelektuallashuvini ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar kun tartibiga qo'yildi. O'tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo'lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta'lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limni kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishini nazarda tutmoq o'rinlidir. Zero, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e'tirof etilganidek, «Ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir. Demak, yangi asr-informatsion texnologiyalar asri bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi bir muhim jihati shundaki, yangi asr xalqaro intellektual-iqtisodiy korporatsiyaning yaratilish asri, ya'ni jahon miqyosidagi aql-zakovatning birlashuvi asri bo'ladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Xo'sh, axborot texnologiyalari nima-yu, ularni inson idroki, tafakkuri va ongiga singdirishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini, ularning ta'lim sifatini oshirish va axborot hamda kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy ta'limni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko'p hollarda «ta'limning kompyuter texnologiyalari» iborasi «axborot texnologiyalari» iborasi bilan aralashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda, asosan, an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so'nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi. Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak. Mavjud holat, axborotlar oqimining negizlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning tafakkuri va fikr yuritishi jarayonlarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'lmasmikin? Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy-ma'rifiy muhitga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz lozim. Shu o'rinda biz axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e'tirof etishni xohlardik. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan subyektivizmni cheklaydi. Masalan, agar talabaning javobi yoki bevosita o'zlashtirishini baholash o'qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar obyektiv xarakterga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lganida, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymanish kabi sifatning namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor-o'qituvchining o'zigagina xos bo'lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vosi-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

talaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To‘rtinchidan, yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o‘zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o‘rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma’lumotlarni kichik hajmli disketlarga yozib olish va ulardan zarur o‘rinlarda foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni, ham mablag‘ni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo‘ladi. Eng muhimi, manfaatdor auditoriya xohlagan ma’lumotini bir xil sifat va tizimda olishi mumkin bo‘ladi.

Nihoyat, ular “axborot asri” deb e’tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o‘stiradi, ulardagi texnik vositalardan cho‘chish hissini yo‘qotadi. Xullas, ta’lim muassasalarining bu narsaga sarflangan mablag‘lari behuda ketmasligi ehtimoldan xoli emas.

Agar biz har bir yosh qalbida Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, pok iymon va odamgarchilikni tarbiyalay olsak, ular halqaro axborot tizimlari orqali bizning fikrlash tarzimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarni tanqidsiz qabul qilmaydigan, yurtimiz istiqboliga xizmat etadiganlarinigina saralab olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun biz yoshlarimizda barqaror mafkuraviy immunitetni tarbiyalashimiz kerak.

Ma’lumki, pedagogikada boshqa ilm sohalaridan olingan ko‘plab atamalardan foydalanadi, bu narsa pedagogikani boshqa fanlar bilan chuqur aloqada ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday atamalar texnika va iqtisodiyotdan eng ko‘p miqdorda kirib keladi, chunki ayni shu sohalar ijtimoiy fikrning rivojlanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, bugun o‘qitish jarayonining tejamliligi va maqsadga muvofiqligi hamda oqilona tashkil etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi, texnika va texnologiya, ta’lim iqtisodiyoti, o‘qitishni kompyuterlashtirish va shunga o‘xshashlar bilan bevosita bog‘lanib qolgan.

Adabiyotlarda “Yangi tartib-qoida”, “Yangilik”, “Innovatsiya” tushunchalarining ma’naviy mazmunini aniqlashning turlicha talqinlari mavjud.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Yangi tartib-qoida, moddiy ma'noda, ijobiy va ilg'or yangilikni, bu tushunchani qabul qiladigan va undan foydalanadigan tashkiliy sistema uchun yangi bo'lgan g'oya, faoliyat yoki moddiy obyektni anglatadi

"Yangi tartib-qoida", "Innovatsion jarayon" atamalari aynan o'xshash, ya'ni bir xil ma'noga ega. Innovatsiyalar ta'lim amaliyoti paydo bo'lganidan buyon o'tgan uzoq davr davomida unga yangiliklar kiritish, mavjud ta'lim tuzilmasini maqsadga muvofiqlashtirish, ba'zan juz'iy, ba'zan esa keng ko'lamli o'zgartirish, takomillashtirish va yaxshilash elementlarini joriy etish evaziga sifatni ko'tarish uchun u bilan yonma-yon kelmoqda. Yangilik - bu texnik, texnologik ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U pedagogik kategoriya sifatida ta'limga yangilik kiritishni anglatadi. Yangilik, ko'pincha, yangi metodlar, usullar, vositalar, yangi konsepsiyalar, yangi o'quv dasturlari, tarbiya usullari va boshqalarni kiritish hamda qo'llashga xosdir.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya», «Yangi axborotlar texnologiyasi» kabi tushunchalar uchrab turadi. Ammo, ularga hozirgi kungacha to'liq ta'rif berilmagan. Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistoning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazishni asosiy masala qilib qo'ydi. Bu masalalarni yechishda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» har taraflama javob beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z oldiga bir qator maqsad va vazifalarni qo'ygan.

Mazkur dasturning maqsadi:

1) ta'lim sohasini tubdan isloh qilish;

2) uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish;

3) rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish kabilardir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

1) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

2) ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan, demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

3) kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning tashkiliy va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;

4) kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi talablar doirasida qayta qurish;

5) ta’lim oluvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

6) tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona metodikasini joriy qilish;

7) normativ va moddiy - texnika axborot bazasini yaratish;

8) ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minlash;

9) tizimga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb qilish;

10) kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, yangi ta’lim modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

1) **shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

2) **davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

3) **uzluksiz ta’lim** – malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari va standartlarini o‘z ichiga oladi;

4) **fan** – yuqori malakali mutaxassislarning tayyorlovchisi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarining ishlab chiquvchisi;

5) **ishlab chiqarish** – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, ular sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, tizimni

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

moliyalashtiruvchi va moddiy-texnik baza bilan ta'minlash qatnashchisi.

Prezidentimiz I.A.Karimov kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'la ro'yobga chiqsa, ijobiy ravishda "portlash effekti" sodir bo'lishini bashorat qilib, «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javobida shunday degan edi: «Ishonchim komil, agar bu islohotni amalga oshirsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi portlash effektiga, ya'ni uning samaradorligiga erishamiz».

Nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshsa:

1) ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

2) insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;

3) jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanadi;

4) ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;

5) oldimizda turgan har qanday vazifani bajarishda va maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa «portlash effektiga» olib keladi.

Milliy dasturni amalga oshirishning quyidagi 3 ta bosqichi belgilandi:

1. Birinchi bosqich (1997-2001 yillar). Mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy moddiy shart-sharoitlar yaratish.

2. Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar). Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish, majburiy umumiy va ixtiyoriy-majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

3. Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar). To'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qancha muammolari o'z yechimini topadi. Ular-ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarining yanada mustahkamlanishi, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlanishi, milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarining qaror toptirilishi va rivojlantirilishi, kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishining ta’minlanishi va o‘zini-o‘zi boshqarish shakllarining mustahkamlanishi kabi vazifalardir. Bunda ta’lim jarayonini axborotlashtirish va uzluksiz ta’lim tizimini jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olish ham ko‘zda tutilgan.

1.2. Pedagogik texnologiyaning umumiy asoslari

Bu tushuncha XX asrda paydo bo‘ldi va 1940-1950 yillarda “ta’lim texnologiyasi” tarzida qo‘llanilib, mazmunan o‘quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQShda qo‘llana boshladi. Keyinchalik “ta’lim texnologiyasi” o‘rniga “dasturlashtirilgan ta’lim” atamasidan foydalanish keng yoyildi. So‘ngra pedagogik texnologiya- loyihalashtirilgan ta’lim va aniq maqsadga qaratilgan o‘quv jarayonini ifoda eta boshladi. O‘tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o‘n yilliklarda pedagog olimlar va o‘qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg‘in o‘rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo‘layotganligi ham ta’lim-tarbiyada uning o‘rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi. Mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator konseptual texnologiyaning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar doirasiga o‘tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda.

Avvalo, nega bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug‘iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta’lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma’qullandi va 1972-yilda «Ta’limni rivojlantirish masalalari» bo‘yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamonaviy texnologiya ta’limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir, deb baholadi.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 440154

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Muhimi shundaki, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari har jihatdan ilmiy asoslab berildi va uning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Xo'sh pedagogik texnologiya nima? Uni amaliyotga qanday joriy qilish mumkin?

Dastlab «Texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan - «texnos» -hunar va «logos»-fan, so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda-mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak, bu ta'rifni istalgancha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak xato bo'lmaydi.

Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatorida, jahondagi progressiv pedagogik tex-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

nologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Oxirgi yillarda, Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan hamdo'stlik davlatlari o'rtasida ham pedagogik texnologiyalarning loyihalarini tuzish bo'yicha ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirishning zarurligini bunday mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bespalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

Rossiyalik olimlaridan biri – V.M. Monaxov «Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»,-degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi u.

M.V. Klarin fikricha, "Pedagogik texnologiya-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir".

V.P. Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N. Sayidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, "Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi(tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir".

I.Ya. Lernerning fikriga ko'ra, "Pedagogik texnologiya-o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi".

O'zbekistonlik metodist B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya-ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Polyak olimi Dj. Bruner «O'qitish texnologiyasi-bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi ma'lum yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligini e'tirof etdi. Tizimli yondashish ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga aniqlik kiritila borildi. Rus olimasi N.F. Talizina esa uning mohiyatini «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat», deb tushuntirdi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'tgan yillarda PT-o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalashdir, deya ifodalandi. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi yoki bunday yondashishda o'quvchi shaxsining inkor etilishi seziladi. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V. Bespalko payqadi va o'z asarida «Pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashdir», deb ta'rifladi.

Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarning qiyosiy tavsiflari keyingi paragrafda batafsil keltirilgan.

Shu o'rinda hamkasbimiz H. Abdukarimovning «Ma'rifat» gazetasida (1998 yil, 27 may) bosilgan «Zamonaviy pedagogik texnologiya nima?» maqolasini didaktik nuqtai nazardan baholashni kitobxonlar hukmiga havola etaylik-da, undagi bir-biriga zid va ilmiy asoslanmagan ikki ta'rifni keltirib o'taylik: 1. «Milliy dastur» — bu yangicha pedagogik texnologiyaning o'zi». 2.«Pedagogik texnologiya-pedagogik mahorat to'g'risidagi fan». Bu boradagi ta'riflarning xilma-xilligi bir tomondan bu mavzuning u yoki bu jihati soxta yechilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani ta'lim amaliyotiga joriy etishga bo'lgan urinishlarni ifodalaydi.

Qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda keng imkoniyatlar tug'ildi. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanayotganligini zamonaviy pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochmoqda.

Bizning fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida qarash yoki faqat ta'lim amaliyo-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

tini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo‘nalishlarini aniqlaydi. Bu erda izlanishning mohiyati - pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o‘rganish asosida modernizatsiya qilishdan iboratdir. Sababi, har qanday o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, PT - amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir.

Unda, pedagogik tizim mohiyati nimadan iborat? Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarini shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Agar maqsad o‘zgarsa tizim ham o‘zgarishi shart.

«Kadrlar tayryolash milliy dasturi» jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Demak, milliy dastur bizda ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti. Faqat davlat buyurtmasigina ta’lim va tarbiyaning aniq maqsad va vazifalarini belgilab beradi yoki oliy ta’lim uchun pedagogik texnologiyaning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Ta’lim turlari uchun umumiy bo‘lgan pedagogik tizim loyihasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari har qanday pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi invariativ elementlardan tashkil topishini ko'rsatib berdi:

1. Talabalar.
2. Ta'lim va tarbiyaning maqsadi.
3. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni.
4. Ta'lim jarayoni yoki didaktik jarayon.
5. Pedagog yoki o'qitishning texnikaviy vositalari.
6. Ta'lim va tarbiyaning tashkiliy shakllari.

Yuqorida keltirilgan pedagogik tizim har qanday ilmiy nazariyaga xos bo'lgani kabi quyidagi ikki tushunchani qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni hal etish texnologiyasi. Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining har qanday sohasi kabi aniq maqsad va unga erishish uchun shart-sharoitlar hamda bu faoliyat uchun axborotlar bo'lishi lozimligini taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, pedagog-metodistlar hozirga qadar didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishga e'tibor berishgan. Shu nuqtai nazardan, milliy dastur ijtimoiy buyurtma sifatida yangi pedagogik texnologiyaga «yangi» so'zining qo'shib ishlatilishi nazariyachi olimlarimiz va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'pchilik anglab yetmoqda. Shunday ekan, pedagogik texnologiyani qanday yangilash mumkin? E'tiborni yuqorida berilgan pedagogik texnologiyaning tuzilishiga qarataylik. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa pedagogik texnologiyaning bosh bo'g'ini hisoblanib, u pedagogik tizimning qolgan elementlarini, o'z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni ta'lim tizimini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa, deb belgiladi. Demak, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir.

Ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlari(DTS), o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topadi. Shu

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

munosabat bilan olimlarimizga fan sohalari bo'yicha ta'lim mazmunini ishlab chiqish kabi sharafli va mas'uliyatli vazifa yuklatildi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyada didaktik masalalarning o'z yechimlarini topishi-milliy dasturni ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo'lida bilimga chanqoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmundagi dastur, darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishi mumkin. Shu boisdan, o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi, uning pedagogik tizimda tutgan o'rni haqida batafsil to'xtalish zarurati tug'iladi.

1. O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada, ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu-birinchidan, jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil – talaba (o'quvchi) larning ma'lum faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ularning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, o'quv mehnatiga munosabati va sog'lom psixo-fiziologik faoliyati kabilardir.

4. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllar topish-ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi.

5. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'rida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

Shunday qilib, pedagogikaga xos bo'lgan texnologik jarayonni amaliyotga tatbiq qilish bilan bog'liq pedagog mahoratining ba'zi qirralari to'g'risida to'xtaldik. PT ning ilmiy xarakterga ega ekanligiga e'tiborni qaratgan holda, uning amaliy yo'nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo'llash mumkinligini e'tirof etish kerak.

Demak, nazariyani o'quv amaliyoti bilan bog'lash zaruratini anglash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tuzilmasini aniqlab beradigan bir qator holatlarni belgilashga imkon beradi:

1. Zamonaviylik ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribasinovda tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, tartib-qoidalarni joriy etishning majburiyligini taqozo etadi.

2. O'quv jarayonini maqbullashtirish-kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.

3. Ilmiylik ta'limda yangi vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni, tashkiliy masalalarning yangi yechimlarini qo'llashni taqozo etadi.

4. Talaba va o'qituvchining dasturli faoliyati o'quv jarayonidan jamiki ortiqcha harakatlarini yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va kerakli natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ta'minlaydi.

5. Ta'limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish-zamonaviy PT ning eng asosiy belgilaridan biridir.

6. O'quv jarayoni uchun moddiy-texnika bazasining maqsadga muvofiqligi – PT ning navbatdagi belgisidir.

7. O'quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash – PT ning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikrlar tahlili asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan, o‘qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Ta’lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo‘lib, u o‘z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishlariga bog‘liq ravishda ro‘y berayotgan aksariyat o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgara boradi. Ana shu doirada innovatsiyalar ta’lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Pedagogik nazariya va amaliyotning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasiga umumjahon ahamiyatiga molik bo‘lgan quyidagi asosiy yangiliklar xosdir:

- moliyalashtirish va boshqarish sohalaridagi o‘zgarishlar;
- ta’lim tizimi tuzilishidagi muntazam o‘zgarishlar;
- ta’lim texnologiyasida ro‘y beradigan doimiy o‘zgarishlar va h.k.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalar-ta’limga yangi tartib-qoidalarni kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tatbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko‘p vaqt sarflash lozim, ya’ni ta’limda innovatsion jarayonlarning tatbiq qilinishi bilan o‘qituvchining roli pasaymaydi, balki o‘quv-tarbiya jarayonining yuksak bosqichlarida yana ham ortadi. Bu esa pedagogdan o‘z ilmini yangidan va tanqidiy tahlil etishni talab etadi. Chunki yangi tartib-qoidalardan foydalandimi yoki axborot manbai sifatida qolib ketadimi, bu narsa ayni o‘qituvchiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quv texnologiyasining bevosita tartib-qoidalariga jiddiy tayyorlangan, yo‘l-yo‘riq olgan, moslangan, ruhlangan bo‘lishi lozim.

Pedagogning ijodiy potensiali uning o‘z ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo‘lishida, qobiliyati va kasbiy malakasini takomillashtirishida, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o‘quvchi-talabalarni komillik sari mohirlik bilan etaklay olishida ko‘rinadi.

Pedagogik jarayonda o‘zining yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini doimo rivojlantiradigan va takomillashtiradigan o‘qituvchi iqtidorli hisoblanadi. Pedagogik ijodiyot-o‘z mohiyatiga ko‘ra odamning yangi bilimlarni hosil qilish va takomillashtirish bo‘yicha ijodiy

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ishining kasbiy, maxsus ifodasidir. Pedagogik izlanish o'qitishda doimo ma'lum yo'nalishdagi subyektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi. Pedagogik izlanish natijasida yangilikning asosiy namoyon bo'lish shakllari kundalik o'quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik ta'sir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda ko'rinadi.

Yangi ta'lim tizimi mazmuniga o'tmishning qimmatbaho ma'naviy qadriyatlarini kiritish va unutilayozgan yoki taqiqlangan ba'zi birlarini qayta tiklashdan maqsad o'tmish oldida egilish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pog'onasiga chiqish demakdir.

Bugun biz yangi ko'rinishdagi ta'lim tizimini ishlab chiqishda Turkiston sivilizatsiyasining eng ko'p gullab-yashnagan davridagi, ya'ni VII-XII asrlardagi mehnat va kasb ta'lim tajribalariga tayanmog'imiz lozim. O'sha davr madaniyati va fanining asosini ta'lim tashkil etgan, rivojlanishning eng yuqori cho'qqilariga erishish yo'lida faylasuf va pedagoglarning aniq va konseptual g'oyalari shakllangan edi. Hozirgi zamon atamasi bilan aytganda, ta'lim va tarbiya, ilm — bu uzluksiz ravishda ma'naviy, jismoniy va aqliy salohiyatini rivojlantirish jarayonidir. O'sha davr faylasuflari insonning ma'naviy, jismoniy va aqliy xususiyatlarini yakka mujassamlikda, deb belgilashgan. Bunday falsafiy pedagogik konsepsiya ta'lim jarayonini shaxsning ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini boshlab beruvchi omil deb, e'tirof etadi. Bu konsepsiyalarning mazmuni faqatgina faylasuflar ishlarida emas, balki mehnat va ijodning turli vakillari asarlarida ham o'z aksini topgan edi.

Masalan, risola - bu hunarmandlar va ularning o'quvchilari uchun mo'ljallangan qo'llanma bo'lib, unda urf-odat, rasm-rusum, turli udumlar majmuasi aks ettiriladi. Risolalar kichik hajmdagi kitobcha shaklida bo'lib, ularning mazmuni ushbu soha hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlar va ba'zi bir pandu nasihatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, deyarli barcha risolalar bir xil qolipda tuzilgan bo'lib, odatda, kitobchaning boshlarida butun olam egasi bo'lgan Alloh, payg'ambarlar va uning barcha choriyorlarini ko'klarga ko'tarib maqtash, so'ng ushbu hunarmandchilikning Alloh ne'mati ekanligi, keyin esa hunarmand ishi boshlanadi-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

gan va har bir xatti-harakati yoki lozim bo'lgan Qur'on oyatlari yoki jarayondan oldin aytish lozim bo'lgan Qur'on oyatlari yoki boshqa duolar, usta-hunarmandlarning ma'naviy - axloqiy sifatlari yoritiladi.

Risolalarni tadqiq etish natijasida ularning o'rta asr hunarmandligida o'ziga xos pedagogik qo'llanma sifatida xizmat qilganligiga, risolalarda zamonaviy til bilan aytganda, hunarmand kasbiy faoliyatning mazmunini aks etganligiga guvoh bo'lamiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Chunki davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Milliy pedagogika tajribalariga murojaat qilish esa bunday maqsadlarga erishishning asosiy omillaridan biridir.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish-bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir. Ma'naviy intellektual sifatlarni zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgarishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarni odilona baholash tizimi tarbiya mazmuni, usullari va uning tashkiliy shakllarini yaxshilashga doir tuzatishlar kiritishi lozim. O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy holatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga ega ishdir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimining boyishiga, ular shaxsining rivojlanishiga hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to'g'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi-talabalarda bilimlar yanada kengayadi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Jahonning ilg'or tajribalari va ko'plab pedagoglar mehnatining natijasi o'laroq, reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezoni deb qabul qilindi.

Reyting deganda-baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan ko'rsatkich bo'yicha baholash tushuniladi.

Reyting nazoratida test usuli ham samarali qo'llaniladi.

Test deganda aniq vazifaning takomillashganlik darajasini aniqlash hamda sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini paydo qiluvchi va biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazorat va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi va h.k.

Reyting nazorat tizimining asosi sifatida o'quv rejasiga kiritilgan.

Har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari ballar bilan ifodalanadi. Har bir semestrdagi fanlardan to'plangan ballar yig'indisi tarzida talabaning o'zlashtirishini baholash jarayoni chorak va semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari shaklida tashkil etiladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat - bu o'rganiladigan mavzularning o'quvchi, talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini dars jarayonida muntazam ravishda nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan qanday o'zlashtirganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabaning bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borishni ko'zda tutadi.

Oraliq nazorat - bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga oladi va shu qism bo'yicha talabaning bilimini

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

aniqlashga xizmat qiladi. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat - bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitib bo'lingach o'tilgan mavzular bo'yicha yozma yoki og'zaki usullarda, shuningdek, test sinovlari shaklida o'tkaziladi. Talabaning fan bo'yicha semestrdagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballari bo'yicha aniqlanadi.

O'quv, pedagogik, ishlab chiqarish vadiplom oldi amaliyotlari davrida olingan bilimlar ham reyting ballari bilan baholanadi.

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy - siyosiy jihatdan yuksaldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun bugungi kunda kelajak ruhiga mos bo'lgan zamonaviy kadrlarga ham ehtiyoj sezila boshladi. Mustaqil davlat o'zining muhim tarixiy hujjatlariga ham ega bo'ldi va ular orasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi.

Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilandiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish-ta'lim-tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. Demak, yangi asr-informatsion texnologiyalar asri bo'lishi bilan bir qatorda ularning o'quv jaryonlariga keng ko'lamda aralashuvini ham ta'minlaydi.

1.3. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning ta'riflari

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e'lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi va insonparvarlashuvi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'ldi va ta'lim tizimida tub islohotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Ijtimoiy voqelik ta'limni boshqarish muammolarini ko'rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo'nalish sifatida ajratib olish, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratini belgilab berdi. Uning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o'rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
aloqalari; ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirish-dagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy etish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta'lim boshqaruvini demokratlashtirishni o'z ichiga oladi.

O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tizimlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari yordamida ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagogika fanida ta'lim usullari rivojlanishiga shu nuqtai nazardan qarab, uni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muallim «o'z qo'l kuchi» bilan o'qitish bosqichi, ya'ni o'quvchi uchun axborot manbai – o'qituvchining o'zi bo'ladigan jarayon.
2. O'quv kitoblari, darsliklar yaratilgan va keng qo'llanilgan bosqich.
3. Audiovizual vositalar qo'llanilgan bosqich.
4. O'qitishni boshqarishda oddiy avtomatlashtirish vositalarini qo'llash bosqichi.
5. O'qitishni zamonaviy AKT lari vositasida boshqarishning avtomatlashtirilgan bosqichi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o'qituvchi o'z kuchiga, o'z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo'lyozma kitoblar yaratildi, lekin o'quvchi ularning mazmunini o'qituvchi faoliyati vositasida o'zlashtiradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

2-bosqich, ya'ni qog'oz va o'quv kitoblari davri hali nihoyasiga yetkazilgani yo'q, darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi esa hamon mukammal emas. Lekin o'qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta'lim vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O'quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo'lgan. Keyingi davrlarda ham ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar kurashsiz amalga oshmagan, bunday o'zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o'quv vositalari o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi va o'quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lmaydi. Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan.

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ta'lim O'zbekiston davlati siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi va vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Auditoriyalarga kirib o'quv jarayonini kuzatgan kishi mavjud pedagogik tizim birinchi va ikkinchi bosqichlarga xos ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarning namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);
-pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;
- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar va obrazlar;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;
- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Shuningdek, texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Professor N.Sayidahmedovning fikricha, «Texnologiya – bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi regulyativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar, ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;

- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal – o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiya nimani anglatadi?

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini, o'z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

2. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajral-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

mas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi yoki talaba – kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo'ldi, ya'ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishida aqliy mehnat vositalarining o'zgarishi bilan bog'liq ikkita axborot inqilobi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Birinchi inqilob kitob bosishning paydo bo'lishi bilan ro'y berdi va telefon, telegraf, radioning ixtiro qilinishi bilan chuqurlashdi. Ikkinchi inqilob elektron-hisoblash mashinalari (EHM)ning paydo bo'lishi va tez tarqalishi, EHM lokal tarmoqlarining yaratilishi, axborot resurslarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Shu bois yaqin kelajakda respublika-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

mizdagi mavjud barcha o‘quv yurtlari dasturli mashinalar bilan yetarli darajada ta’minlash muammosi paydo bo‘ldi. Shundagina axborotli texnologiya asosida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi va u o‘qituvchining yaqin ko‘makdoshiga aylanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab etadi. Chunki pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e’zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug‘ullanishi va o’zini-o‘zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta’lim jarayonining subyekti - ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Umuman, pedagogik texnologiya o‘quv jarayoni va uning ishtirokchilari bilan bog‘liq barcha maqsadli sa’y-harakatlar yig‘indisini anglatishi lozim.

Hozirgi kunda uning mavjud ta’riflari juda ko‘p va xilma-xildir:

Texnologiya-biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar va yo‘llar yig‘indisi *(Izohli lug‘at)*.

Texnologiya-ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig‘indisi *(V.M.Shepel)*.

Pedagogik texnologiya-o‘qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo‘llari tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘indisi va komponovkasi(joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat *(B.T.Lixachev)*.

Pedagogik texnologiya-o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir *(V.P.Bespalko)*.

Pedagogik texnologiya-ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti *(I.P. Volkov)*.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ta'lim texnologiyasi-didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi *(M. Choshanov)*.

Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli *(V.M. Monaxov)*.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi bo'lib ta'limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir *(YUNESKO)*.

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va ularni amal qilish tartibini bildiradi *(M.V.Klarin)*.

Pedagogik texnologiya, bu-so'zsiz rioya qilish evaziga eng yuqori natijani kafolatlaydigan ko'rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo'lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat *(V.Yu. Pityukov)*.

Pedagogik texnologiya-bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir *(T.Sakomoto)*.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo'lib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi *(U. Nishonalieyv)*.

Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir *(N. Sayidahmedov)*.

Pedagogik texnologiya-bu jamiyat extiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatilgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir *(B.G'.Ziyomuhamedov)*.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagogik texnologiya bu – obyektiv, moddiy jarayon. Agar biz o‘quv-tarbiya jarayonidan uning obyektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida, uning tafsilotiga ega bo‘lamiz *(V.K. Dyachenko)*.

Pedagogik texnologiya- bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi *(B.L.Farberman)*.

Pedagogik texnologiya-turli mualliflar(manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini o‘zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat *(G.K. Selevko)*.

“Texnologiya” tushunchasi keng ma’noda insonning barcha antropogen faoliyati natijasida mahsulot yaratilishi jarayonlarini qamrab oladi. Texnika va texnologiya, sanoat va transport, mashinasozlik va aviatsiya, kimyo va metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik, umuman, yaratuvchanlik va ijodkorlik mehnati va metod, usul, vosita hamda jarayonlar majmuasini ifodalash uchun shu kungacha cheklanmagan miqyosda foydalanib kelinayotgan ushbu atamaning mazmun va mohiyati keng ko‘lamga ega bo‘lib qoldi. Pedagogik jarayonlar uchun tatbiq qilinuvchi texnologiyaning an’anaviy va noan’anaviy, tarixiy, klassik, yangi va zamonaviy turlari farq qilinmoqda. Asosiy maqsad - shaxsning ta’lim va tarbiyasi hamda uning aqlan va jismonan rivojlanishi bilan bog‘liq kasbiy faoliyat ekanligini nazarda tutsak, qanday nomlanishidan qat’iy nazar, pedagogik texnologiya komil inson tushunchasiga mazmunan singib ketishi lozim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

II BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING TAVSIFIY JIHATLARI

2.1. Pedagogik texnologiyaning manbalari, metodologik asoslari va uning turlari

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy kabi uch guruhga bo'linadigan metodlarning quyidagi variantlari qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy-tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanib, jahon talablari darajasida o'quvchi va talabalarni o'qitish mumkin.

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o'qituvchining o'quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo'ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o'quvchilar uchun o'rtasidagi munosabatlar uchun yo'naltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi *(A.A. Leontev)*.

Boshqaruv uslublari bo'yicha birinchi eksperimental psixologik izlanishlar 1938-yilda nemis psixologi Kurt Levin tomonidan AQShda emigratsiyalangan natsistlarning Germaniya hududiga qaytishi davomida o'tkazilgan. Bu izlanishda boshqaruv uslublarining kengaytiril-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
gan klassifikatsiyasi sifatida avtoritar, demokratik va e'tiborsizlik yoki layoqatsizlik uslublari kiritilgan edi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, K. Levin keltirilayotgan boshqaruv uslublari bo'yicha o'zining buyuk tadqiqotini muallimlarning maktab o'quvchilari ustidan olib boradigan boshchiligini o'rgangan holda o'tkazgan edi.

O'zining eksperimentida K.Levin o'n yoshga to'lgan maktab o'quvchilarini bir necha guruhlarga bo'ldi. Bu guruhlardagi bolalar bir xil mashg'ulot bilan, ya'ni qo'ng'iroq yasash bilan shug'ullandilar. Eksperimentning haqqoniy o'tkazilishi maqsadida guruhlar umumiy va xususiy belgilari bo'yicha, yoshi, jismoniy va intellektual ko'rsatkichlari, o'zaro shaxsiy munosabatlar tizimi va boshqalarning aynan mos kelishiga qarab tashkil etildi. Undan tashqari barcha guruhlar bir xil shart-sharoitlarda umumiy dastur bo'yicha ishladilar, bir xil vazifani bajardilar.

Faqatgina instruktorlar yoki bizga yaqin termin bilan aytganda, muallimlar o'zlarining boshqaruv uslublari bo'lmish demokratik, avtoritar va e'tiborsizlik yoki layoqatsizlik kabi uslublarda guruhlar faoliyatini olib borishi bilan farqlanadilar. Har bir muallim o'ziga biriktirilgan guruh bilan olti hafta ishladi. Undan so'ng o'zaro guruhlar almashinuvi amalga oshirildi. Bu guruhlar bilan yana olti haftalik ish kunlari yo'lga qo'yildi va yana yangi guruh bilan almashish amalga oshirildi. Bunday jarayon eksperimentni imkon qadar to'g'ri yo'lga qo'yilishiga katta yordam berdi. Undan tashqari, yuqorida keltirilib o'tilganidek, guruhlar umumiy va xususiy belgilarga ko'ra, aynan mos kelishiga qarab tashkil etilgan edi, shuning bilan birga, har bir muallim har qaysi guruh bilan yana qo'shimcha ravishda ish olib bordi. Natijada guruh omilining ta'siri emas, balki aynan boshqaruv uslublarining guruhdagi o'zaro munosabatlarga ta'siri, faoliyat motivatsiyasi, mehnat natijalari va boshqalarning ta'siri kuzatiladi.

K. Levin tomonidan o'tkazilgan eksperimentda aniqlangan o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotning u yoki bu xususiyatlarini qisqacha keltirib o'tamiz. Avtoritar uslubning xarakterli tomoni sifatida undagi qattiqqo'l boshqaruv va umumiy nazorat ko'proq muallimning boshqalarga nisbatan buyruq ovozida munosabatlarga kirishishiga va tez ogohlantirishlar berishiga olib kelishida ko'rish mumkin. Shuning bilan ba'zi ishtirokchilarga nisbatan sababsiz ogohlantirishlar va boshqalariga esa asossiz maqtovlar yog'dirilishi

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

kuzatiladi. Avtoritar muallim faoliyat va vazifaning umumiy maqsadlarinigina emas, balki u kimning kim bilan ishlashini ko'rsatib, uning yechilish yo'llarini ham belgilab berdi. Vazifalar va ularning yechilish yo'llari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Bunday yondashuv inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil rolini pasaytiradi. Chunki inson bunda o'zining faoliyatidan kutilayotgan maqsadni, ya'ni ushbu bosqichning nima uchun bajarilayotganligini va oldinda uni nima kutayotganligini aniq bilmaydi. Undan tashqari faoliyatni bosqichma-bosqich tartibga solish va nazorat qilish ishlari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining ishtirokchilar bilan bo'ladigan munosabatida uning mustaqilligi va javobgarligi sust yoki bu xususiyatlarning unda past darajada ekanligi kuzatildi. O'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan tashabbus yo'qolib, u xuddi keraksiz xohish sifatida qaraladi. K. Levindan so'ng amalga oshirilgan izlanishlarning ko'rsatishicha, tashabbus go'yoki avtoritar o'qituvchining ishonch vakolatini qisqartirar ekan. Aytaylik, kimdir ishni boshqacharoq tashkil etishni taklif qilsa, demakki u bu narsani oldindan ko'rib chiqmaganligiga sha'ma qilayotgandek tuyular ekan. Shuning bilan birga, ma'lum bo'lishicha, avtoritar lider ishtirokchilar muvaffaqiyatini subyektiv tarzda baholar ekan.

Demokratik o'qitish uslubida shaxs emas, balki faktlar muhimligi tan olinadi. Ammo demokratik o'qitish uslubining asosiy xususiyati sifatida guruhning o'rtacha tashlangan masala muhokamasida va uning tashkil etilishida faol ishtirok etilishi qaraladi. Natijada ishtirokchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi va o'z-o'zini boshqarish hissi rag'batlantiriladi. Bu uslubda guruhdagi o'zaro munosabatlar yaxshi kelisha olish tarzida davom etadi va bir-biriga bo'lgan ishonch kuchayadi. O'qitishda boshqaruvning layoqatsizlik uslubining asosiy xususiyati sifatida rahbarning bo'lib o'tadigan voqea-hodisaga nisbatan javobgarlik hissidan o'zini olib qochishini ko'rsatish mumkin.

Natijalarning ko'rsatishicha, eng yomon uslub layoqatsizlik uslubi bo'lib chiqdi. Bu uslubda vazifalar oz bajarilib, ularning sifati ham yomon edi. Eng muhimi, bunday guruhda hech qanday javobgarlik hissi bo'lmaganligi va vazifalar murakkab bo'lmagan qandaydir o'yinni eslatgani tufayli ishtirokchilar unga kam darajada qiziqish hosil qildilar. Avtoritar uslubda o'qituvchi bilan kelishishda ko'pgina janjallar paydo bo'lishi kuzatildi. Eng samarali uslub sifati-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

da demokratik uslub tan olindi. Guruh, ishtirokchilari uchun bu erda xarakterli xususiyat bo'lib vazifaga qiziqish va ichki faoliyat motivatsiyasi xizmat qiladi. Vazifalarning bajarilish sifati va aniqligi oshdi. Shu bilan birga, guruh qobiliyati, erishilgan umumiy muvaffaqiyatlar ustidan g'urur tuyg'usi, o'zaro ko'maklashuv va do'stona munosabatlar kuchaydi.

Bu natijalar keyinchalik amalga oshirilgan izlanishlar asosida ko'p marta tasdiqlandi. Pedagogik muloqotda demokratik uslubning afzalligi quyi sinf o'quvchilaridan boshlab yuqori sinf o'quvchilarigacha bo'lgan turli guruhlarda isbotlandi. Shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, birinchi sinf o'quvchilarida o'qishning ikkinchi haftasidayoq maktabga va o'qishga bo'lgan ishtiyoqning tez sur'atlarda susayishi aynan avtoritar o'qituvchilar boshchilik qilgan guruhlarda kuzatilar ekan. Shunday qilib, maktab hayotida va bilim olishda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlari muhim rolni o'ynashi aniqlandi. Adolat mezoniga asoslangan holda aytish lozimki, zamonaviy sotsial psixologiyaning tasdiqlashicha shunaqa holatlar ham bo'ladiki, ba'zida avtoritar uslub eng foydali va maqbul bo'lib chiqadi. Lekin, odatda, ko'proq pedagogik muloqotda bu qoida emas, balki istisnodir.

Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganida ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- u umr bo'yi o'z bilimini uning o'zigina boyitishiga ishonch paydo bo'ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratadi.

Buning uchun biz o'quvchiga «Sen buni bilishing kerak», degan majburlovchi da'vatdan «Menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga qodirman», degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Shu munosabat bilan doimiy harakatdagi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha tashabbuskor innovatsion guruhlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida hukm surayotgan inqirozdan qutilishning yagona va bosh mezonidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek: «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish-mamlakat taraqqiy etishining eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolda mo'ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodini shakllantirishni ta'minlaydi».

Pedagogik texnologiyaning umumiy muammolari ko'p va rang-barangdir. Bular orasida an'anaviy ta'limga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish, pedagogik jarayonni takomillashtirish, demokratik pedagogika elementlarini shakllantirish va ulardan amalda foydalanish, hamkorlik va insonparvarlik pedagogikasini kuchaytirish, bilim oluvchi va tarbiy alanuvchi shaxsini faollashtirish, ta'lim mazmunini didaktik tamoyillar asosida boyitish, o'quv jarayonini yuksak darajada tashkil etish va uni boshqarish, ta'lim-tarbiya jarayonlarining uzluksiz monitoringi va nazorati hamda sarhisobini amalga oshirish, rivojlantiruvchi va alternativ (muqobil) texnologiyalarni samarali tarzda qo'llash kabilar alohida o'rin tutadi.

Pedagogik texnologiyaning umumpedagogik, xususiy va kichik darajalari farq qilinadi. Bundan tashqari, sezgi a'zolari orqali bilim olishni ifodalaydigan empirik, moddiy va ma'naviy olam haqidagi bilimlarni kengaytiruvchi kognitiv, ijodiy faollik va o'quv-izlanish mehnatiga asoslangan evristik, tadqiqot va yangilik yaratish faoliyati bilan bog'liq kreativ, axborot va ma'lumotlarni qayta ishlash va o'zgartirish evaziga ta'lim-tarbiya beruvchi inversion, o'zlashtirilgan bilimlarni omixtalab tugal tafakkurga olib keluvchi integrativ, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olib o'qitishga tayanuvchi adaptiv, ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchi shaxsi bilan o'qituvchi (tarbiyachi) munosabatidagi tenglik va adolatlilikka bo'ysunuvchi inklyuziv kabi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari shakllangan. Ularning qam-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

rovi yuqorida tilga olingan uch xil darajada bo'lishi mumkin. Umumpedagogik texnologiya dunyo ta'lim tizimining barcha ilg'or va samarali elementlarini o'zida jo etadi va keng ko'lamda amalga oshiriladi. Bizning amaldagi uzluksiz va yagona ta'lim tizimimizda umumpedagogik texnologiya yetakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim turlari va yo'nalishlari, ixtisoslik va mutaxassislik tasnifi hamda ta'lim muassasasining o'ziga xosligi asosida xususiy texnologiya joriy etiladi. O'qitishning asosiy tashkiliy shakli bo'lgan dars va uning bevosita davomi bo'lgan darsdan tashqari ishlarda kichik texnologiyalar qo'llaniladi hamda ular lokal (mahalliy) pedagogik samaraga olib borishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning asoslari. Pedagogik texnologiya eng murakkab jarayon-insonning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishda asosiy vosita bo'lganligi tufayli ham uning asoslari ham shaxs murakkabligi kabi xilma-xildir. Ular orasida tarixiy, nazariy, ijtimoiy, falsafiy, metodologik, pedagogik, didaktik, fiziologik, gigienik, iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, amaliy va boshqalar farq qilinadi. Umuman, pedagogik texnologiyaning vujudga kelishi ilmiy jarayon sifatida qaraladi. Pedagogik texnologiya o'quv predmeti va fan sifatida o'zining hayotdagi munosib o'rnini egallab bormoqda. «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Zamonaviy pedagogik va interfaol texnologiya», «Axborot va innovatsion texnologiyalar», «Ta'lim texnologiyasi», «Texnika», «Mahorat», «Axborot texnologiyasi», «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari», «Ta'lim metodlari», «Tarbiya metodlari», «Pedagogik mahorat» kabi atamalar, tushunchalar, maxsus va tanlov kurslari, o'quv predmetlari shakllanib va ularning mazmun-mohiyati o'zgarib turmush va amaliy faoliyatga shiddat bilan kirib kelmoqda. Umumpedagogik tushunchalar tizimida texnologiya muammosiga ilmiy yondashish kuchaymoqda. Pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyat hamda o'qituvchi professiogrammasi bir butun jarayon yoki hodisa tarzida tasavvur qilinadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat o'zaro qondosh-egizakdir. Pedagogik texnologiyani o'qitish jarayonida qo'llash-sifat va samaradorlikning yetakchi omillaridan biridir.

Pedagogik texnologiyaning o'z tarkibi va mazmuni bo'yicha takomillashuvi, uning kasbiy faoliyat sifatida samaradorligining ortishi uzluksiz davom etadi. Bunday dinamik jarayon ta'lim tizimida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan garmonik tarzda kechadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagogik texnologiyaning umumiy tavsifi va tarkibiy mazmuni uning ijtimoiy hodisa ekanligida namoyon bo'ladi va ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq maqsad va vazifalar, motiv va ehtiyojlar, talab va manfaatlar, qiziqish va xohishlarni amalga oshirishda ro'y-rost ko'rinadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari. Asosiy tamoyil-pedagogik texnologiyaning O'zbekiston Respublikasida ta'limning uchta turi-umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim uchun yaratilgan va amaliyotga joriy etilayotgan davlat ta'lim standartlari hamda ta'limning boshqa turlari uchun tegishli davlat dasturlari va talablarini bajarishga yo'g'rilganligidir. Pedagogik texnologiya tamoyillarining manbalari ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar, yangi pedagogik-psixologik evrilishlar, pedagogika-psixologiya va barcha turdagi fanlarning integrativ va differensiativ rivojlanishi, dunyo pedagogikasi va milliy (mahalliy) pedagogikaning boy va ilg'or tajribasi, etnopedagogika(xalq pedagogikasi)ning tarixiy va zamonaviy merosidan kelib chiqadi. Pirovard natijada, pedagogik texnologiya pedagogikaning asosiy («oltin») qoidasini bajarishga, ya'ni ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Bunda izchillik, maqsadlilik, umumiylik kabi tamoyillar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyaning ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy va amaliy asoslari ham baravariga qatnashadi. O'qituvchi va o'quvchining munosabatiga daxldor tamoyillarning amal qilishi esa o'quv jarayonining sifat va samaradorligini ta'minlashning qudratli omilidir.

Pedagogik texnologiyaning barcha tamoyillari o'zaro aloqadorlikda va bir-birini taqozo etgan holda amal qiladilar.

Pedagogik texnologiyaning o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, novator o'qituvchilar tajribasi, ta'lim metodlari, tarbiya metodlari kabi tushunchalarni qamrab olishi bilan birgalikda ta'lim

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

jarayonida oldinga qo'yilgan maqsadga erishishning yo'li, o'ziga xos instrumentariy bo'lib hisoblanadi.

Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li.

Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

1. Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba (o'quvchi) egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Bilim, ko'nikma va malakalar DTS talablaridan past bo'lmasligi kerak.

2. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining maqsadi bitta- ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishdan iborat. Bu maqsad-davlat ta'lim standartlarining bosh talabidir. Ta'lim jarayonidagi har bir texnologiya, berilgan topshiriqlar o'quvchining ijodiy fikrlashiga va ijodiy rivojlanishiga olib kelsin. Shunday vaziyat yaratish kerakki, o'quvchi(talaba) o'z xohishi bilan izlansin, tafakkurini rivojlantirsin, intilsin, unda fanni egallashga qiziqish uyg'onsin.

3. Har bir mashg'ulotda beriladigan topshiriqlar umumiy vaqtning 20-25% ini egallasin, o'quvchining ijodiy tafakkur asosida ish olib borishi esa vaqtning 70-80% miqdoriga to'g'ri kelsin. O'quvchi ko'proq amaliy bilimlarni egallasin va undan nazariy xulosalar chiqara olsin.

4. O'qitish texnologiyasida bilim berish, bilim olish usulini tanlash va o'rganishga katta ahamiyat berish, bilim olishning bahs-munozara asosida amalga oshishini ta'minlash.

5. O'qitish usuli-texnologiyasi yangi pedagogik texnologiyalarning asosi bo'lib hisoblanadi.

6. Ta'lim jarayonida darslarni bahs-munozara, seminar, o'yinlar, disputlar, quvnoqlar va zukkolar musobaqasi tarzida va har xil teatrlashgan vaziyatlar shaklida tashkil etish, ya'ni ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish lozim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

7. Ta'lim jarayonining tayanch bilimlarni amaliyotga tatbiq etib, rivojlantirib borish asosida va tizimli tarzda tashkil etilishi yangi pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining uzviyligini ta'minlovchi - lokal (bitta yo'nalish) holatining samara berishiga olib keladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta'limni texnologiyalashtirish oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan.

Har bir dars ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutib amalga oshiriladi.

O'quv jarayonida motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi o'ziga xos texnologik vazifalar mavjud:

1. Motivatsiya - o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'u-istak, zaruratni shakllantirishdir. O'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi uchun ham asosiy harakatlantiruvchi kuch-ichki motivatsiya bo'lishi kerak.

2. Bilish faoliyatida e'tiborni asosan quyidagilarga qarata borish kerak: o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, bilimlarni puxta o'zlashtirish istagini paydo qilish, zarur malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga moyillik tug'dirish, tafakkur rivojiga jiddiy e'tibor qaratish va h.k..

Boshqarish faoliyatining vazifalari berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini tashkil etish bilan bog'liqdir. Darsda qo'llanilayotgan texnologiyalarga ularning monitoringi asosida va pirovard natijasi orqali baho beriladi.

Pedagogik innovatsiya-ta'limga yangiliklarni kiritishdir. Boshqarishda pedagogik innovatsiyaga rioya qilmoq zarur.

Pedagogik texnologiya esa dinamik jarayonlarning in'ikosi sifatida rivojlanadi, takomillashadi va vaqt mezonida boyib boradi.

2.2. Ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuv

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash-ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi iborasini esga olish o'rinlidir: "-Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u har birimizdan astoydil, betinim va mashaqqatli mehnatni talab etadi." Darhaqiqat, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijti-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

moiy tashkilotlar va, ayniqsa, ta'lim tizimi mutasaddilarining zimmasiga bu masala yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda ta'lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Ikkinchi tomondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo'lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir. Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak;

Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqlol g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir.

Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi — tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lo-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

zim. Ta'lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur.

Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuiy o'qitish va h.k. Ammo ularni oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Uning ustiga ayrim pedagoglar konservativ fikrlash doirasida turib o'qitishning noan'anaviy usul va metodlariga, ko'pincha, bepisand munosabatda bo'ladilar.

An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar.. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashning harakatlari, operatsiyalari, usullari majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi (ilovaga qaralsin).

Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishni tashkillashtirilish bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi.

Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki-ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv. U an'anaviy bo'lib, asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'riladi. Bu tizimdagi bilimlar – asosan esda saqlab qolish natijasi,

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

rasmiy ma'lumotdir, ko'pincha, yuzaki bo'lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan bo'ladi yoki boshqa so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol qo'yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda uni eslashi, ba'zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv respublikamiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan. Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasiga bog'liq bo'lmagan holda, bevosita berishi mumkin bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqadi. Demak, shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi – zaruriy axborotni ma'lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

V.Guzeevning ta'kidlashicha, an'anaviy metodikaga xos bo'lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini «o'zlashtirish» tushunchasi qobig'iga o'ralgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg'or o'qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda pedagog talabaning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusi-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ni qo'llab-quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Pedagogning talaba shaxsiga bo'lgan munosabati, ularga muhabbati va jon koyitishi, yuksak ishonchi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida talabalarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va, aksincha, ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, talabalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o'z o'rni bor va u o'z joyida qo'llanishi lozim.

Izlanuvchan yondashuv. Bu yondashuvdagi maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Izlanuvchan ta'lim andozasida ta'lim mazmuni tabiat va jamiyat bilan uzviy o'zaro ta'sirdagi shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag'batlantiruvchi yo'l tutadi, ularning shaxsiy tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, xatti-harakati, harakatning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy ma'no kasb etishini rivojlantirish yo'lini tutadi. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlashi uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq.

Pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo'l tutadi, talabalarning o'quv faoliyatining operativ-texnik jihatlarini o'zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag'batlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bugungi kunga qadar o'qitishda izlanuvchan yondashuvni o'z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko'rinishlari ishlab chiqilgan.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, u pedagogikada keng qo'llanadi. «Tizimli yondashuv» tushunchasi, ko'pincha, «tizimli metod», «tizimli tahlil usuli» tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda anglanadi. Chunki tizimli tahlil usullari ham

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

obyektni yaxlit tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko‘ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o‘zaro uzviyligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog‘liqligi, aloqadorligini nazardatutadi.Bu tizimdabir qanchaqoidavaprinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmui bo‘lib, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi. Texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi.

Ta’limga texnologik yondashuv o‘quv jarayonini o‘zaro uzviy bog‘liq etaplar va amallarga ajratishni va bo‘lishni; ta’limdan ko‘zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Qayta takrorlanish xususiyati tufayli ushbu tizim modul shakliga ega bo‘lib, mazmunlar bilan to‘ldirilgan va umumiy tarkibga bog‘langan birliklar, ya’ni ta’limning umumiy maqsadi va mazmuni, o‘quv maqsadi, o‘qitish va baholash jamlamalaridan tashkil topadi. Amalda bu pedagogning qayta-qayta takrorlanuvchan harakatining algoritmi hisoblanadi. Ushbu algoritmning yangi va yangi bo‘limlarda qo‘llanishi o‘quv jarayoni ko‘lamini qamrab oladi.

Ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagoglardan pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriroq malaka talab etiladi. Loyiha tayyor bo‘lgach, pedagog asosan tashkilotchi va maslahatchi vazifalarini bajaradi.

Bu yondashuv asosan, reproduktiv ta’limga xosdir. Reproduktiv ta’lim tipik vaziyatlardabiror ish-harakatni oldin bilib olingan qoidalar asosida bajarishdir. Reproduktiv daraja uchun pedagogik

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

texnologiya usulida ta'lim – takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzilib, ishlab chiqiladi, ba'zi bo'laklari qismlarga ajratilib, har bir bo'lakni o'rganish mustaqil nazorat qilinib, xato va kamchiliklari to'g'rilanib boriladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalari bo'lgan o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilganligini ham kuzatish mumkin. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'lim jarayonining ilg'or texnologiyalarini o'rganish va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va hududimizning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini va an'analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va ularni rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabat o'quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Ta'limni boshqarishga tizimli yondashuv - bu boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos holda shakllantirish jarayonidir. Ta'limda boshqarish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning harakatchan modelini tuzish orqali boshqarish o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Mo'ljallangan texnologiya tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlash; tayyorlangan ma'lumotlarni o'qitish uslubi va maqsadini e'tiborga olgan holda ma'lum ketma-ketlikka keltirish; o'quv materiali mazmunni qo'llamoqchi bo'lgan pedagogik usullar nuqtai nazaridan tahlil qilish; pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining tegishli bosqichiga oid maqsadni aniqlash; pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayoni ketma-ketligini ishlab chiqish; texnologiya-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

lardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash; texnologiyalarni qo'llash va erishilgan natijalarni bilim, ko'nikma va malaka tizimlariga ajratish; olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini aniqlash; ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasini baholash; ta'limni boshqarish jarayoni to'g'risida tegishli xulosalar chiqarish va boshqalar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ijodiy pedagogikaga, ijodkor o'qituvchiga ehtiyoj nihoyatda ortib bormoqda. Bugun ta'lim muassasalarida ijodkor o'qituvchilarning mavjud bo'lishi-davr talabidir.

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'ysundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Demak, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu esa, shaksiz, pedagogik korxonada, ya'ni pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi.

Tarbiyalash texnologiyasi – nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga jiddiy ta'sir qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O‘qituvchi(pedagog)larning o‘zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar, ayniqsa, muhimdir. O‘zaro hamkorlik pedagogikasi – o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba o‘rtasida hamfikrlilik, bir-biriga ishonch, o‘zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarning anglab olinishi va e’tirof etilishini kafolatlaydi.

Milliy o‘zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g‘oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko‘p millatli xalqimiz an’analaridan ayrim holda tiklab bo‘lmaydi. Yoshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi aynan shulardan quvvat oladi, ma’naviyatga erishish va uning rivojlanishi shular bilan chambarchas bog‘liqdir.

Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma-ketligini to‘g‘ri «texnologik» tanlay bilish o‘ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta’riflash yetarli. Lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini belgilash zarur bo‘ladi.

«Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi mutaxassislarning umumiy va kasbiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha jamlama tarbiyaviy ishlar rejasi»-tarbiyaviy ishlarni dasturlashga misol bo‘la oladi. Ushbu dastur Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi oliy o‘quv yurtlari olimlari va pedagoglarining mehnati mahsulidir. Uning asosi etib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekistonning daxlsizligini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini barpo etish, har bir talabani ko‘p qirrali, barkamol va Vatanning yuksak g‘oyalariga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash haqidagi ko‘rsatmalari olingan.

Dasturda asosiy tarbiyaviy yo‘nalishlar va maqsadlar keltirilgan. Jumladan, fuqaro tarbiyasi, kasb egallash, shaxsiy mas’uliyat, yuqori malakali bo‘lish va kasbiy mahoratni egallashga intilishni tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish kabilarga alohida e’tibor berilgan.

O‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog o‘zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya’ni, nazariy-amaliy materiallar, o‘quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Pedagog o‘zidagi mavjud ma’lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

mavjud metodika va ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olish qobiliyatlari mavjud bo'lsa, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadni belgilab bera olishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish, asosan, tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish-zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab berdi. Birbiriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat; ya'ni:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxs fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda va boshqacha munosabatlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimida yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan kuchlar shakllanmoqda, yangi ijodiy yechimlar topilmoqda va ta'lim dasturini individuallashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kuchaymoqda.

Ta'lim-pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchi(pedagog)ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi-talabaning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish;
- bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;
- o'rtacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchi-talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish va h.k.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan holda to'ldiradi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshiruv, ta'limni alohida o'rgatuvchi epizodlarga bo'lish, o'quv jarayonining barcha bunday qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga mujassamlashtirish imkonini tug'diradi.

U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- bajariladigan o‘quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog‘lanish asosida zudlik bilan ta’lim jarayoniga tuzatish kiritish imkoniyati bo‘lishi lozim);
- natijani baholash.

O‘quv maqsadlarining to‘liq standartlashtirilishining me’yori quyidagicha bo‘lishi mumkin:

a) yuqori, ammo mutlaq emas:

b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to‘liq kuzatuvchan xatti-harakatlar tipiga aylantirish imkonini bermaydi, sikl to‘laligicha qayta ishlab chiqilmaydi.

Ikkinchi holatda konveyerli jarayon bo‘lgan ta’limning reproduktiv tipi bilan ish yuritiladi.

O‘quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagog olimlar, metodist o‘qituvchilar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va prinsiplari asosida uslubiy materiallarni ishlab chiqish paytlarida ulardan yuksak malaka talab etiladi. Materiallar tayyor bo‘lgach, pedagog, asosan, tashkiliy va konsultativ (ijodiy qo‘shimchalar kiritish imkonini saqlagan holda) vazifalarni bajaradi.

O‘quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o‘quv jarayonining so‘nggi natijalariga yo‘naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko‘rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikatsiyalangan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o‘quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o‘quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab oladi. O‘qituvchi (pedagog) o‘z oldiga o‘quvchi-talabalar o‘quv materialining mazmunini tushunib, o‘zlashtirib olsin, ma’lum bilimlarni egallab, amaliyotga qo‘llashga o‘rgansin degan maqsadni qo‘yadi. Biroq o‘zlashtirish, tushunish, qo‘llash nimani anglata-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

di? O‘qituvchi (pedagog) o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, o‘qituvchi(pedagog) o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlarining maqsadga muvofiqligiga, yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo‘yicha, o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning tipik usullari quyidagicha:

1. O‘quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.

2. Maqsadni o‘qituvchi(pedagog) faoliyati orqali aniqlash.

3. O‘quvchi-talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o‘quv maqsadini qo‘yish.

O‘qitishning maqsadi va ta’lim mazmunini o‘qituvchi (pedagog) yoki o‘quvchi-talabaning faoliyati orqali belgilash ta’limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo‘lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida o‘quvchi-talabalar faoliyatining faqat tashqi tomondan namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Bu maqsadga erishishning juda sodda va samarasiz yo‘lidir.

Rivojlangan davlatlarda o‘quvchi-talaba va o‘qituvchi (pedagog) lar uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odat tusiga kirgan. Bu mantiqan to‘g‘ri, chunki o‘qitish jarayoni pedagog va o‘quvchi-talabaning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

Bunda maqsadlar o‘qituvchi(pedagog)ning faoliyatidan kelib chiqqan holda qo‘yiladi (o‘rgatish, tushuntirish, ko‘rsatish, aytib berish va hokazo), o‘quvchi-talabaning xarakterlarida ifodalanadigan natijalar esa ta’limning vazifalari deyiladi. Bunday ma’noda ta’lim vazifalari o‘quvchi-talaba mashg‘ulotning oxirida bilishi yoki bajara olishi mumkin bo‘lgan narsani anglatadi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida vazifalarni o‘lchash, aniqlash, o‘qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo‘lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta’lim maqsadi shunday qo‘yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

III BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING SHAKLLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TUZILMASI

3.1. Ta'lim texnologiyasi va uning tuzilishi

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab va ko'p komponentlidir. Ta'lim samaradorligi pedagog va talaba-o'quvchining faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmli kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan ko'pgina omillarga bog'liq. Jamiyat o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta'lim samaradorligi yuqori bo'lishini talab etadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov «...shuni yaxshilab tushunib olishimiz zarurki, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish, avvalo, aholining siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog'lik faol ishtirok etishi bilan uzviy bog'liq», deb ko'rsatdi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch bilimlarga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab talabaning hayotiy tajribasi avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha talabalarda bilim yetarlicha bo'lmagan holda ham talabada salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu talabaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga talabalarda ishonch paydo bo'lishiga erishish mumkin.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olishga qaratilgan. Bilim berishda talabaning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi yetarlicha hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha talabaning bilimni aniqlash, mavzuga xos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish yetarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarni esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi, deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash talabani faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida uchta darajada qo'llaniladi:

1. **Umumiy pedagogik daraja**. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliligi, ma'lum bir region, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik tex-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

nologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining obyekti va subyekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. **Xususiy metodik darajada** pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. **Lokal (modul) darajada** o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchi- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ular bilimini nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari, asosan, ta'lim doirasida o'rganilmoqda. *Ta'lim texnologiyasi* deb, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmunini va modellashtirish darajalari – o'quv materiali, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni o'quvchi-talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim natijasini qabul qilingan etalon darajasiga ko'tarish va baholashga oid usullar, vositalar, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi yetakchi prinsipi (subordinatsiya) ni chegaralaydi, undakoordinatsiyao'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishning yetakchi prinsipigaaylanadi.Koordinatsiyata'limni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning bosh prinsipiga aylanganda o'quvchi-talaba ta'lim jarayonining o'qituvchi (pedagog) bilan teng huquqli subyektiga aylanadi, ta'lim jarayonini o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba birgalikda amalga oshiradi.

G'arb mamlakatlaridagi ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi dasturlashtirilgan ta'limga borib taqaladi. Dasturlashtirilgan ta'lim asoschilaridan biri Berres Frederik Skinnerning ta'kidlashicha, o'quvchilarning o'quv materiali va uni o'zlashtirishga oid xatti-harakatlari (o'quvchi faoliyati) pog'onalar (ta'lim bosqichlari)ga ajratiladi, har bir bosqichda o'quv materialining ma'lum ulushi to'liq

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

o‘zlashtiriladi, o‘quv materialining o‘zlashtirilgan ulushi tekshirilib, keyingi ulushni o‘rganishga o‘tiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili ma’lumot mazmunini to‘liq o‘zlashtirish taktikasidan iborat bo‘lib, u dastavval dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti qobig‘ida paydo bo‘lgan edi.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o‘ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o‘zining ko‘p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to‘liq namoyon bo‘lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog‘liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo‘ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog‘liq.

Pedagogning belgilangan o‘quv-tarbiya vazifalarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan talablar asosida yo‘l qo‘yiladigan chegaraviy ko‘rsatkichlar doirasida bajarish holati, ishlash qobiliyati deb atalishi mumkin. Demak, u yoki bu fan o‘qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta’lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog‘lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash uchun qator ko‘rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:

- pedagogik natijaviylik – pedagog guruhida fan bo‘yicha o‘zlashtirishning o‘rtacha qiymati;
- o‘qitishning ilmiylik darajasi – pedagogning o‘quv elementlarini fan abstraksiyasi pog‘onalari bo‘yicha tushuntirishi;
- ta’lim mazmunini metodik tayyorlash – umumiyligi, izchilligi, harakatdaligi, ortiqcha emasligi kabi talablarning e’tiborga olinishi;
- ta’limda u yoki bu natijani qo‘lga kiritish yo‘llaridan samarali foydalanish – ekstensiv yoki intensiv sharoitda va hokazo.

Umuman olganda, pedagog uchun asosiy kasbiy-me’yoriy ko‘rsatkich – bu, birinchi navbatda, o‘z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab yetishidir. Pedagog o‘zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o‘z o‘rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

talab qilib bo'lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o'zining unga moslanuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to'liq tasavvur etishi kerak.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchi- talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu erda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi.

Demak, maqsaddan etalonga yetib kelguncha o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi (pedagog) hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim nati-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

jasini tez-tez tekshirib, o‘quvchi-talabalarni o‘zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o‘quvchi-talabalar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O‘quvchi-talabalar ta’limning zaruriyligini, ular ta’lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

Ta’lim texnologiyasi bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta’lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Ta’lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma’lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning didaktik maqsadi, o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish usuli oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta’lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta’lim loyihasini amalga oshirish. Ta’lim loyihasi bevosita ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan o‘quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;

- o‘quvchi-talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag‘batlantirish, ular diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o‘rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg‘otish, o‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o‘quv holatlariga tat-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

biq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchi-talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchi-talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir o'quvchi-talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad – o'quvchi-talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'iyanligi – didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

4. O‘quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O‘qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo‘lgan chetga chiqish chegarasining ko‘rsatilishi.

6. O‘quvchi-talaba va o‘qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta’minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

7. O‘qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Yuqorida berilgan ko‘rsatkichlar loyihalangan o‘quv jarayonining texnologik darajasini to‘liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani muntazam tahlil qilib borish, loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash metodlarining maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish (ta’lim metodlari), olinishi zarur bo‘lgan natijani oldindan tahlil qilish (maqsadlarning amalga oshishiga erishish), o‘quv jarayonining yaxlitligini ta’minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish, ayniqsa, xorijiy davlatlardagi pedagogik texnologiyalar tajribalaridan foydalangan holda o‘zimizning tizimlashtirilgan ta’lim jarayonining zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotda qo‘llash uchun quyidagi tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari – o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalar o‘rtasida:

O‘quv rejasini ishlab chiqish, ya’ni o‘qituvchi (pedagog) bo‘lim va bobni o‘rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada o‘quvchi-talaba va o‘qituvchi (pedagog) faoliyati o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillaridan biri bo‘lgan o‘quv mehnatining o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba o‘rtasida izchil rejalashtirilgan taqsimoti o‘qituvchi (pedagog)dan ta’lim jarayonini izchil boshqarishni talab qiladi.

2. Fanning ichki bog‘lanishi va fuqarolararo bog‘lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Har bir o‘rganiladigan kichik va yirik o‘quv birliklari oldin o‘rganilganlarga tayanadi. Bunda fanlararo bog‘lanishlar va o‘quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajalarini bilish ham muhim tomonlardan biridir. Demak, o‘quvchi-talabani yangi bo‘lim, bobni o‘rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo‘limni o‘rganishga yetarli bo‘lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina bilimlarni o‘rganishning navbatdagi bosqichiga o‘tish mumkin.

3. O‘quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.

O‘quv birliklari o‘quvchi-talaba o‘rganishi lozim bo‘lgan tushunchalar, ta’riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar, voqealardan iborat bo‘lib, ular orasidagi mantiqiy bog‘lanishning ta’minlanishi shu bob yoki bo‘limning o‘zlashtirilishiga olib keladi. O‘qituvchi (pedagog) bob, bo‘lim uchun ajratilgan soatlarda o‘quvchi-talabalar o‘rganishi lozim bo‘lgan mezonlar hisoblanib, o‘quvchi-talaba bilimini baholashning chegaraviy qiymati aniqlab olinadi. O‘quv rejasini tuzishda o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalar bilishi kerak bo‘lgan o‘quv birliklarini bo‘limlar, boblar bo‘yicha aniqlaydi va ularga mustaqil topshiriq sifatida bo‘limni o‘rganishdan oldin vazifa qilib beradi.

4. Diagnostik tahlil.

O‘quvchi-talabalar bilimidagi notekisliklarni aniqlash, ularni to‘ldirib va navbatdagi o‘zlashtirish bosqichiga ko‘tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- o‘quvchi-talabalar o‘zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- ular bilimidagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to‘ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta’lim texnologiyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, asosiy o‘zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir o‘quvchi-talabaning bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo‘li bilan ta’lim jarayonining natijasi kafolatlanganligini ta’minlaydi.

5. Tuzatish kiritish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Bo‘lim yoki bobning o‘zlashtirilish darajasining diagnostik tahlili natijasi 50 foizdan kam ko‘rsatkichni bersa, o‘qituvchi (pedagog) ta’lim jarayonining borishiga tuzatish kiritishi shart.

6. Qayta to‘ldirish (nuqsonlarni yo‘qotish).

Qayta tuzatish kiritilishidan (korreksiya) maqsad olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to‘ldirish asosida amalga oshiriladi.

7. Kutilishi lozim bo‘lgan natijani olish.

Bu element zamonaviy pedagogik texnologiyalarning markaziy g‘oyasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoni natijasi kafolatli bo‘lishini talab qilar ekan, jarayon borishidan ko‘zda tutilgan maqsad amalga oshirilishi va natijali bo‘lishining rejalashtirilishini o‘qituvchi (pedagog)lar oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Ta’lim texnologiyasi asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar an’anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi:

- mashg‘ulotlar o‘quvchi-talabalarning o‘quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;
- ta’lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo‘ljallab tashkil etiladi;
- har bir o‘quvchi-talaba o‘z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur’atda ishlaydi;
- jamoa a’zolarining har biri o‘zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi; erishilgan natija ta’limning har bir bosqichida etalonga birlashtirib turiladi;
- natija o‘quvchi-talabalarning asosiy o‘quv maqsadlariga ko‘ra aniqlanadi;
- o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirgan o‘quvchi-talaba keyingi mavzuni o‘rganishga o‘tadi;
- etalondan past o‘zlashtirgan o‘quvchi-talabalar uchun ta’lim o‘xshash sharoitlarda takrorlanadi;
- o‘quvchi-talaba uchun o‘qish-o‘rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;
- o‘quvchi-talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga — bilimlarga, undan umumiy o‘quv maqsadiga qarab boradi;
- harakatga teng maqsaddan umumiy o‘quv maqsadiga qarab borish o‘qish-o‘rganishning sikliyligini ta’minlaydi;
- yakuniy (nazorat) baho o‘quv kursi to‘liq o‘rganilgach chiqariladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

3.2. Ta'limda axborot texnologiyalari

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.k.);

2. Axborotni yer sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashlarsiz yetkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio eshittirish, televidenie, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh aloqa, telefon tarmog'i va h.k.);

3. Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulatsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini-o'zi kamolotga yetkazishga intilishni shakllantirish;

- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy,texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblash va mikroprotsessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri-kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;
- ta'lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari tushuniladi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga, uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dasturiy-matematik ta'minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda.

Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo'lmagan fazoda amalga oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo'ldoshli aloqa tizimlari. Ko'plab yer ustidagi stansiyalarni va yer sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash hamda televidenie dasturini uzatish uchun ishlatilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari. Sun'iy intellekt elementli AKTning boshqalaridan farqi shundaki, oddiy AKTlari faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi-sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. «Elektron pochta» – bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o'xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta yoki qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, u xabarlarni to'plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi axborot xizmati ko'rsatish amalga oshirilgan. So'nggi yillarda jahon bozorida elektron nashrlar borgan sari ko'p o'rin egallamoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi.

Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarning amalga oshirilishiga misol bo'la oladi. Telekonferensiyalarni o'tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmli materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

kengaytirish, xalqaro ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchi-talabaning emas, u, eng avvalo, o'qituvchi(pedagog)ning texnologiyasidir. O'quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o'rganmaydi, balki uning mahsulotidan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O'qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo'llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o'quvchi- talabalar bilimini nazorat qiladi va uning vazifasi ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi.

Axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish omillari kompyuterlashtirishning har ikkala yo'nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyatiga bog'lanadi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida «kompyuterlashtirishning konsepsiyasi» yaratilishi lozim.

Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq ta'limning hali tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga uzatish jarayoni bo'lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

- o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- «axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;
- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoni darajasidagi va yetarli miqdorda axborot bilan ta'minlash;
- o'quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Kompyuterli texnologiyaning mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo'llashga asoslangan bo'lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo'yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog'ining imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo'ldiki, u o'qitishda ko'pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo'llagan holda eng muhim narsa o'quvchi-talabalarni kerakli axborotni tanlab olishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi(pedagog)ning vazifasi axborotni berishdan iborat emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo'ladi, o'qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi hamdir.

Bu kabi o'qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda o'quvchi-talabaga ta'sir ko'rsatish birgina axborot kanallari (ko'rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtda foydalanish mumkin.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchi (pedagog) vazifasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni pedagog ta'lim-tarbiya berishdan ko'ra ko'proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi. Bularning hammasi esa o'qituvchi(pedagog)larni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o'zgartirishni talab qiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'qituvchi (pedagog)larning axborot madaniyati asoslari metodologik, umumta'limiy, umummadaniy xarakterda bo'lib, pedagog xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida barcha o'quv fanlari kompleksini o'rganishda shakllanishi lozim.

Keyingi yillarda Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ma'lumki, o'qituvchi(pedagog)larning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchi-talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar qilish kerak. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma'lum bir sohada yetarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Bugungi kunga kelib, Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo‘sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz? Virtual stend – o‘quv amaliy stendi yoki o‘quv-malaka ustaxonasi bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Virtual stendlar har bir o‘quvchi-talaba uchun texnikaga o‘zining kirish parametrlarini «buyurishga», o‘z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o‘tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog‘liq vaqtdan yo‘qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta’lim muassasalarida taqsimlash bilan bog‘liq ulkan moliya zaxiralarining tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo‘lgan oddiy kompakt diskka o‘nlab, ba’zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta’lim muassasalarini yalpi ta’minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog‘i bo‘lsa, undan ham yaxshi bo‘ladi. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, virtual stendlar ko‘proq qo‘llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Internet tizimining xalqaro axborot tizimi orqali masofali usullar yordamida mutaxassis kadrlar tayyorlash va pedagog kadrlar malakasini oshirish imkoniyati respublika Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktyabrda e’lon qilingan maxsus qarorida ko‘zda tutilgan. Tahsil olayotganlar ham, ta’lim muassasalari ham virtual stendlardan foydalanishdan manfaat ko‘radilar.

Ularning joriy qilinishi natijasida, an’anaviy ta’limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ta’lim jarayonining yanada yuqori sifati ta’minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan o‘qituvchi (pedagog) va test o‘tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollarni o‘z ichiga olgan ixtisoslashgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish, o‘quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o‘qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta’lim maskanlarining o‘quv imkoniga ega bo‘lamiz. Bu esa ma’lum daraja-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

daturli muassasalar mutaxassislari diplomlarining qadri teng bo‘lishini ta’minlaydi.

Demak, ta’lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta’lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o‘qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o‘rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o‘qitishga, ta’lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo‘lib jo‘nashining oldini olishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta’lim jarayonini, o‘quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o‘zlashtirish sur’atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko‘proq individual ravishda yordam berish;
- o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o‘z- o‘zini takomillashtirish, ta’lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o‘rganish;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;
- barcha ta’lim muassasalarida o‘qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;
- ta’lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo‘li bilan takomillashtirish.

3.3. Pedagogik texnologiyada qo‘llaniladigan usul va vositalar

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy pedagogik texnologiya fani pedagogik prognostikaning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o‘z zimmasiga olmog‘i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta’lim muassasalarida amalga

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

oshirilayotgan ta'limning o'rni va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Shundagina ta'lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi. Pedagogik prognostikaga tayangan holda yaratilgan nazariyalargina uzluksiz ta'lim jarayonini uning bosqichlari va komponentlarining mazmuni, shakli va vositalarini, ta'lim natijalarining jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'sir darajasini oldindan loyihalashtirishga asos bo'la oladi. Demak, shundagina o'quv-tarbiya jarayonini yangi prinsiplar va yangi mafkuraviy negizda qayta qurish, ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini tashxis qilish va yaratilgan nazariyalar, o'quv-metodik majmualar tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy qilishning metodologik asoslari, aniq mexanizmlari, usul va vositalarini ishlab chiqishi kerak. Ta'lim jarayonining tashxis qilish mexanizmi shu jarayonning yutuq va kamchiliklari, ta'lim natijasining sifat ko'rsatkichlari, ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan pedagogik nazariyalar, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim amaliyotini rivojlantira olish yoki ta'limning taraqqiyotiga to'sqinlik qilish darajasini aniqlashga yo'naltirilishi kerak. Pedagogik tajriba-sinov esa amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. O'tkazilayotgan tajriba-sinovning xarakteri bilan bog'liq tarzda o'quv dasturlari, darslik va dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, didaktik ishlanmalar yaratilishi va tajriba-sinov jarayoniga taqdim etilishi zarur. Agar o'quv dasturi tajribadan o'tkazilayotgan bo'lsa, kuzatilayotgan ta'lim jarayonini, ya'ni darslik yoki dars ishlanmalari, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashga erishish talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchining qaysi metod yoki pedagogik texnologiyani qo'llaganligiga emas, balki o'quv dasturi doirasida taqdim etilayotgan o'quv materiallarining samaradorligini aniqlashga qaratiladi. Chunonchi, tajriba-sinov jarayoniga jalb etilgan nazariyalar hamda tajriba sinflaridan olingan natijalar statistik jihatdan ishlanishi talab etiladi. Amalga oshiriladigan tajriba-sinov jarayoni va ularning natijasi ekspertizasiga nufuzli ilmiy-pedagogik jamoalar hamda yetakchi mutaxassislar jalb etilishi talab qilinadi. Keng ko'lamli tajriba-sinovlarning amalga oshirilish

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

jarayoni va natijalarining ekspertizasi ilmiy-pedagogik jamoalar tomonidan oldindan tasdiqlangan nizom talablari asosida amalga oshirilishi kerak.

Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishida pedagogik prognostika o'zining aniq belgilab olingan maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiq etayotgan muammolarning mantiqiy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o'zining tayanch metodologiyasiga ega bo'lgan pedagogika fanining muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik prognostika ilmning ustuvor sohasi sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim tizimini yangidan-yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta'lim modellari va texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgandir.

Pedagogik prognostika o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tanlaydi. Tanlab olingan muayyan ta'lim texnologiyalari doirasida o'quvchi-talabalarga turli darajadagi tushunchalarni hamda mujassamlashgan bilimlarni taqdim etish yo'llarini, shakl va vositalarini taklif qiladi. Muayyan bir pedagogik texnologiyani nazariy jihatdan asoslaganda pedagogik prognostika o'quvchi hamda o'qituvchining jonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga, uning erkin fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutmog'i lozim.

Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari xoh ta'lim mazmuni, xoh o'quv dasturi yoki darslik, xoh o'qituvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'iy nazar, o'quvchining jonli tarzdagi erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi. Bunda pedagogik texnologiyalar, birinchi navbatda, har bir o'quvchi-talabaning boshqa o'quvchi-talabalar, dars materiallari hamda o'qituvchi (pedagog) bilan erkin tarzda muloqot qilishini, fikr almashishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi yoki talaba shaxsiga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq-odobini, muayyan fan asoslarini tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu sohada nazariy jihatdan qat'iy asoslangan, har tomonlama sinovdan o'tgan hamda aniq amal qiluvchi qonuniyatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

Bu o'rinda ta'lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shuning uchun ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, o'quvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish, e'zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi (pedagog) ta'lim mazmunining subyekti, o'quvchi-talabalar pedagogik jarayonning obyekti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi-talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Ushbu pedagogik texnologiyada ta'lim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g'oyasi muhim o'rin tutadi. Bu g'oya qay darajada amalga oshirilganligi ta'lim jarayonining asosiy natijasi pedagogik jamoa mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga bo'lgan munosabat hisoblanadi.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – o'z oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishining maqsadi sari qiladigan harakati, ya'ni faoliyati jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni engib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi. Maqsadga yetishda muayyan to'siqni engib o'tish uchun qo'llanadigan tadbir va choralar majmui usul deb ataladi.

Inson maqsadga etishda bir necha, ba'zan esa o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengishiga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun tegishli usullar ma'lum bir tizimda qo'llanadi. Maqsadga yetishda qo'llanadigan usullar tizimini uslub deb ataladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llash jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, inson maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Ta'lim uslubi – o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi-talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. O'qitish uslublari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchi-talabalarning ta'lim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublar: tushuntirish – illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot uslublari qo'llaniladi.

Ta'limning og'zaki uslublariga: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu uslublarni qo'llashda o'qituvchi (pedagog) so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchi-talabalar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladi.

Hikoya uslubida o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Bu uslubni qo'llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Masalan, diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlar shular jumlasidandir. Hikoya samaradorligining shartlari: rejani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, ko'rgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

Ma'ruza – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi-talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta'rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi-talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tu-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

tib, u o‘quvchi-talabalarning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o‘zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo‘llashda savollarni qo‘yish (asosiy, qo‘shimcha, yo‘llovchi va boshqalar), o‘quvchi-talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Ta’limning ko‘rgazmali uslubini shartli ravishda ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: ko‘rgazmali va namoyish qilish uslublari.

Ko‘rgazmali uslubi o‘quvchi-talabalarga namoyish etiladigan qo‘llanmalar, jumladan, xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, suratlar va boshqalarni ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Namoyish qilish uslubi, odatda, qurilma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog‘liq.

Ta’limning ko‘rgazmali uslublarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg‘unlashib ketadi. So‘z va ko‘rgazmalilikning chambarchas bog‘liqligi shundaki, obyektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo‘llanishni taqozo etadi. Demak, so‘z va ko‘rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ta’lim vazifasining o‘ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko‘rgazmali vositalarning xarakteri, o‘quvchi-talabalar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, aniq bir holatda ular oqilona uyg‘unlashtiriladi.

Amaliy uslublar tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi. Amalda quyidagi usullar qo‘llaniladi: vazifa (maqsad)ni qo‘yish, uni bajarish uslubini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to‘liq erishish uchun ta’lim jarayoniga tuzatish kiritish.

Amaliy mashqlarning aniq turlaridan biri mashqni sharhlash hisoblanadi. Uni bajarishda o‘quvchi-talaba bo‘lajak xatti-harakatini faol mushohada qiladi, o‘ziga o‘zi eshittirib gapiradi hamda bo‘lajak voqeani sharhlaydi. Harakatni sharhlash o‘quvchi-talabaga o‘zining tipik xatosini anglashga va harakatiga tuzatishlar kiritishiga ko‘maklashadi.

Amaliy tarbiya uslublarining ikkinchi guruhini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Keyingi yillarda maktab, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlarida frontal laboratoriya ishlari mustahkam o‘rin oldi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Amaliy uslublar tarbiyani so‘z orqali ifodalash va uni ko‘rgazmali uslublar bilan mustahkamlash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqlikda qo‘llaniladi, bunda mashq, tarbiya, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin o‘qituvchi (pedagog) tushuntirish beradi, ko‘rsatadi. Og‘zaki tushuntirish va ko‘rgazmali namoyish, odatda, mashqni bajarish jarayonining o‘zi bilan bir vaqtda olib boriladi.

Muammoli-qidiruv uslublari muammoli ta’lim jarayonida qo‘llanadi. Bu uslublardan foydalanishda o‘qituvchi (pedagog) avvalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo‘yadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. O‘quvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi takliflarini aytadi va oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub o‘quvchi-talabalarning bilimga qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

O‘quv materialini muammoli uslub yordamida o‘tish muammoli tuzilgan ma’ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, o‘quvchi-talaba fikrini o‘z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Muammoli-qidiruv uslublari ko‘proq ijodiy bilim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi. Ular o‘quvchi-talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu uslublar ta’lim jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko‘zda tutilganda, faktik axborotni ma’lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya tajriba o‘quv ko‘nikmalarini hosil qilishda, o‘quv materialining mazmuni prinsipial jihatdan yangi bo‘lmasdan, ilgari o‘rganilganining mantiqiy davomi bo‘lsa, uning asosida o‘quvchi-talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa, samarali qo‘llanadi. Muammoli-qidiruv uslublari ko‘proq o‘qituvchi(pedagog)lar o‘quvchi-talabalarni muammoli vaziyatni yechish faoliyatiga tayyorlagan hollarda qo‘llanadi. Shuning uchun bu uslub o‘zini ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlagan talaba yoshlarga asqotadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagog, odatda, o‘z oldiga talabalar materialning mazmunini tushunib, o‘zlashtirib olishsin, ma’lum bilimlarni egallab amaliyotda qo‘llashga o‘rgansin, degan maqsadni qo‘yadi. Lekin o‘zlashtirish, tushunish, qo‘llash nimani anglatadi? Pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, pedagog o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. O‘qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko‘rinishda oladi. Hattoki, o‘quv dasturlarida belgilangan maqsadlar ham bir nechta tushuntirishlar bilan cheklangan. Bu erda maqsadlarni aniqlashtirishning o‘ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan – ta’lim tizimi vazifalariga, ulardan–ma’lum o‘quv yurti, o‘quv predmeti, uning mavzuli bo‘limlari va alohida o‘quv maqsadlariga o‘tish mumkin.

M.V.Klarin ta’limoti bo‘yicha pedagoglar tomonidan maqsadlarni belgilashning an’anaviy usullari quyidagilar:

1. O‘quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash.
3. Talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanishi ichki jarayonlari va qonununiyatlari orqali o‘quv maqsadni qo‘yish.
4. O‘quv maqsadlarini talabalar faoliyati orqali qo‘yish.

Shu munosabat bilan o‘qitishning maqsadlarini ta’lim mazmuni, pedagog yoki talabaning faoliyati orqali belgilash ta’limda kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida talabalar faoliyatining faqat tashqi namoyon bo‘lishidan xulosa chiqarish mumkin. Pedagog o‘qitish natijasini aniqlashtira borib, uning kuzatish mumkin bo‘lgan tashqi belgilarini, ya’ni so‘zlashish, harakatlanish jarayonini to‘la tasvirlashga intiladi. Ba’zida, tasvirlash jarayoni tashqi belgilarini sanab chiqishga olib keladi va ushbu jarayon orqali natijani sezilarli darajada soddalashtirish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada nazarda tutiladigan maqsadlarni qo‘yish uslubi o‘zining ashyoviy xususiyatiga ega. Bu shundan

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

iboratki, o‘qitish maqsadlari talabalar harakatida ifodalanadigan va aniq ko‘rinadigan va o‘lchanadigan natijalar orqali belgilanadi.

Demak, an’anaviy o‘quv jarayonida asosiy omil bu pedagogning faoliyati hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o‘ringa ta’lim jarayonidagi talabalarning faoliyati qo‘yiladi.

Ilg‘or ijodkor pedagoglar, an’anaviy ta’lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, talabaning aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlanishlari natijasida o‘ziga xos ta’lim usuli vositalarini yaratadilarki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Mana shu izlanishlar zamirida zamonaviy pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo‘nalish berish ta’limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligi ta’minlangan holdagina kutilgan zarur natijani berishi mumkin. Ta’limga testlar, diagnoz va diagnostik tahlilning olib kirilishi, bilimlarni ko‘p balli baholash tizimida aniqlashga o‘tish, bo‘lim mazmunini yaxlit holda o‘zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida, talabalarning ishlashi va an’anaviy dars shakllarining vujudga kelishi, biz shu paytgacha o‘rganib qolgan an’anaviy ta’lim o‘rniga vujudga kelgan pedagogik texnologiyalar bo‘lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta’limga o‘tishni taqozo qiladi.

Ta’limni amalga oshirish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi talaba shaxsi ustuvorligini ta’minlash;
- ta’lim maqsadining natijaga erishuvini amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- muntazam tahlil qilib borish;
- loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- metod va usullarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish;
- olinishi zarur bo‘lgan natijasini oldindan taxmin qilish, ya’ni maqsadlarning amalga oshishiga erishish;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kirishni taqozo qiladi. Bular quyidagilar:

1. Diagnoz.
2. O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.
3. Diagnostik tahlil.
4. Tuzatish kiritish (korreksiya).
5. Qayta to'latish (ketma-ketlikni yo'qotish).
6. Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish.
7. Reyting.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va elementlarga asoslangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari pedagog va talaba o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish, ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada talaba faoliyati o'z aksini topmog'i lozim.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak, talabani yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa, oraliq tayyorgarlik olib borish va shundan keyingina talabani bilimlarni o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri diagnoz (tashxis) hisoblanib, talabalarning yangi yangi bilimlarni o'zlashtirishga qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

3. O'quv birliklari mezonlarini belgilash. O'quv birliklari talaba tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushuncha, ta'rif, qoida, qonunlar, hodisa va voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishini shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi. Pedagog bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda talabalar o'rganishi kerak bo'lgan o'quv birliklarini aniqlaydi, u uchun

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ajratilgan vaqtni ham belgilaydi. O‘quv birliklari o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan mezonlar hisoblanib, talabalar bilimini baholashning chegaraviy qiymati bilan o‘lchanadi, ya’ni talaba ushbu ko‘rsatilgan mezonlarni bilsagina baholanadi. Pedagog shu paytda guruhga nisbatan o‘rtacha baho bilan ishlamaydi, balki aniq o‘lchovlarga asoslangan holda ish olib boradi. O‘quv rejasini tuzishda pedagog talabalar bilishi lozim bo‘lgan o‘quv birliklarini bo‘lim, bob va semestrlar bo‘yicha aniqlaydi hamda talabalarga topshiriq sifatida bo‘limni o‘rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o‘zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat topshirig‘iga o‘tkaziladi.

4. Diagnostik tahlil. Bilim, ko‘nikma va malakadagi kamchilikni aniqlash, ularni to‘ldirish va navbatdagi o‘zlashtirish bosqichiga ko‘tarilish maqsadida quyidagi diagnostika tadbirlari amalga oshiriladi:

- o‘quvchi-talabalar o‘zlashtirish darajasini diagnostikalashtirish;
- bo‘limlardagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to‘ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bilan ishlash soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta’lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo‘lib, uning asosiy elementlaridan hisoblanadi. O‘zlashtirishdagi kamchiliklar sababini aniqlash, har bir talabaning bilim darajasini aniqlash, rejaning borishida tuzatishlar kiritish yo‘li bilan ta’lim jarayonining kafolatlanganligi ta’minlanadi. Diagnostik tahlil nazorat turlaridan test so‘rovida amalga oshiriladi.

5. Qayta to‘ldirish (nuqsonlarni yo‘qotish). Qayta tuzatish kiritishdan maqsad, olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to‘ldirish asosida amalga oshiriladi. Qayta to‘ldirish asosan amaliy-tatbiqiy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Shu maqsadda pedagog talabalar o‘zlashtirish darajasidagi to‘ldirishni amalga oshirmog‘i lozim. Bunda pedagog tanlayotgan o‘quv vazifasining darajasini talabalarda mavjud bo‘lgan real bilimlarga moslashtirish zarur.

6. Kutilishi lozim bo‘lgan natijalarni olish. Bu element pedagogik texnologiyaning markaziy g‘oyasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoni natijasida kafolatli bo‘lishini talab qilar ekan, pedagog oldiga jarayonning borishini ko‘zda tutilgan maqsadda amalga oshirish va aniq natijani mo‘ljallab rejalashtirishni maqsad qilib

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

qo‘yadi. Jarayon borishi davomida shu jarayon tahlil qilib boriladi, tuzatishlar kiritiladi, qayta to‘ldirishlar amalga oshiriladi va oldindan kutilishi rejalashtirilgan natija olinishiga erishiladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya deb ilgari surilgan g‘oyaning maqsadi ana shundadir.

Jahon pedagogika fani ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’sirini boshidan kechirib, psixologiya, kibernetika, tizimlar nazariyasi, boshqaruv nazariyasi va boshqa fanlar yutuqlarini birlashtirib, bugungi kunda faol yangilanish jarayonlari bosqichiga o‘tdi va inson imkoniyatlarini samarali rivojlantirish amaliyotiga boy mahsul bermoqda.

Pedagogik texnologiya uslublari dastlab ta’lim berishning namunaviy vaziyatdagi o‘zlashtirish talab etiladigan mahsuldor, ya’ni reproduktiv darajasi uchun ishlab chiqilgandi. Reproduktiv ta’lim har qanday ta’limning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamg‘argan tajribani aniq o‘quv fani doirasida o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Ta’lim oluvchilarda bilim va ko‘nikmalarning ma’lum «poydevori» hosil qilingandan keyingina, ta’limning natijali, ya’ni produktiv va ijodiy yondashish uslublariga o‘tish mumkin.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

IV BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI JORIY ETISH MUAMMOLARI

4.1. Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.
2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.
3. Modulli dars.
4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.
5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.
6. Didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o'yin-mashqlar) darslar.
7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida, AKT nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo‘yicha o‘qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg‘ota olishidan iborat.

Muammoli vaziyat-tinglovchi(bilim oluvchi)larga beriladigan fakt va ma’lumotlar, axborot va bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo‘lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining yetishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatning xususiyati quyidagilardan iborat:

- o‘quvchi-talabalar uchun noma’lum yangilikning mavjudligi;
- muammolarni o‘zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o‘zlari o‘rganishga harakat qilishlari;
- nima noma’lum ekanligini bilib, ma’nosini tushunib, uni hal etishga intilishi kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o‘quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o‘quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma’nosiga jiddiy ravishda e’tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta’limni tashkil etish va olib borishda o‘qituvchi (pedagog) o‘zining ta’lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi (pedagog) o‘quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to‘g‘ri yo‘nalish berishi lozim. O‘quvchi-talabalar mashg‘ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o‘zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo‘lishni maqsad qilib qo‘yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlaridagi muammoli ta’lim o‘quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o‘zgarishlarga bo‘ladigan qarashiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O‘qituvchi (pedagog) muammoli ta’lim tizimida o‘quvchi-talabalar o‘quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi- talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurni rivojlantirish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan yechishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

1. O'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini shakllantirish;

2. Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va ularni amalda qo'llash malakalarini hosil qilish;

3. Izlanuvchanlik, qiziqish, motivlar, mantiqiy tafakkur, ijodiy faoliyat, aqliy kamolot, zakovatni rivojlantirish va shu kabilar.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish,

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

bilimlarni o‘rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta’limda muammoli o‘qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta’limni tashkil etishda o‘quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O‘quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo‘yishi va maqsadiga erishishi uchun o‘z bilimini to‘g‘ri baholay olishi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko‘zda tutiladi, ya’ni;

- o‘quvchi-talabalar diqqati o‘quv materialiga tortish;
- o‘quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otish;
- ularni o‘zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalar qo‘yish;
- o‘quvchi-talabalar o‘rganishi mumkin bo‘lgan bilimlar yetarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko‘rsatish;
- o‘quv materiallarini tahlil etishga o‘rgatish;
- o‘qitishdagi muammolarni hal etishning yo‘llarini topishda ularga ko‘mak berish.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo‘linadi:

1. O‘quvchi-talabalar o‘z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o‘z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O‘quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo‘llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo‘l bilan hal etishi va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o‘rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. O‘quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o‘zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o‘rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish samarali, maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun uni o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta’lim yordamida talabalarda o‘quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o‘rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

4.2. Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy fanlarni o'qitish

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim. Ular quyidagi yo'nalishlardir:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari ham e'tiborga molikdir. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi-motiv-maqsad-vazifa-mazmun-shakl-metodlar-metodika komponentlari yig'indisi;
- subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi – o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlikka asoslangan hayotiy davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi – boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish:
- tashkiliy tuzilma – diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni-tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- nihoyat amalga oshishi qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;
- qoliplashtirish (streotiplashtirish) qonuni;

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jara-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

yonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi—talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya — bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

sabatlari bilan bog'liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni; hayotda qaysi sohani tanlashidan qat'i nazar, ehtiyoj darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish-shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri, deb qarashni; iqtisodiy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda iqtisodiy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda, eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;
- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;
- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;
- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

Hozirgi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq ijtimoiy sohada va, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taraq-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

qiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Rivojlangan bir qator mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda respublikamizning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish bugungi kunning talabidir.

Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Biroq mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin emas. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalarini an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayoniga joriy etila boshlanganligida bo'lib, o'z mazmuni va metodi bo'yicha bu texnologiya aniq maqsadga yo'naltirilmagan. Shu munosabat bilan iqtisodiy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammmo va istiqbollarini ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilayapti. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, u o'ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o'quv mashg'ulotlariga, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi.

Iqtisodiy fanlardan o'rganilayotgan materiallarning o'quv soatlari miqdori hisobga olingan holda mavzu bloklariga ajratiladi, har bir ma'ruza mavzu blokiga 2-8 o'quv soati oralig'ida vaqt ajratiladi hamda ushbu mavzu blokiga mos amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va hajmi belgilanadi. Bu usulda har bir mavzuni o'rganishdagi ichki izchillik va uzviylik to'la saqlanadi va talabalarda

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

mavzuga oid malaka va ko‘nikmalarni to‘laroq va maqsadliroq shakllantirish imkoniyati kuchayadi.

Innovatsiya texnologiyalari o‘qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko‘tarish, o‘qituvchi-pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo‘lib qolmoqda.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ba’zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba’zilarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida metodik tavsifnoma berib o‘tamiz:

«TARMOQLAR» metodi - o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.

«3x4» metodi - o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan.

«BLITS-O‘YIN» metodi – harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.

«INTERVYU» texnikasi - o‘quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan.

«IERARXIYA» texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan.

«BUMERANG» texnikasi - o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida , darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«TALABA» treningi - o‘quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘siqni yo‘q qilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan,

«O‘QITUVCHI SHAXSI» treningi – o‘qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

«MULOQOT» texnikasi o‘qituvchilarni auditoriya diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

«BOSHQARUV» texnikasi o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

Fikrlar hujumi (aqliy hujum)

«Aqliy hujum» - muammolarni hal qilishda keng qo‘llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni o‘z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko‘p sonli yechimlar topishda yordam beradi (Bu vaziyatda men nima qilishim kerak? Bu to‘siqni qanday bartaraf qilishimiz kerak?). Aqliy hujum qadriyatlarni tanlash va muqobillarini aniqlashga yordam beradi.

Aqliy hujumni o‘tkazish qoidalari, foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. O‘ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar o‘ylash jarayonida g‘oyalarni baholaydigan bo‘lsak, qatnashchilar e’tiborlarini o‘z fikr va g‘oyalarini himoya qilishga qaratib, ularning yangilari va yaxshilari ustida bosh qotirmay qo‘yadilar. Baholash qoidadan istisno qilinishi kerak.

2. Hammani o‘ta xilma-xil kutilmagan g‘oyalar doirasida o‘ylashga undash kerak. Haqiqatdan ham aqliy hujumda kutilmagan g‘oyalar yuzaga kelmas ekan, ayrim qatnashchilar o‘z shaxsiy fikrlarini qayta ko‘rib chiqishlari aniq bo‘lib qoladi.

3. G‘oyalar miqdori rag‘batlantiriladi. Miqdor deyarli doimo o‘sib, sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdorda g‘oyalar paydo bo‘lganda, odatda, baholash istisno qilinadi.

4. Har bir kishi o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Oldin taklif etilgan g‘oyalarni biriktirish yoki o‘zgartirishga, ko‘pincha, sabab bo‘lganlardan ko‘ra yaxshiroq g‘oyalarni keltirib chiqaradi.

Samarali «Aqliy hujum» metodidan foydalanish quyidagilarni taqozo etadi:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- qatnashchilar bemalol o‘tiradigan qilib joylashtiriladi;
- g‘oyalarni yozish uchun doska yoki varaqlar tayyorlab qo‘yiladi;
- muammo aniqlanadi;
- ish qoidalari belgilanadi;
- g‘oyalar hech qanaqasiga baholanmaydi;
- fikrlarga to‘liq erkinlik beriladi;
- miqdorga intilish;
- o‘qish, qayta o‘zgartirish va boshqalar;
- g‘oyalar haqida so‘rash va aytilishi bilan yozib olish;
- qog‘oz varaqlari to‘lganda, ularni devorlarga osib qo‘yish;
- o‘zidan qo‘shib yangi g‘oyalarni rag‘batlantirish;
- ishni davom ettirish va o‘zgalar g‘oyasiga aralashmaslik.

«Aqliy hujum» metodining mohiyati ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunda maqsad berilgan qisqa vaqt ichida ma’lum muammoning yechimini topishga qaratilgandir. Bu psixotexnik o‘yin mashg‘ulot jarayonida ijodiy va noandoza fikrlashni uyg‘otadi. Bitta yoki bir necha guruh tashkil etiladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Talabalar o‘z oldiga qo‘yilgan muammoni yechish uchun turli g‘oyalarni ilgari suradi. Echim variantlari qancha ko‘p bo‘lsa, tanlash jarayoni shunchalik oson bo‘ladi. Har bir ilgari surilgan g‘oyani atroflicha ko‘rib, kengaytiriladi va ular orasidan eng to‘g‘ri g‘oyani muammoning yechimi sifatida qabul qilinadi. Muammoni yechish vaqti oldindan belgilab olinadi va unga qat’iy amal qilinadi. «Aqliy hujum» o‘yini qiyin vaziyatlardan qutulish chorasini tez topishga, muammoni ko‘ra bilish chegaralarini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkur yuritishga imkon beradi. Bundan tashqari jamoadagi munosabatlar o‘zgaradi, kurashish kayfiyatidan ijodiy hamkorlik kayfiyatigao‘tiladi vaguruh yanadajipslashadi.

«Tarmoqlar» (Klaster) metodi

Bu usulning ma’nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchi- talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi. O‘quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda ken-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

gaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'qituvchi yoki talaba, iqtisodchi yoki tadbirkor rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash va mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar.

«Veer» (elpig'ich) texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. «Veer» texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

1. Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa va tushuncha tekshiriladi.

2. Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

3. Fazilat – ijobiy sifat.

4. Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

5. Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari bu texnologiya tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- muammoga diqqatni jamlay olish mahorati.

Ta'lim samaradorligini oshirishda «Blits-o'yin», «Chorraha», «Muomala texnologiyasi» kabi ish o'yinlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, «Agar men ... bo'lsam», «Men shunday qilgan bo'lar edim» kabilar.

«Iqtisodchi» texnologiyasi (Mualliflik)

Bu usul interfaol texnologiya bo'lib, talabalarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Iqtisodiy iboralarni pedagogik terminlar bilan to'ldirishda yordam beradi.

«Iqtisodchi-rahbar» texnologiyasi

Bu usul talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, «O'zini-o'zi boshqarish», «Rahbarning

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

tashkiliy qobiliyatlari», «Zamonaviy tadbirkor shaxsi», «Zamonaviy iqtisodchining shaxsi» deb nomlanuvchi mavzularning yakunida «Iqtisodchi-rahbar» degan yangi usuldan foydalaniladi. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda «Men-firma direktori», «Men-rektor», «Men-bankir», «Men-tadbirkor», «Men-deputat» kabi savollar yozilgan bo'ladi. Har bir guruh talabasi o'ziga tushgan faoliyatni ta'riflab, mazmunini ochib beradi,uning ish yuritishi va hatto, kiyinishigacha gapirib beradi. Javob beruvchi talabaga beriladigan savollarning 5-7 tadan oshmasligi shart. Oxirida tahlil qilingan obrazning ishi va uning kasbiy sifatlari, mehnat faoliyatining mazmuni, ish sharoitlari, o'ziga xos harakatlarining manzarasi ifodalanadi.

Bu o'yin-usuli talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Psixotexnik o'yinlar didaktik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Bu o'yinlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi o'qitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik o'yinlar ko'proq umumiy malakalarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Masalan, o'quv jarayonida bilimlarni tartib-tizimiga solish ularni mustahkam egallashga yordam beradi. Axborotni tizimga solish jarayonida talabadan diqqat talab etiladi. Bunda talabaga tartibsiz holda axborot tarqatilib, ularni ma'lum belgi asosida guruhlarga ajratish yuklatiladi.

Press-ekspress uslubiyoti asosida tashkil etiluvchi o'yinlar talabalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam berish bilan birga ularni hozirjavoblikka o'rgatadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan ma'lum mavzuga bag'ishlangan va qisqa javob talab etuvchi 10-15 ta savol tuzilishi lozim. Har bir javob uchun 2-3 soniya ajratiladi. Ya'ni talabalardan qisqa vaqt ichida og'zaki javob berish talab etiladi. Bu jarayonda talaba o'zi bilgan axborotlar ichidan kerakli javobni tez topishni o'rganadi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchi-talabalarda fikriy bog'liqlikni kuchaytiradi, mantiq va xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Talabalarda muammoni hal qilishda o'z fikrini

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi hamda turli g‘oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi o‘quvchi-talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega. «Skarabey» texnologiyasi alohida ishlarda, kichik guruhlarda va mashg‘ulotlar o‘tish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

«Skarabey» texnologiyasidan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

- boshida-o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
- mavzuni o‘rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;
- oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

Ta’limdan tashqari «Skarabey» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o‘zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- imkoniyatni ko‘rsatish ehtiyoji;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o‘z faoliyati natijalariga mas’ullik va qiziqish uyg‘otadi.

Psixotexnik o‘yinlar didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lgan turi hisoblanadi. Bu o‘yinlar o‘quv jarayonida kerak bo‘luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi o‘qitish usuli hisoblanadi. Psixotexnik o‘yinlar ko‘proq

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

o‘quvchi-talabalarni bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yuqoridagi texnologiyalar tavsiya qilingan. Bu faoliyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha bajariladigan ishlar quyidagicha tashkil etiladi:

- oliy maktab o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalarga o‘qitish;
- ta’lim muassasalarining fan o‘qituvchilarini o‘qitish;
- ta’lim muassasalarining ayrim toifadagi rahbar kadrlarini o‘qitish;
- akademik guruhlar murabbiylarini tarbiyaviy texnologiyalarga o‘qitish.

Shu yo‘nalishlar bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish, texnologik xaritalar tuzish, tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan amaliyotda foydalanish lozim. Bunday faoliyatda ko‘chma seminarlar ham amalga oshiriladi. Ko‘chma seminarlarni tayyorlash va o‘tkazishda har bir o‘quv yurtining o‘quv-tarbiya jarayoni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dasturlar yaratiladi.

Bugungi kunda Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ta’lim sohasida iqtisodiy fanlarni o‘qitish, iqtisodiy ta’lim-tarbiya, o‘zlashtirilgan iqtisodiy bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, iqtisodiy fanlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir. Shu o‘rinda aytish kerakki, iqtisodiy tarbiya tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog‘liqlikni ta’minlovchi «bosqichli ta’lim» konsepsiyasi tavsiya etildi. Konsepsiya negizida maktabgacha ta’lim sohasida o‘zlashtirilgan elementar iqtisodiy ta’lim-tarbiyadan to iqtisodiy madaniyatlilik darajasigacha bo‘lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga iqtisodiy tayyorgarlik, iqtisodiy tafakkur, fikrga egalik, iqtisodiy ong va iqtisodiy madaniyatlilik kabi sifatlarni yetkazishni talab qiladi.

Ma’lumki, bilimlarni nazorat qilish hamda baholashning reyting tizimiga o‘tilguniga qadar o‘quv jarayoni faqat o‘qituvchi (pedagog)ning mahoratiga asoslangan bo‘lib, bilim olishni o‘quvchi-talabaning faolligi, ijodiy mehnati asosida tashkil etishga imkon bermas edi, berilayotgan bilimlar miqyosi oshib borayotgan bo‘lsa ham, o‘quvchi-talabaning bu bilimlarni o‘zlashtirish darajasi talab doirasida emas edi. Bu hol ta’lim jarayoniga o‘quvchi-talabalarni bir xil uzluksiz

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

bilim olishga undaydigan, ular olgan bilimlarni jahon talablari darajasiga yetkazish imkonini beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim uslublarini joriy qilishni taqozo etdi. Shu maqsadda oliy ta'limdan so'ng, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ham bilimlarni nazorat qilish va baholashning reyting amaliyotiga o'tildi.

Reyting tizimida iqtisodiy bilimlarni ko'p bosqichli nazoratini amalga oshirish va baholashda asosiy uslublardan biri to'g'ri tuzilgan testlardan foydalanishdir. Test sinovlarini ishlab chiqishda uslubiyot didaktik testologiya nazariyasini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarimizni iqtisodiy tarbiyalangan, ta'lim olgan, iqtisodiy savodxonlik va tayyorgarligi davr talabi darajasida bo'lgan, iqtisodiy tafakkuri va ongi yuksak, barkamol insonlar qilib tarbiyalash muammosiga har tomonlama amaliy va nazariy yordam berish har bir ziyoli fuqaroning burchidir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

V BOB. DIDAKTIK O'YINLI TEXNOLOGIYALAR

5.1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O‘qituvchi-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;

5. Mashg‘ulotlar davomidadidaktikprinsiplargaamal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyida «Kasb pedagogikasi» fanini o‘qitishda tashkil etish va o‘tkazish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinli mashg‘ulotlardan ayrimlarining tafsilotlari keltiriladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar orasida **konferensiya mashg‘ulotlari** ham muhim o‘rin tutadi.

Konferensiya mashg‘ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya mashg‘ulotini o‘tishdan avval mashg‘ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko‘zdan kechiriladi. Mashg‘ulotni o‘tkazishdan 1 hafta oldin mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg‘ulotda «Olimlar» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma’ruza tayyorlash talabalarning ixtiyorida bo‘ladi.

Ilmiy konferensiya mashg‘ulotini quyidagicha o‘tkazish tavsiya etiladi:

Didaktik o‘yinli dars va uning turlari



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

DIDAKTIK O‘YINLI DARSLAR YAKUNIDA BAJARILADIGAN PEDAGOGIK VAZIFALAR:



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Didaktik o‘yinli mash-g‘ulotlar	Mavzu mazmuni qanday bo‘lganda mazkur mashg‘u-lotdan foydalaniladi	Mashg‘ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabaning Faoliyati
Syujetli-rolli	Fanning turli sohala-rida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanish-larni amalga oshi-rish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo‘lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabat-larni, tabiat obyekt-lari va tabiiy hodisa-lar o‘rtasidagi alo-qalar va bog‘lanish-larni adabiy-badiiy tarzda yoritish	Muayyan rollar-ni bajarish orqali bilim, ko‘nikma-larni egallash
Ijodiy o‘yin	Avval o‘zlashtiril-gan bilim va ko‘nik-malarni rivojlan-tirish imkoniyati bo‘lganda	Muammoli vaziyat-larni avval o‘zlashti-rilgan bilim va ko‘nik-malarni ijodiy qo‘l-lash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Ishbilar monlar o‘yini; Auksion	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imko-niyati bo‘lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabat-lar asosida talabalar-ning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo‘llash	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Konfe-rensiya	Fanning turli sohala-riga oid bilimlar mujassamlashgan va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanish-larni amalga oshirish imkoniyati bo‘l-ganda	Qo‘shimcha va ma-halliy materiallar bi-lan tanishtirish, il-miy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo‘llash	«Olimlar» maqo-mini olib, muay-yan mavzularda izlanishlar olib borish
Matbuot konferen siyasi	Fanning turli sohala-rini qamrab olgan, talabalarning avval o‘zlashtirgan bilim-laridan foydalanish lozim bo‘lganda	Qo‘shimcha va ma-halliy materiallar bi-lan tanishtirish, dars-lik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash	«Olimlar» va «Muxbirlar» maqomini olib mavzuni o‘zlash-tirish

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

I. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi «Olimlar» bilan talabalarni tanishtiradi.

II. Ilmiy ma’ruzalarni tinglash. «Olimlar» mavzu yuzasidan tayyorlagan ma’ruzalarini ko‘rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.

III. Ma’ruzalar muhokamasi. Bunda «Olimlar» va guruhdagi boshqa talabalar o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o‘tkaziladi.

IV. Ilmiy konferensiya yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta’kidlab, darsni yakunlaydi.

V. Talabalarni baholash. Mashg‘ulotda faol ishtirok etgan talabalar rag‘batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Mashg‘ulotni umumiy yakunlash.

«Kasb ta’limi metodlari» mavzusida o‘tkaziladigan ilmiy konferensiya mashg‘uloti quyidagi loyiha bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin.

Mavzu: **«Kasb ta’limi metodlari».**

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Bu mashg‘ulotni o‘tishdan bir hafta oldin talabalarni 4 ta guruhga ajratamiz va ularga pedagogika fani sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan «Olimlar» maqomini beramiz.

III. Yangi mavzuni o‘rganish: Talabalar guruhi o‘z mutaxassisliklariga tegishli bo‘lgan quyidagi mavzulardan biri bo‘yicha ma’ruza tayyorlaydi.

1. Kasb ta’limi metodlari va ularning tavsifnomasi.
2. Reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.
3. Ishlab chiqarish jarayonida interfaol metodlar.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha «Olimlar» maqomini olgan talabalar o‘zlariga tegishli mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar asosida qo‘shimcha materiallardan foydalangan holatda ma’ruza qiladilar. Ma’ruzalar tugagach, talabalar o‘rtasida bahs va munozara o‘tkaziladi. Quyida didaktik o‘yin texnologiyasining konferensiya metodidan foydalanilgan mashg‘ulotning texnologik xaritasi keltirilgan.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Texnologik bosqichlar	O‘qituvchining faoliyati	Talabaning faoliyati
I bosqich. Tashkiliy qism, 5-daqiqa.	Talabalarni mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi.	Mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi, borishi va bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni anglaydi.
II bosqich. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish, 5-daqiqa.	Bajariladigan o‘quv topshiriqlari va ularning didaktik maqsadi bilan talabalarni tanishtiradi.	Bajariladigan o‘quv topshiriqlari yuzasidan ko‘rgazmalar va didaktik maqsadni anglaydi.
III bosqich Yangi mavzuni o‘rganish, 60-daqiqa.	Talabalardan «Olimlar» guruhlarini va ularning mustaqil ishlash jarayonini tashkil etadi. O‘quv materialini topshiriqlar yordamida mustaqil o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Har bir guruhning o‘quv materiali yuzasidan tayyorlagan ma’ruzalarini tinglaydi. Ma’ruza yakunida talabalar bilan savol-javob, o‘quv bahsi o‘tkazadi.	O‘quv faoliyatini tashkil etadilar, «Olimlar» guruhiga berilgan topshiriqlarni bajaradilar. 1-guruh 2-guruh 3-guruh 4-guruh Har bir guruh o‘quv materiali yuzasidan ma’ruzalar tayyorlaydi. Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javob, bahs-munozarada faol ishtirok etadi.
IV bosqich. Natijani tahlil qilish va yakunlash, 10-daqiqa.	Talabalar faoliyatini tahlil qiladi, ularga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarni beradi.	O‘quv faoliyati va erishilgan natijani tahlil qiladi va baholaydi. Mustaqil ish va ijodiy topshiriqlarni oladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

V. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

VI. Uyga vazifa berish.

Talabalarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda **ijodiy o'yinlar** muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni talabalar o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlar ijodiy o'yinlar deb ataladi.

Ijodiy o'yinli mashg'ulotlardan «Kasb pedagogikasi» fanini o'qitishda va «Kasb ta'limi muassasasini boshqarish» mavzusini o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda talabalar teng sonli guruhlarga ajratilib, ularga shartli ravishda «Boshqarma boshlig'i», «Kasb-hunar kolleji rahbari», «Akademik litsey direktori» deb nom beriladi. Bu erda mutaxassislarning har qaysi guruhi ijodiy izlanib, kelgusidagi ishlarini rejalashtirishga o'rganadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o'z javoblarini bildiradilar.

Ijodiy o'yin mashg'ulotlarida guruhdagi barcha talabalar hamkorlikda ishlaydilar, avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydilar. Bu esa ularda o'z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg'otadi.

Quyida **«Kasb ta'limi muassasasini boshqarish»** mavzusidagi ijodiy o'yinli mashg'ulotning qisqa stsenariysi keltiriladi.

Mavzu: **«Kasb ta'limi muassasasini boshqarish».**

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

Yangi mavzuni o'rganishdan oldin guruhdagi talabalarni teng sonli 3 ta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh talabalari «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi boshlig'i» maqomini olib, kelgusida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi» faoliyatini rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bo'yicha ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

№	Toshkent shahrining geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda O‘MKHT muassasalarini tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	Ta’lim muassasasini boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar	Izoh
1.			
2.			
3.			
4.			

Ikkinchi guruh talabalari «Iqtisodiyot kasb-hunar kollejining rahbari» maqomiga ega bo‘lib, kollej faoliyatini kelgusida rivojlantirish maqsadida rejaga kiritilgan ishlarni umumlashtirib, ma’ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to‘ldiradilar.

№	Iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha kasb-hunar kollejining istiqbol ish rejasini ishlab chiqish	Ta’lim muassasasini boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar	Izoh
1.			
2.			

Uchinchi guruh talabalari «Iqtisodiyot akademik litsey direktori» maqomiga ega bo‘lib, akademik litsey faoliyatini kelgusida rejalashtirishni o‘rganadilar hamda ma’ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to‘ldiradilar.

№	Iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha akademik litseyning istiqbol ish rejasini ishlab chiqish	Ta’lim muassasasini boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar	Izoh
1.			
2.			

«Rahbarlar» kelgusida bajarishi mumkin bo‘lgan ishlarni rejalashtirganlaridan so‘ng, ko‘rgazmali qurollar asosida ma’ruzalarini bayon qiladilar. Guruhlar o‘rtasida savol-javob, bahs va munozara o‘tkaziladi.

IV. Talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va reyting tizimi asosida baholash

V. Mashg‘ulotni yakunlash.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

VI. Uyga vazifa berish.

«Ta'lim muassasasini boshqarish» mavzusidagi didaktik o'yin texnologiyasining ijodiy o'yin metodidan foydalanilgan mashg'ulotning texnologik xaritasi

Texnologik bosqichlar	O'qituvchining faoliyati	Talabaning faoliyati
I bosqich. Tashkiliy qism, 5-daqiqa.	Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi.	Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi va bajariladigan topshiriqlarni anglaydi.
II bosqich. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish, 5-daqiqa.	O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi bilan talabalarni tanishtiradi.	O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi.
III bosqich. Yangi mavzuni o'rganish, 60-daqiqa.	Talabalardan «rahbarlar» guruhlarini va ularning mustaqil ishlash jarayonini tashkil etadi. O'quv dasturidan o'rin olgan topshiriqlarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlaydi. «Rahbarlar» uchrashuvi guruhini tashkil etadi. Har bir o'quv materiali yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini tinglaydi.	O'quv faoliyatini tashkil etadi. «Rahbarlar» guruhi berilgan topshiriqlarni bajaradilar. 1-guruh «O'MKHTB boshlig'i» 2-guruh «Kasb-hunar kolleji direktori» 3-guruh «Akademik litsey direktori» «Rahbarlar» uchrashuvi guruhida ishtirok etadi. Har bir guruh o'quv materiali yuzasidan ma'ruzalar tayyorlaydi.
IV bosqich. Erishilgan natijani tahlil qilish va yakunlash, 0-daqiqa.	Talabalar faoliyatini tahlil qiladi, ularga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarni beradi.	O'z o'quv faoliyati va erishilgan natijasini tahlil qiladi va baholaydi. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini oladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Shunday qilib, didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchi-talabalar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rganadilar.

5.2. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalari

O'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usul va metodlari farq qilinadi. Ular mohiyatiga ko'ra faol va osoyishta turlarga ajratiladi. Ularning har biri o'z tarixi va shakllanish mexanizmiga ega. Bularning orasida uzoq yillar davomida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan va yuksak pedagogik samara beradiganlari juda ko'p. Insoniyat o'zini va atrof-muhitni anglab yetishi jarayonida ta'lim va tarbiya uchun asqotadigan xilma-xil texnologiyalarni yaratgan. Ularning aniq son va sifatini hech kim aniq belgilay olmaydi. Bunga hozirgi davrda mavjud bo'lgan turli davlatlarning ta'lim tizimlarida amal qilinayotgan turfa pedagogik texnologiyalar misol bo'la oladi. Gap ularning qaysi biridan kim qanday samara bilan foydalanishidadir. Katta samara bermaydigan yoki o'zini oqlay olmagan texnologiyalar kun tartibidan tushib qolaveradi va ular insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy "sandig'iga" jamlanib borilaveradi.

Har qanday o'quv kursi, ma'lumki, quyidagi komponentlarni o'zida jamlaydi:

- kursning davomliligi (muddati);
- o'qitishning maqsad va vazifalari;
- o'qitishning mazmuni;
- maqsadli guruhning tashkil etilishi;
- o'qitish jarayoni;
- o'qitish metodikasi;
- o'quv quvvati;
- baholash.

O'qitishning mazmuni o'quv birligining davomiyligi va o'zlashtirish darajasi orasidagi uzviy bog'lanishning grafigi tarzida ifodalanishi mumkin. Bunda uch toifadagi o'zlashtirish darajalari farq qili-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

nadi va ular majburiy (past), zaruriy (o'rtacha) va maqsadga muvofiq (eng yuqori) ko'rsatkichlarga ega bo'ladilar.

Har qanday pedagogik texnologiya qo'llanilishida didaktikaning asosiy vayordamchi tamoyillari (prinsiplari), albatta, amal qiladi:

- ma'lumdan noma'lumga;
- oddiydan qiyinga yoki murakkabga;
- aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);
- kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;
- umumiy yoki odatdagidan xususiyga yoki noodatdagiga va boshqalar.

Ayrim faol pedagogik texnologiyalar tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilganda ularning qiyosiy bahosi oydinlashadi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'qitishning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, pedagogik faoliyatda yetakchi o'rinni egallaydi. U o'qituvchi mehnatining oliy shakli darajasida e'tirof etiladi. Uni bir tomonlama aloqaning ko'rinishi, deb ham ataladi. Bunda o'qituvchining faolligi va tinglovchilarning nofaolligi ko'zda tutiladi. Biroq munozara shaklida bayon etiladigan ma'ruza eng faol pedagogik texnologiya elementidir. Munozarali ma'ruzada tinglovchilarning faolligi juda yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

Iqtisodiyot o'quv predmetlarini, odatda, ko'proq ma'ruzalar tarzida bayon etiladi. Chunki bunday kurslar ko'proq nazariy yoki umumlashtiruvchi xarakterga tabiatan ega bo'ladilar. Pedagogik terminologiya nuqtai nazaridan ularni bilish, aqliy umumlashtirish mashg'ulotlari deb hisoblash mumkin. Bunda metodikaning barcha boshqa metodlari kamroq samarali bo'lib qoladilar. Ma'ruzani tashkil etish paytida o'qituvchi o'quv predmetining eng muhim jihatlarini alohida ta'kidlash evaziga muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Ma'ruzada tinglovchilar boshqa samarali metodlar bilan o'qitilgandagi kabi tayyorgarlik (bilim) oladilar. Faol metodika yordamida o'qilgan ma'ruzalar davomida tinglovchilarni faollashtirish evaziga o'qitish jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylantirish mumkin. Bunda o'quv materiali tez va soz o'zlashtiriladi.

Ma'ruzani faol tadbirga aylantirish uchun uning mavzusi va tuzilmasi orasidagi bog'lanishning yechimini topish zarur bo'ladi. Ma'ruzalar o'quv predmetining bosh masalasi ko'nikma hosil qilish emas, balki bilim o'zlashtirish bo'lganidagina samara beradi. O'qitishning barcha mavjud masalalarini uch guruhga ajratish mumkin:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- bilimlar;
- ko'nikmalar;
- ko'rsatmalar.

O'qitish masalalaridan kelib chiqqan holda uning metodi tanlanadi. Agar ta'lim jarayonida tavsiflash, yodga tushirish, sanab o'tish, kategoriyalar bo'yicha taqsimlash, ta'riflar keltirish, baholash va tushuntirish kabi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi lozim bo'lsa, albatta, ma'ruza shaklidagi o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Hayot bilan, kundalik turmush bilan, muhim voqealar bilan aloqadorlikda bayon etilgan ma'ruza materiali oson o'zlashtiriladi. Suzishni yoki avtomobil boshqarishni ma'ruza mashg'uloti yordamida o'rgatib bo'lmasligi ravshan. Shu boisdan, uquv va ko'nikma hamda malaka egallanishi birinchi o'rinda turadigan faoliyatda ma'ruzaning tutgan o'rni juda kichikdir. Nazariy bilimlar va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar ma'ruza yordamida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza davomida o'qituvchining xatti-harakatlari, imo-ishoralari, nutq komponentlari muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi auditoriya bilan yaxshi aloqa o'rnatishi uchun uning dinamik siljib turishi tavsiya etiladi. Ovoz ohangining o'zgarishi va o'rinli pauzalar ham yordamchi omillarga aylanadi. Bayon mo''tadilligining o'zgarishi, o'rinli kalimalarning galma-gallanishi, qiziqarli ma'lumotlarning bezak tarzida ishlatilishi katta ahamiyatga ega. Ma'ruzaning to'laqonliligi ko'rgazmali vositalardan qay darajada foydalanilishiga ham bog'liqdir. Rasmlar, jadvallar, plakatlar, diagrammalar, moddiy obyektlar va AKTning turli elementlaridan o'rinli foydalanish ma'ruzaning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi quvvatini oshiradi.

Har qanday ma'ruza tarkiban uch qismdan iborat bo'ladi:

- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa.

Ma'ruza turlari pedagogning mahoratiga bog'liq ravishda turfa ko'rinishlar va mazmunga ega bo'ladi. Ma'ruzaning pedagogik samarasi o'qitishning barcha tashkiliy shakllariga qiyoslanganda eng yuqori bo'ladi.

Munozara. Ko'pchilik o'quv predmetlari va ularning mavzulari ta'lim standaritlari, o'qitish dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muas-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

sasasining o‘ziga xosligiga bog‘liq ravishda hamda tinglovchilar (bilim oluvchilar) kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o‘quv mashg‘ulotlarini taqozo etadi. Birinchilan, tinglovchilar faolligi ta’minlanadi. Ikkinchidan, shubhali vaziyatlarga o‘rin qoldirilmaydi. Uchinchidan, bilim oluvchilarning istak-xohishlari to‘la qondiriladi. Eng muhimi, bunday sharoitda o‘quv materiali to‘la-to‘kis o‘zlashtiriladi. Asoslar, xulosalar, hukmlar va tasavvurlar mukammal ko‘rinish va mazmunda bo‘ladi. Ko‘rsatma va ta’kidlarning ishonchliligi yuqori darajada bo‘ladi.

Munozara ikki turli bo‘ladi:

- boshqariladigan;
- erkin munozara.

Boshqariladigan munozarada o‘qituvchining ishtiroki sezilarli darajada bo‘ladi, lekin bu ishtirok uning o‘quv jarayonidagi hakamlik mavqeidan oshib ketmasligi lozim. Erkin munozara esa bilim beruvchi va oluvchilarning demokratik tarzdagi ishtiroki bilan o‘tkaziladi. Bu har ikki turdagi munozaralarda o‘quv haqiqati birinchi o‘rinda turadi. Ilmiy bilimlar jonli mushohada, abstrakt tafakkur orqali nisbiy va absolut haqiqat yo‘li bilan qo‘lga kiritilishini hisobga olinsa, bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi tushuncha, kategoriya, faraz, xulosa, qoida, nazariya, qonun va qonuniyatlar munozara davomida mazmunan buzilmasligi muhimdir.

Munozaraning natijasini o‘qituvchi oldindan loyihalashi lozim. Bunda oraliq jarayonlar ikkinchi pozitsiyada turadi. Yakuniy xulosalar ilmiy bilish nazariyasiga zid kelmasligi o‘qituvchining kasbiy salohiyati bilan ta’minlanadi.

Erkin munozarani anarxiyaga aylantirmaslik-eng muhim pedagogik vazifadir. Uning o‘quv qimmatini boshqariladigan munozaradan kamroq baholab bo‘lmaydi.

Munozara mashg‘ulotlari uchun quyidagi shartlarning bajarilishi muhimdir:

- reglamentga rioya qilish;
- boshlashdan oldin chuqur fikriy tahlil qilish;
- ishtirokchilarning maksimal miqdordagi sonini qo‘lga kiritish;
- o‘qituvchining o‘quvchilariga nisbatan hukmron bo‘lmasligi.

Passiv o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash-aksariyat o‘qituvchilar uchun amalda bajarib bo‘lmaydigan jarayondir. Ularni jonlantirish uchun:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- savollar beriladi;
- har bir shaxsning xususiy fikri so‘raladi;
- to‘g‘ri javoblar rag‘batlantiriladi;
- noto‘g‘ri javoblar va xatolar to‘g‘rilanadi va to‘ldiriladi.

Munozaraning muvaffaqiyati o‘quvchilarning qiziqishi, bilimi, ahilligi, hur fikrliligi va jamoadagi sog‘lom pedagogik-psixologik muhitga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Guruhiy ish. Bu so‘nggi yillarda Evropa mamlakatlarida keng ommaviylik tusini olgan o‘qitish metodidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma’lumot yoki kasb guruhiy ishsiz egallanmaydi. Kam sonli (4-6 nafar) o‘quvchilarning qandaydir muhim o‘quv tadbirida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg‘ulotning samarasini belgilaydi. Bajarilish darajasi va uning sifatini o‘qituvchi nazorat qiladi. Guruhlarga berilgan vazifalar bosqichma-bosqich navbatlanishi ya’ni galma-gallanishi lozim. Guruhlar bir jinsli (o‘g‘il bolalar, erkaklar yoki qiz bolalar, ayollar) va ikki jinsli (har ikki jins vakillaridan iborat) bo‘lishi mumkin. Ta’lim yo‘nalishi va pedagogik maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar xususiy holat uchun shakllantiriladi.

Guruhiy ish kengroq joy va siljitiladigan o‘quv mebellarini talab qiladi. O‘qituvchining nazorati barcha guruh uchun baravar bo‘lishi lozimligi ham qiyinchilik tug‘diradi.

Muammoli topshiriqlar. Nazariya va amaliyotning birligini ta’minlash-eng murakkab pedagogik vazifadir. Aniq vaziyat va qo‘yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida yaxshi natijaga erishish mumkin. Faktlar va ma’ruza materiallarini o‘zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar yechimida muammoli vaziyat yaratilishi qo‘l keladi. Bunda ham kam sonli ishtirokchilardan iborat guruhlar shakllantiriladi. O‘quv materiali guruhlarga alohida-alohida bo‘lib beriladi. Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi. Echimlar va fikrlar xilma-xilligi yuzaga kelsa o‘qituvchi bosh hakam tarzida so‘nggi va hal qiluvchi so‘zni aytadi. O‘quv materialining o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi bunda o‘ta muhim omildir.

Muammoli topshiriqlar o‘qituvchidan katta va qiyin mehnatni talab qiladi. Shu boisdan, ularning sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan variantlarini topish va qo‘llash murakkab jarayondir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Loyihaviy topshiriqlar. Biror o'quv materialini atroflicha va chuqur o'rganish uchun bu yondashuv katta samara beradi. O'rganish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va yakuniy qarorga kelish uchun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Bu tadbirni o'tkazish uchun bazaviy va boshlang'ich tayanch ma'lumotlar talab qilinadi. O'quv predmetini o'zlashtirishning bosqichlarida davriy ravishda tatbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari etaklaydi.

Loyihalar mavzuning tavsifini beruvchi kirish qismi, mavzuning muxtasar asosnomasi, faktlar va argumentlarga asoslangan ma'lumotlar yig'indisi hamda xulosa yoki yechimdan iborat bo'ladi.

Rolli o'yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o'yinlari). Bunday o'yinlar muammoli topshiriqlarning bir ko'rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg'ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni namoyish qilishga keng imkon beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo'lmasligini ta'minlash ham talab qilinadi. O'quv mashg'uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko'proq yaqinlashadi.

Yorib o'tishlar texnologiyasi va V.Erxard maktabi. Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo'g'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarni yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi.

Bu kurslar tinglovchining fikrlashi vahulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari-inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'lar sarflashni talab qilmaydi, erishilgan samara so'nib qolmaydi, ya'ni olingan samara yangi shakl va mazmunda hamda sharoitlarda muntazam kuchayib borishi bilan takror va takror samara olinishini ta'minlaydi. Bu texnologiya alohida yirik yangiliklar yaratishga, hosil bo'lgan favqulodda holatlardan noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga ham qaratilganligi bilan farq-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

lanadi. Bunday yo'nalishdagi 50 dan ortiq kurslar va seminarlar AQShning yuzga yaqin shaharlarida va dunyoning boshqa mamlakatlarining yuzdan ziyod shaharlarida tashkil etilgan va ular muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu kurslarning tinglovchilari soni 60 ming nafar atrofidadir.

Hamkorlik pedagogikasi. Mumtoz pedagogik qarashlar nuqtai nazaridan o'qituvchi-pedagogik jarayonning subyekti, o'quvchi esa obyekti, deb hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti tarzida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni tashkil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamfikr, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard va hamboshqaruvchi tarzida faoliyat yuritadilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan, rahbarlar, ota-onalar va keng jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov, Donetsk shahri,Ukraina). Mazkur metodika anchagina ommalashgan pedagogik yondashuv bo'lib, ko'rgazmali sxemalardan iborat tayanch signallar konspektlaridan tarkib topgan. Ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot birliklari aks ettiriladi, ularning orasidagi turli aloqadorliklar ko'rsatiladi hamda abstrakt (mavhum) materialni oydinlashtiruvchi manbalar, misollar va tajribalarni eslatish uchun belgilar, simvollar, komponentlar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turlicha bo'lgan shartli belgilardan foydalaniladi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat bo'lgan tayanch signallar konspektlaridan foydalanish asnosida turli va o'ziga xos usullar va metodik vositalar ham ishlatiladi.

«Vakolatli ta'lim» texnologiyasi. Ushbu texnologiya 1995-yilda AQShda "Ayollar yetakchiligi" deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, ta'limning xalqaro texnologiyasi sifatida 1997-yildan boshlab Ukrainada shakllandi va keyinchalik Ozarbajon, Gruziya,

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Litva, Moldova, Tojikiston hamda O'zbekistonga tarqaldi. 2002-yilda Afg'oniston, Birma va Indoneziyada tegishli treninglar tashkil etildi. Hozirgi paytda dunyoning turli mamlakatlarida bu texnologiyaning shakllanish va joriy ettirilish jarayonlari davom etmoqda.

Ta'limning ushbu texnologiyasini ayni kunlarda mutaxassislar quyidagicha t'riflaydilar: "Vakolatli ta'lim-genderlik adolati va zo'ravonliklarsiz munosabatlar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni bo'lib, u bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini beradi".

Vakolatlash pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondashuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi.

Vakolatlash ta'limini joriy etishning quyidagi tartibi eng maqbul hisoblanadi:

- tasdiqlangan va rasmiylashtirilgan o'quv reja (ayrim o'quv fani, integrativ kurslar yoki ularning tarkibiy mavzulari);
- rasmiylashtirilgan o'quv reja (ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan va rasmiy reja bilan bog'langan darsdan tashqari ishlarularning sinfdan va maktabdan tashqari turlari farq qilinadi);
- norasmiy o'quv reja (kutilmagan yoki favqulodda mashg'ulotlar tashkil qilish va ularni ta'lim amaliyotiga alohida reja yordamida joriy etish).

"Vakolatli ta'lim" texnologiyasiga muvofiq mashg'ulotlar alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi-trenerlar tomonidan tashkil etiladigan va o'tkaziladigan treninglar tarzida amalga oshiriladi. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va ma'lum yo'nalishda ta'lim berish (rahbarlik qilish) hamda mashqlar bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mutasaddi shaxsni trener deyiladi. ("Trening" haqida ilovaga qaralsin).

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

VI BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA: SIFAT VA SAMARADORLIK

6.1. Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari

Pedagog va talabaning dasturli faoliyati ta'lim jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovard natijada – ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda pedagog «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lim maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallarini mazmunan saralashda talabalarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi lozim. Shuningdek, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman ta'lim jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarining ta'lim maqsadiga mos kelishini chamalamasdan, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat uzluksiz qayta bog'lanishni ta'minlaydi va, odatda, baholashsiz o'tkaziladi, shuning uchun u bilimlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Pedagogik texnologiyada qayta bog'lanish nafaqat o'qitish jarayonini tuzatib borish uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun ham xizmat qilishadi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi baholanadi.

Reyting nazorati og'zaki, yozma va test usulida bo'lishi mumkin:

1. Og'zaki va yozma nazorat.

Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining o'quvchi-talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar be-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

rish imkoniyatlari kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini, qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga ikmon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to'g'risidagi barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda og'zaki nazoratda talabalar bilimlarini baholashda ma'lum darajada pedagog shaxsiyatining aks etishi namoyon bo'ladi. Har bir pedagogda talabalarning o'zlashtirish darajalarini baholashda doimo xolis va shaxsiy munosabat bir vaqtning o'zida ro'yobga chiqadi. Yuqorida tilga olganimizdek, xorijda olib borilgan ko'p sonli tadqiqotlar ko'rsatadiki, «qisqa vaqt oralig'ida bir-biridan mustaqil ravishda bitta o'quvchi-talabani bitta bilimlar sohasida bitta o'quv maqsadlarida tekshirish ikkita imtihon oluvchi bahosining mos kelishi faqat 40-60% hollarda mos kelgan». Bunda bitta imtihon topshiruvchi bir imtihon oluvchida eng yuqori bahoni, boshqasida esa eng past bahoni olgan. Shuningdek, turli pedagoglar tomonidan bitta yozma nazorat ishiga qo'yilgan baholarning ancha farq qilishi ham tasdiqlangan.

Shunday qilib, talabaning yozma va og'zaki nazoratda olgan bahosi ba'zan xolisona bo'lmaydi. Talabaning bahosi, odatda, nafaqat uning bilimlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Bilimlarni baholash amaliyotida pedagoglar guruhning o'rtacha darajasini mo'ljalga oladi. Shuning uchun kuchsiz guruhlarda baholar, odatda, ko'tarilgan, kuchli guruhlarda pasaytirilgan bo'lib chiqadi.

Yozma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o'rgatish imkonini beradi, shuningdek, o'quvchi-talabaga o'z fikrlarini qog'ozda bayon qilish imkonini beradi. Ikki-uch mustaqil ekspertlarni ishlarini tekshirish uchun jalb qilish bilan o'tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo'lgan taqdirda obyektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilishning an'anaviy usuli ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- imtihonda o'quvchi-talaba berilgan biletning 3-4 savoliga javob beradi, baho esa butun o'quv fanini bilish uchun qo'yiladi;
- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo'lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- og'zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning obyektivligini, aniqligini va ishonchliligini ta'minlamaydi;

- og'zaki so'rov ko'p o'quv vaqti sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko'p mehnat sarflashlari bilan bog'liq.

So'nggi yillarda pedagogika fanida bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilish obyektivligini, ishonchliligini yetarlicha oshirish usullari ishlab chiqilyapti. Ammo shuni hisobga olganda ham bilimlarni og'zaki va yozma tekshirish yetarlicha texnologik emasligicha qoladi, ularni kompyuterlar yordamida avtomatlashtirish qiyin. Bu nisbatda bilimlarni test usulida nazorat qilish ulardan bir necha marta ustun turadi.

2. Test (inglizcha - sinash) – bu biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir. Testning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. O'z etaloniga ega bo'lmagan har qanday test, odatdagidek, bajarilish sifati haqida subyektiv mulohaza yuritish evaziga xulosa chiqaruvchi nazorat topshirig'iga aylanib qoladi.

Test nazoratlari va uning afzalliklari:

a) yetarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o'tkazayotgan shaxsga bog'liq bo'lmagan xolis pedagogik o'lchov quroli hisoblanadi;

b) test o'quv mavzularining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin, o'qitish natijalarini test usulida o'lchash barcha tekshiriluvchilarga baravar qo'llanadigan oldindan ishlab chiqilgan mezon asosida aniq va ishonchli baho beradi;

v) test nazorati texnologiyalashuvchan, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv mavzulari o'zlashtirilishining to'la nazoratini kam kuch va vositalar sarflab o'tkazish imkonini beradi.

g) test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o'tkazishning asosiy afzalliklaridan biridir.

To'g'ri tashkil qilinganda pedagogik test talabalar bilimlarini xolis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo'yayotgan odamga bog'liq bo'lmaydi. U barcha tekshiriluvchilarga bir xil qo'llanadigan qilib tuzilgan mezon bo'yicha to'g'ri yechilgan test topshiriqlari foizi asosida aniqlanadi. Shuning uchun pedagogik test to'la asos

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
bilan o‘qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o‘lchov quroli deb ataladi. Ammo bunday baholash faqat ilmiy talablarga rioya qilingan holda tuzilgan, tekshiriluvchan va me’yoriga yetkazilgan sifatli test tufayligina amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik testlardan foydalanilganda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitish sifatini so‘zsiz oshirish mumkin bo‘lgan yetarli ijobiy imkoniyat mavjud. Test o‘tkazish o‘qitishni olib borish va uning natijalariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sifatli testlar bilish faolligini oshirishga qodir, ular talabalar faoliyatida yuqori mo‘ljallarni belgilaydi, aksincha, yomon tuzilgan testlar ta’lim jarayonida aks samara berishi mumkin.

Bilimlarni o‘zlashtirish nazoratining yangi, ilg‘or vositalarini kiritadigan reyting tizimidan samarali foydalanishni o‘rganish ham juda muhimdir. Talabalar bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi deganda har bir talabani o‘qitishning borishi va natijalarini baholashga bir xil shaklda yondashuvning o‘zaro bog‘liq ko‘rsatmalari va qoidalar majmuasi tushuniladi.

Oliy o‘quv yurtlarida reyting nazorati tarkibida quyidagilar ifodalanadi:

- nazorat turlari (joriy, oraliq va yakuniy);
- nazorat usullari (og‘zaki, yozma, pedagogik test o‘tkazish, ma’lum amallarni bajarish);
- davriylik va o‘qitish davri mobaynida baholashlarning eng kam soni;
- baholash mezoni;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha yakuniy bahoga talabaning ayrim baholarini birlashtirish qoidalari;
- natijalarni rasmiylashtirish qoidasi va boshqa ko‘rsatmalar;

Oliy o‘quv yurtlarida reyting tizimini kiritishning maqsad va vazifalari, odatda, quyidagi natijalarga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat:

- talabalar tomonidan davlat ta’lim standartlari talablarining o‘zlashtirilishi;
- bilimlarni baholashning xolisligi va uzluksizligini ta’minlash;
- talabalardagi bilish faoliyatining faollashuvi, ularda o‘qishda yutuqlarga erishishga intilishning shakllanishi, ta’limga musobaqa hissini kiritish, mustaqil ishga muntazam jalb qilish;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- o'qish jarayonidagi yutuqlar bo'yicha talabalar o'rnini aniqlash bilan o'quv faoliyati natijalarini muvofiqlashtirish, ularni o'qishdagi yutuqlari uchun rag'batlantirish;

- o'qitish natijalarining taqqoslanishini ta'minlash.

Talabalar bilimlarini baholashning ilg'or reyting tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- uzluksiz ta'lim bosqichining o'ziga xosligini inobatga olishi;

- o'quv fanining alohida qismlarini emas, balki yalpi nazoratini amalga oshirishi;

- talabalarni o'qishdagi yutuqlari bo'yicha yaxshiroq tabaqalash maqsadida baholarning ko'p balli mezoni qo'llanishi;

- pedagog tomonidan qo'yiladigan birlamchi baho murakkab matematik hisoblashlar bilan bog'liq bo'lmasligi (o'quv vaqtining sarflanishini talab etadigan). U pedagog tomonidan o'quv muassasasida oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida qo'yiladi;

- har bir o'quv yurtining uslubiy idorasi ma'muriyat ko'rsatmalari asosida yoki o'zining qaroriga binoan natijalari yakuniy reyting baholashga kiradigan, o'qitish davridagi barcha predmetlar bo'yicha og'zaki, yozma va test nazoratlarining eng zarur majburiy sonini o'rnatadi;

- oliy o'quv yurtining reyting tizimlari ma'lum bosqich chegarasida o'qitish natijalarining taqqoslanish imkonini ta'minlashi va boshqalar.

Ma'lumki, bir xil sharoitda tegishli metodikalar va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib o'qitganda o'quvchi-talabalar turli darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lishadi. Buning asosiy sababi ular qobiliyatlarining turlichaligidadir.

B. Blum o'tkazgan tadqiqotlarida yuqori qobiliyatlilar yuqori natijalarni, o'rtacha darajadagilar o'rtacha ko'rsatkichlarni berishligi aniqlandi. Bunda vaqt sarfi ham turlicha ekanligini ko'rish mumkin: qobiliyatlilar o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» lar uchun ulardan ko'proq vaqt, «bo'sh» lar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'lar ekan. Mavjud ta'lim tizimidagi hamma bolalar uchun bir xil teng vaqt, teng sharoitdagi ta'lim jarayoni biz xohlaymizmi-yo'qmi «kuchlilar», «o'rtachalar» va «bo'shlar» ni vujudga keltiraveradi. An'anaviy ta'limda ushbu nomuvofiqlikdan chiqishning ikki yo'li mavjud; birinchisi – ikkinchi yil qoldirib o'zlashtirish darajasiga erishtirish; ikkinchi yo'l – guruh talabalari-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ni gomogen guruhlarga ajratish yo'li bilan ta'limda yuqori samaradorlikka erishish.

B. Blum an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, ta'lim sharoitining eng optimal sharoitini tanlash, birinchi navbatda, o'qish sur'atini oshirish orqali to'la o'zlashtirishga erishish mumkinligi g'oyasini ilgari suradi. Bunday sharoitda «kuchli» va «bo'sh»lar o'rtasidagi o'zlashtirish farqi keskin kamayadi. To'la o'zlashtirish modelida mavjud o'quvchi-talabalar guruhining hammasi yuqori natijalarga erishishi uchun o'quv maqsadlaridan kelib chiqadigan natijalar tegishlicha yuqori darajalarda ifodalanishi kerak.

Pedagogik texnologiyalar ta'limda reproduktiv o'zgarish darajasini egallashni kafolatlaydi. Talaba produktiv (mahsuldor) va ijodiy o'zlashtirish darajalarini egallashda an'anaviy metodikadagi o'qitishning muammoli usul va metodlaridan unumli foydalanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishda an'anaviy o'qitish metodikasidagi boy tajriba va ilg'or pedagogik jarayonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagog kurs (bo'lim, bob)ni loyihalashtirishga kirishar ekan, eng avvalo, mezonni to'g'ri aniqlashi, ushbu modelda ishlashning asosiy holatini hisoblashni bilishi zarur. Shundan keyin kurs maqsadlarini toifalashtirish, maqsadlaridan aniqlashtirilgan natijalar olinishini ketma-ketlikda ishlab chiqish va ularga mos ravishda diagnostik testlar tayyorlanishi, o'qituvchi (pedagog) o'rganiladigan materialni qismlarga bo'lib o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini aniqlashi, ularni tahlil qilishi va o'rganish bo'yicha qayta ishlab chiqishi lozim. O'quv birliklari aniqlangach, ularni o'rganishda qanday natijalarga erishishni birma-bir aniqlash, erishilgan natijalarni tekshirish uchun diagnostik xarakterdagi test nazoratlarini o'tkazishi va bu nazorat natijalari baholanmasligi kerak. Bunda faqatgina «o'rgangan», «o'rganmagan» mezonlarida baholanadi va zarur tuzatishlar kiritib boriladi.

Navbatdagi bosqichda har bir test javoblaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha o'quvchi-talabalar uchun yangi bo'lgan o'quv metodikasiga oid qayta o'rganishni tashkil etadi. Ushbu metodikani amalga oshirish quyidagi ketma-ketlikda kechadi.

1. Kirish qismi: o'quvchi-talabalarni to'la o'zlashtirish metodikasida ta'limga tayyorlash va ularda rag'batni vujudga keltirish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

2. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan holda har bir o‘quv birligi bo‘yicha o‘qitish.

3. Har bir o‘quvchi-talabada o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirilganligini baholab borish.

4. Har bir o‘quvchi-talabaga qo‘yilgan bahoni izohlash.

Loyihalashtirilgan o‘quv jarayonining birligi ikki kichik loyihaga ajratiladi. Birinchi qismida an’anaviy ta’limdagidek tushuntirish, ko‘rsatish, izohlash, asoslash, tushunchalarni shakllantirish, ularni bilish, amalga tatbiq qilish kabilar aniq ifodalangan maqsadlar asosida olib boriladi.

Loyihaning ikkinchi qismida har bir o‘rganilgan o‘quv birligi bo‘yicha joriy test sinovlari olinadi. Test sinovlari diagnostik ahamiyat kasb etib, teskari aloqa vazifasini o‘taydi, uni o‘tkazishdan maqsad tuzatishlar kiritish, to‘ldirishlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lib, buning uchun qo‘shimcha o‘quv tadbirlari belgilanadi.

Test natijalariga ko‘ra o‘quvchi-talabalar ikki guruhga ajratiladi: to‘la o‘zlashtirishga erishganlar va to‘la o‘zlashtirishga erishmaganlar guruhi.

O‘quv birliklarini to‘la o‘zlashtirmagan o‘quvchi-talabalar o‘qituvchi (pedagog) rahbarligida ushbu o‘quv birliklarini o‘rganishni davom ettiradi. Ular bilan qo‘shimcha tuzatish ishlari tashkil qilinadi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanadi hamda kamchiliklarni tuzatish uchun mashg‘ulotlar olib boriladi. Bu mashg‘ulotlar takroriy bo‘lgani uchun uni bayon qilishda yangi usullardan foydalanish va ko‘rgazmali qurollar va o‘qitishning texnika vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish orqali ushbu guruh to‘la o‘zlashtirishga olib chiqiladi. To‘la o‘zlashtirishga erishganlar uchun qo‘shimcha topshiriqlar beriladi, ular navbatdagi o‘quv birligiga o‘tkazilmaydi. Navbatdagi o‘quv birligini o‘rganishga ikkala guruh ham birga kiradi.

O‘z navbatida, o‘quvchi-talabalar o‘quv elementini qaysi darajada o‘zlashtirishlari yoki qanday mahorat bilan bajarishlari kerak? Bu savolga psixologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Har qanday faoliyat inson tomonidan oldin o‘zlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga qarab faoliyatning ikki ko‘rinishini farqlash mumkin: nomahsul va mahsuldor. Ularning bir-biridan farqi shundaki, nomahsul faoliyatida inson o‘ziga ma’lum bo‘lgan harakat qoidalaridan

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

foydalanadi va bu jarayonda har qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi, chunki u faqat oldin o'zlashtirgan usullarni qaytadan ishlab chiqadi.

Talabalar mahsuldor faoliyatni bajarishda doimo yangilikka duch keladi yoki yangi obyektlar, hodisa va jarayonlar, faoliyat metodlari vujudga keladi. Har ikki faoliyat turi ham mustaqil ravishda yoki tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir yordamida bajariladi. Nomahsul faoliyat yo'riqnoma, lug'at orqali yoki harakatlarni bajarish qoidalari to'g'risida boshqa bir axborot manbalari asosida ko'rsatmasiz bajarilsa, mahsuldor faoliyat ma'lum metodik ko'rsatmalar ostida bajarilishi mumkin.

Professor N.Saydahmedov yuqorida bayon qilingan fikrlarni hisobga olgan holda o'quvchi-talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirish faoliyatini quyidagi 4 daraja asosida ko'rsatgan:

I daraja: tashqi ko'rsatma ta'siridagi harakat. Bu faoliyat **tanishuv** darajasi deb nomlangan. Tanishuv darajasida o'quvchi-talabaning bilim olish, eslash qobiliyati oldindan o'zlashtirilgan materiallar matni bilan qayta tanishish asosida amalga oshishini tavsiflaydi O'quvchi-talabada o'ziga tanish materiallarni faqat ma'lum vaziyatlarda, ya'ni bu materiallar oldida turgan taqdirda eslash imkoni bo'ladi. O'zlashtirishning birinchi darajasi obyektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish bilan chegaralanadi va ularni o'quvchi-talabaning bilib olishi noma'lum obyektlar qatorida kechadi.

II daraja: xotira asosidagi harakat. Bu faoliyatning **algoritm** darajasi deb nomlanadi. Algoritm darajasida o'quvchi-talabaning qobiliyati materiallarni yoki uning alohida qismlarini tashqi ko'rsatmasiz mustaqil ravishda qayta tiklay olishi bilan tavsiflanadi. Bu o'quvchi-talabalar o'zlashtirish darajasining birmuncha yuqori pog'onasi bo'lib, o'quvchi-talabalar o'z xotirasiga tayangan holda o'qituvchi (pedagog) o'rgatgan yoki adabiyotlardagi mavjud materiallarni ma'lum algoritm bo'yicha tushuntirib bera oladi.

III daraja: nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning **evristik** darajasi deb nomlanadi. Evristik darajada o'quvchi-talabaning aniq masalalarni yechish qobiliyati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha materiallarni tanish va notanish vaziyatlarda mustaqil qayta tiklash evaziga yangi axborotlarni qo'lga kiritishi bilan xarakterlanadi. Bilimlarni ko'chirish ma'lum masalalar

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

sinfi bilan chegaralangan va butun bir o‘quv predmeti bo‘yicha tarqalmagan bo‘ladi.

IV daraja: faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning **ijodiy** darajasi deb nomlanadi. Ijodiy darajada o‘quvchi-talabaning materiallarni mustaqil o‘rganish va qayta ishlash qobiliyati mavjud axborotlarni yangi vaziyatlarda keng doiradagi masalalar yechimiga ko‘chirish bilan tavsiflanadi. Faoliyatning bu darajasi izlanuvchanlik, ijodkorlik xarakteriga ega bo‘lib, turli vaziyatlarda o‘zlashtirilgan keng doiradagi bilimlarni qator obyektlarda qo‘llash bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sifati bo‘yicha ta’lim maqsadlarining tashxislanuvchanligi o‘zlashtirishning zaruriy darajalarini aniqlashtirishni talab etar ekan. Demak, birinchi navbatda, o‘quvchi-talabalarning bo‘lajak faoliyatiga va mutaxassislik mahoratiga qo‘yilgan talablar e’tiborga olinadi.

O‘qitish jarayonida o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshirish, ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari, talablarini hisobga olgan holda o‘qitish qonuniyatlari va prinsiplari aniqlanadi, o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv-tarbiya ishlari jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

Talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. O‘quv-tarbiya jarayoni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash, hamkorlik pedagogikasiga asoslanish.

2. O‘quv-tarbiya jarayonida didaktik o‘yin, muammoli, modulli ta’lim, loyihalash va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning yakka tartibda va kichik guruhlarda mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etib, ularni o‘z o‘quv-bilish faoliyatining subyektiga aylantirish.

3. Talabalarning mustaqil ishi va tahsilini rejali, bosqichma-bosqich, evolutsion tarzda tashkil etish.

4. Talabalarning bo‘lajak mutaxassislik faoliyatiga ilmiy-metodik jihatdan tayyorgarligini tahlil qilish, ularda ko‘nikmalar shakllan-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ishini hisobga olgan holda har bir talabaga o‘zini-o‘zi rivojlantirishning individual ish rejasini tavsiya etish.

5. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish, talabalarda mustaqil tahsil olish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ongli tanlash va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallashiga erishish.

6. Talabalarning bitiruv malakaviy ishlari mavzularini o‘quv-tarbiya jarayonining dolzarb muammolariga bag‘ishlash orqali izchil va muntazam ravishda o‘z saviyasini oshirish va faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishiga zamin tayyorlash.

Talabalarning ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ularning ilmiy dunyoqarashi va ilmiy nazariy tayyorgarligiga asos bo‘ladigan ijtimoiy-gumanitar va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlik, umumkasbiy fanlarni o‘qitishda g‘oyaviy yo‘naltirilganlikni amalga oshirish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradigan pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologiya kabi o‘quv kurslari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni ham maqsadga muvofiq ravishda boshqariladigan tizim hisoblanadi. Har qanday tizimni maqsadga muvofiq boshqarish esa, o‘z navbatida, faqat teskari aloqa vositasida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida teskari aloqa sifatida talabalarning bilim darajalarini nazorat qilish va baholash qabul qilingan. Mazkur masala ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lib, bu sohada yetarlicha ilmiy-uslubiy tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Ta’lim jarayonining yana bir muhim sohasi borki, bu soha ta’lim jarayonini boshqarishni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu masala har bir yangi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarning undan avval o‘zlashtirilgan bilimlar darajasiga bog‘liqligidir. Agar navbatdagi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni undan oldingi o‘zlashtirilgan bilimlar asosida prognoz etish masalasi ilmiy-uslubiy jihatdan hal etilsa va amaliyotda qo‘llansa, bu hol, birinchidan, o‘qituvchilar uchun har bir talabaning navbatdagi bilish faoliyatini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, har bir talaba o‘zini-o‘zi nazorat qilish imkoniga ega bo‘lib, o‘z faolligini oshiradi.

Bugungi kunda mutaxassis tayyorlashda talabalarning turli fanlardan, shu jumladan, pedagogik va kasbiy uslubiyotlar bo‘yicha

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

bilim, iqtidor va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi.

To‘g‘ri tashkil etilgan nazorat talabalarni olinayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi, ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi. Talabaning o‘quv faoliyatiga ta’sir etishning ikki qirrasi bor. Birinchisi-pedagog qo‘llayotgan usul va metodlar bo‘lsa, ikkinchisi pedagogning faqat shaxsiy xislatlariga bog‘liq bo‘lgan ta’sir etish vositalaridan foydalanishdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limning uzluksiz takomillashishida o‘quv-tarbiya jarayonlarining usul va metodlarini yanada mukammallashtirish va talabalar o‘quv faoliyatini boshqarish masalalari uzluksiz yechimli muammolar qatoriga kiradi.

Ta’lim jarayonida bilim, iqtidor va ko‘nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi. O‘tkazilgan tajribalarga va o‘quv adabiyotlarida izohlangan ilg‘or uslublarga asoslanib nazoratning mezoni va bajaradigan funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o‘z bilim, iqtidor va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg‘onadi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlari shakllantiriladi va, eng asosiysi, rivojlantiriladi. Rivojlanish-aqliy va jismoniy faoliyatning birligida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

4. Nazorat jarayonida talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. O‘quv materiali yanada chuqur o‘zlashtiriladi, hodisalar o‘rtasida yangi bog‘lanishlar o‘rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib bormog‘i lozim.

6. Nazoratni baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o‘zgarishlarining me’yori aniqlanadi.

7. Nazorat – ko‘p qirrali murakkab jarayon. Nazorat talabalarda doimo jonli qiziqish, kuyunish, ayanch, xursandchilik hislarini uyg‘otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalar bir-biriga uzviy bog‘langan holda yuz beradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

To‘g‘ri tashkil qilingan o‘z-o‘zini nazorat esa o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yangi predmet o‘rganilayotganida bundan oldingi o‘quv predmetlarida o‘zlashtirilgan bilimlarning darkorligida ko‘rinadi. Talabalar mustaqil ishlab yetishmaydigan bilimlarini to‘ldirib borsa yaxshi, ammo o’zini-o‘zi nazorat qila olmaydigan talabalarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi ancha murakkab kechadi. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtlarida ishlaydigan pedagoglar yangi predmet va yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning yangi dasturni o‘zlashtirishga qanchalik tayyorligini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.

Nazoratning joriy, oraliq, yakuniy kabi 3 ta turi va yozma, og‘zaki va test sinovlari hamda turli amaliy shakllari mavjud.

Nazoratning turli testlar orqali amalga oshiriladigan shakli ko‘pgina ustunliklarga ega. Pedagog olimlar I.Y.Tursunov va U.N. Nishonaliyevlarning ma’lumotlariga qaraganda. testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- bir vaqtning o‘zida bir guruh yoki ko‘p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;
- barcha talabalarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;
- test natijalarini o‘qituvchi tezlikda tekshirishi mumkin;
- turli guruh talabalari bilimini solishtirib qo‘llanayotgan metodning samaradorligini aniqlash mumkin;
- ta’lim jarayonining kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarining talabalari fanlarni mustaqil o‘zlashtirishni kompyuterlar yordamida tashkil qiladi. Kompyuterlar yordamida tashkil qilishning asosiy manbalaridan biri zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv-nazorat dasturlari ta’minotini yaratishdan iborat. Kompyuter zamonaviy texnika vositasi sifatida ular yordamida talabalarning nazariy bilim asoslari bilan qurollanishiga yordam beradi, o‘quv materialini faol o‘zlashtirishga, egallangan nazariy bilimlarni amalda tatbiq qila olishga o‘rgatadi hamda talabalarning o‘zlashtirish darajasini tez va haqqoniy aniqlashda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining ko'pgina elementlarini kompyuterlashtirish bo'yicha, ya'ni o'quv materialini bayon qiluvchi o'qitish dasturlari, tasavvur qilish qiyin bo'lgan jarayonlarni namoyish qiluvchi dasturlar, talabalar o'zlashtirish darajalarini har xil usullarda nazorat qiluvchi dasturlarni amaliyotga tatbiq qilish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Ammo ta'lim-tarbiya jaaryonida foydalanish uchun mo'ljallangan dasturlar yaratishga va ulardan keng foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ushbu masalalarni hal qilish maqsadida talabalarning mustaqil ravishda bilim olishi va o'zlashtirish darajalarini aniqlash kompyuter dasturi yaratilgan bo'lib, undan foydalanish natijasida talabalar fanlarni mustaqil tarzda o'zlashtirishlari bilan birga, o'z bilim darajasini aniqlashga ham erishishadi. Dasturdan foydalanish sodda bo'lib, unda xuddi Windows operatsion tizimida ishlagandek ishlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Dastur ishga tushirilgach, u bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma oynasi hosil bo'ladi. Ko'rsatma bilan tanishib bo'lgach, talabalar tanlagan ko'rsatmalari bo'yicha bir necha oynalar birin-ketin hosil bo'ladi. Dastur oynalaridan eng asosiylaridan biri «O'quv dasturi» bo'limi bo'lib, buni tanlash orqali «Mavzuni tanlash» oynasi hosil qilinadi. Talaba bu oynadan ketma-ket fakultet, kafedra, fan va mavzu nomlarini tanlashi, so'ng oynadagi «Mavzuni o'qish» bo'limi ustida «sichqoncha» tugmasini bosishi zarur. Natijada talabadan ismi, sharifi va guruh raqamini kiritish so'raladi. Bu ma'lumotlar kiritilgandan so'ng «Davom etamiz» ko'rsatmasi tanlanadi hamda talabadan «Kerakli mavzuni tanlash» va «Mavzu bo'yicha test sinovi» bo'limlaridan birini tanlashni talab qiluvchi navbatdagi oyna hosil bo'ladi. Talabalar xohishiga ko'ra ushbu bo'limlardan birini tanlashi mumkin.

Dasturda talabaning mavzuni o'zlashtirish darajasini hisobga olishda reyting tizimi e'tiborga olingan bo'lib, agar talaba 55% dan ortiq o'zlashtirishga erishsa, boshqa fanni (yoki mavzuni) tanlashi va o'z bilim darjasini aniqlashi yoki mavzuni qayta o'rganishga va o'z bilim darajasini aniqlashga erishishi mumkin. Talabalarning mavzuni mustaqil o'zlashtirganlik darajasini tahlil qilish uchun «Mavzuni tanlash» oynasidagi «Ma'lumotlar ombori» bo'limi tanlanadi. Natijada «Tekshiruv oynasi» hosil bo'ladi va kerakli parolni kiritish so'raladi. Kerakli parol kiritilgandan so'ng, «Tekshiruv» oynasidagi «Yangi parol kiritish», «Parolni tasdiqlash», «Bazani tozalash», «Omborga

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
kirish», «Hisobotlar» va «Chiqish» kabi bo'limlar ishchi holatda bo'ladi. Oynaning «Hisobotlar» bo'limi orqali dasturdan mustaqil shug'ullangan talabalar haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu dasturning qulaylik tomoni shundaki, fan bo'yicha tayyorlanadigan didaktik materiallar (nazariy ma'lumotlar va test savollari) Word dasturida tayyorlangan bo'lsa, uni o'qish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturdan ixtiyoriy fanlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Buning uchun fanlar bo'yicha tayyorlangan didaktik materiallar ushbu dastur bazasiga kiritilsa va dasturga bog'lansa, mashg'ulot sifati yanada yaxshilanadi, talabalar kompyuter orqali mustaqil tarzda bilim olishga erishadi.

Xorijda olib borilayotgan tadqiqotlarda o'quvchi-talabalar faoliyatini shakllantiradigan reproduktiv—esda qolganlarni tiklashga oid o'zlashtirishdan tashqariga olib chiqishga harakat bo'lyapti. Amerikalik ruhshunoslar-R.Gane va L.Briggslar (1979) aniq o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va, shu bilan birga, mahsuldor tafakkur darajalariga erishishga rag'batlantiruvchi unsurlarni o'z ichiga olgan quyidagi dars qurilmasini tuzishni taklif qilishgan, dars o'tishning bu usuli xususiy o'quv maqsadlariga erishishga hamda fikrlash (tafakkur)ning mahsuldor darajasini rag'batlantirishga qaratilgan:

- o'quvchi-talabalar diqqat-e'tiborini bir joyga jamlash;
- o'quvchi-talabalarni dars maqsadlaridan xabardor qilish;
- zaruriy bilim va mahoratlarini yodda saqlab qolish ko'nikmalarini egallash zarurligini uqtirish;
- ma'lum aks-sado qabilida, ya'ni qiziqish uyg'otadigan va ularni harakat qilishga undaydigan o'quv materialini taqdim qilish;
- o'quvchi-talabalarning o'quv materialidan ta'sirlanib qiladigan aks-sado qabilidagi javoblarini yuzaga keltirish;
- fikrlash faoliyatiga ta'sir qilish, olingan bilimlar va mahoratning mustahkam bo'lishiga erishish;
- o'quvchi-talabalar faoliyatini rag'batlantirish.

Ingliz olimi A.Romishevskiy pedagogik texnologiya metodining quyidagi variantini tavsiya etadi:

1. O'quvchi-talabalarni kerakli bilimlardan xabardor qilish.
2. Esda qolganlarni tiklashga doir mahoratni shakllantirish.
3. O'quvchi-talaba bajaradigan ish-harakatni yaxlit holda va qismlari bo'yicha namoyish etish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

4. Malaka hosil qilishni soddalashtirish (berilgan vazifani bo'laklarga bo'lib bajartirish).

5. O'quvchi-talaba mustaqil bajarayotganidan xabardor bo'lib, uni rag'batlantirib borish.

6. Mahsuldor, izlanuvchan davrga o'tish.

7. Turli xil muammoli vaziyatlarni tashkil etish va yangi hamda o'ziga xos masalalarni yechish.

8. O'quvchi-talabalar o'z faoliyatini tahlil qilishlari, o'qituvchi (pedagog) ham, o'z navbatida, ularning vazifani qanday bajarganliklarini guruhda muhokama qilishlari.

Amerikalik ruhshunos olim F.S.Keller oliy o'quv yurtlari uchun pedagogik texnologiyalarning individuallashtirilgan o'qitish tizimini taklif qildi.

F.S.Keller rejasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining mazmunini to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan, avvalgi bo'limga qo'yilgan talablarni o'zlashtirishni o'z ichiga oluvchi usulni keyingi bo'limga o'tishning bevosita sharti deb qaralishi:

- o'quvchi-talabalar har qaysisining o'z o'zlashtirish sur'atiga mos ravishda alohida-alohida ishlashlari;

- va'z-ma'ruzalardan faqat motiv hosil qilish va o'quvchi-talabalarni umumiy yo'naltirish maqsadlaridagina foydalanish;

- chop etilgan o'quv axborotlarini bayon qilish uchun nashr etilgan o'quv qo'llanmalaridan foydalanish;

- o'quv materialining qanday o'zlashtirilganligini aniqlashda yordamchi-assistent (aspirant, a'lochi talaba)lar kuchidan foydalanish.

Har bir o'qitilayotgan fan (har qaysi o'rgatilayotgan bo'lim yoki bob yuzasi)dan o'quvchi-talaba ma'lum yo'l-yo'riq oladi. Bunda bo'lim yoki bobning maqsadlari ko'rsatilishi, o'quv ishlarining ma'lum turlari tavsiya qilinishi, o'quvchi-talaba o'zini-o'zi tekshirishi va nazorat savollarining ro'yxati keltirilishi kerak. O'quvchi-talabalarga o'quv faoliyatining turlari va ishlash tartibini erkin tanlash imkoni beriladi. O'zlashtirilgan bob, bo'lim bo'yicha imtihondan avval har bir o'quvchi-talabani yordamchi assistent o'qituvchi ishlab chiqqan aniq talab va mezonlarga mos holda (materialning to'liq yoki noto'liq o'zlashtirilganligiga qarab «o'tdi», «o'tmadi» shaklida sinovdan o'tkaziladi) baholanadi. Qoniqarsiz baho olishganida yor-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

damchi tavsiyasiga ko'ra o'quvchi-talabalarga qo'shimcha materialni o'zlashtirilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi. Sinovdan o'tish keyingi bo'limni o'rganish uchun o'ziga xos ruxsatnoma bo'lib xizmat qiladi. Ma'ruzalar soni ko'p bo'lmaydi (bir semestrda 6 tagacha), ularga qatnashish majburiy emas.

Kellerning rejasi AQSh oliy o'quv yurtlarida keng tarqalgan, u erda ham tabiiy-ilmiy hamda gumanitar-ijtimoiy fanlar o'qitishda qo'llaniladi. 70-80-yillarning o'rtalarida o'tkazilgan pedagogik tajribalar Keller rejasini o'qitishning an'anaviy turlariga qiyoslaganda o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quv yurtlariga qo'yilgan o'quv vazifalarini amalga oshirishda yuqori samarador ekanligini tasdiqladi.

V.Guzeev Rossiya Federatsiyasida asosiy tarkibiy qismlari umuman olganda quyidagilar hisoblanuvchi integral pedagogik texnologiyani ishlab chiqdi va uning asosiy qismlari, umumlashgan holda quyidagilardan iborat:

1. O'qitishning har bir ixtisos-mutaxassisligi uchun tashxisli va o'ylanganlarni amalga oshirishga mo'ljallangan maqsadlarning ko'p darajali tizimlari rejalashtirilgan o'qitishning natijalari ko'rinishida taqdim etiladi.

2. Ta'lim jarayonining yirik tuzilmasi darslar bloki bilan eng kichik birliklar sifatida birlashtirilib, ta'lim mazmunining katta birligini tashkil etadi.

3. Guruhlar tarkibi va faoliyatida aniq qurilgan dinamika-rivojlanish sur'ati bilan guruhli o'rgatish jarayonining muvaffaqiyatli monitoringi asosida har bir qadami avvalgilarning natijasiga bog'liq ravishda loyihalashtiriladi.

4. Ta'lim jarayonini boshqarish va o'qitish jarayoni kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilganlar ta'limga texnologik yondashuvning shakl va variantlari xilma-xilligidan dalolat beradi. Rossiya Federatsiyasida shu masalaga aloqador bir qator ilmiy-metodik va davriy nashrlar, jumladan, «Shkolnie texnologii» nomli yangi pedagogik jurnal ham chiqarilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy pedagogik texnologiyaning imkoniyatlari, qudrati qanchalar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Bu sohadagi xorijiy tajriba bilan tanishuv O'zbekiston pedagoglari uchun o'qitishga yangicha yondashish, pedagogik texnologiya sohasidagi chet el tajribalarini o'rganish, milliy-madaniy an'analarimiz va ta'lim-tarbiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

teran anglash hamda ularni o‘zlashtirish va keyinchalik ulardan amaliyot yoki ishlab chiqarishda foydalanish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.

6.2. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni

Tanqidiy fikr – bu qo‘yilgan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, fikrlash – bu o‘qish, yozish, so‘zlash va eshitishga o‘xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o‘zida biror haqiqat to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

- hayotning murakkab o‘zgaruvchanlik ma’nosini tushunib yetishga yordam beradi;
- jamoaning ochiq fikrini rag‘batlantiradi;
- aloqa, tushunish va hurmatning ikki tomonlamaligini anglatadi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

Ta’lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba o‘rtasidagi hamda o‘quvchi-talaba bilan o‘quvchi-talaba o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni tarbiyalaydi.
2. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchi-talabaning o‘z tajribasidan foydalaniladi.
3. Ma’lum o‘quv mazmuni o‘quvchi-talabaning talablariga mos va aniq tarzda foydalaniladi.
4. Muammoni hal qilishda o‘quv materiallaridan foydalaniladi.
5. Har xil fikr va qarashlar integratsiyalashadi.
6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko‘riladi.
7. Ta’lim o‘qituvchi (pedagog) bilan o‘quvchi-talabalar orasidagi yoki o‘quvchi- talabalarning o‘zlari o‘rtasidagi munosabatlar orqali berib boriladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

8. O‘quvchi-talabalarning mustaqil ta’lim olishi uchun sharoit yaratiladi va ularning tayyorgarlik darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo‘llash, didaktik o‘yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo‘ljalni to‘g‘ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O‘quv dasturlari talablariga muvofiq muammoli yoki munozarali mashg‘ulotlarning tashkil etilishi tanqidiy va tahliliy fikrlarning rivojida muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o‘zaro fikr almashishga, o‘zaro fikrlarni to‘ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo‘llashda o‘zaro ta’sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta’sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo‘naltirish, noma’lum holatni ochishga (kashf etishga) ko‘mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo‘llaniladi:

- o‘qitishning ko‘rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o‘qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari;
- o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari;
- o‘qitishning nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og‘zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar).

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ikkinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga yashirincha usullardan (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha, bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o‘rgatish, ularning intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma’lum yo‘nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriq e’lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko‘nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma’lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko‘nikmalarni izlash muammosi paydo bo‘ladi. Ana shu vaziyat esa muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e’tibor bilan kuzatadi, kerak bo‘lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va tahsil oxirida faol talabalarga qo‘yilgan ballar yoki baholarni e’lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko‘nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o'zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So'ngra o'quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Har bir bosqichning o'ziga xos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari bor. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti) yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablari asosida «avval o'qish, so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» prinsipiga asoslanishi, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishidagi ko'rsatkich va o'zlashtirish darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash hamda talabalarga individual va tabaqalashgan holda yondashuvlar xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. O'qituvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. O'qituvchi axborotlarni to'plash, axborotlarni tanlash va qayta ishlash, o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga har doim ham rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uni bilish faoliyatining yangi pog'onasiga, ya'ni bu bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga ko'tarishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvi qator prinsiplargatayanadi: fanni o'rganishgaqiziqtirish, tayanch iboralarga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa, ta'lim jarayonida o'qituvchi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy prinsiplar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- talabaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

Talabalarning fanlarga oid tanqidiy fikrini bilish maqsadida quyidagi varaqalar tarqatilgan:

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o'zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davrning o'zida to'liq tushunib, etmadim.
2. Oliy ta'limning mazmuni va shakli o'rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.
3. Ilmiy tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.
4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.
5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.
6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.
7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.
8. O'quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashga yig'ilib qoladi.
9. Reyting nazoratida his-tuyg'uda barqarorlikning yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to'play olmayman.
10. Seminar mashg'ulotlari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo'qligi yomon oqibatlarga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Ammo tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud.

Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun talabalarga vaqt va imkoniyat berish zarur, ya'ni;

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga uning o'zida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish, o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy (tahliliy) fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o'qituvchi mas'ul, degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va ta'limga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyasi va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi (pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish kerak. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim va katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko'zda tutadi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlari tizimini so'rovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq, talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud, ya’ni o‘ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o‘rtoqlari va o‘qituvchi bilan fikr almashish, o‘zgalar fikrini tinglay olish va boshqalar.

Umuman olganda, talabalarning tanqidiy (tahliliy) fikrini rivojlantirish oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv-tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirishda va talabalarning o’zini-o‘zi boshqarishida muhim rol o‘ynaydi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

VII BOB. O‘QITUVCHI-KASB EGASI SIFATIDA

7.1. O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

ta’lim berish mahorati;

tarbiyalay olish mahorati;

o‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxsiy fazilatlari;

ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k..

Umumlashtirilgan modelning doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi uchun ta’lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo‘lib ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur’atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muhit), kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar ustuvor bo‘lgan va xalq xo‘jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta’lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog‘liq bo‘ladi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o‘xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog‘liqdir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;
- ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ulardafan vatexnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlari qay darajada aks ettirilganligiga;
- professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;
- professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;
- o'quv jarayonini informatizatsiyalash va kompyuterlashtirishga;
- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llashga;
- shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;
- o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart.

Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bun-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

day g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Shunday ekan, o'qituvchilik – katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilgor tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta, fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'zining o'quvchi yoki talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko'p o'qishi va o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish-o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'z murabbiylari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z fanini va uni o'qitishning metod, usul va vositalarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligiga erishishi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat ifoda eta olishi, ularni hayotga qiziqtirishi, ularning ruhiy holatlarni bilishi va tushunishi, bosiqlik bilan o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, tashqi ko'rinishi va kiyinish madaniyati bo'yicha ibrat bo'lishi, nutq madaniyatining yuqoriligi va ijtimoiy faolligi, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-madaniy ishlarning targ'ibotchisi bo'lishi lozim.

Shundagina mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarimiz o'z murabbiylarining nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Buning uchun har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilganidek, o'z fanlari bo'yicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak.

"Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi-o'qituvchilik va murabbiylikdir", - deganida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov haq fikrni ifodalagan edi. G'azal mulkining sultoni, ikki daryo bo'yidagi zahmatkash xalqini yakqalam qilgan A.Navoiy ranj ila bir harf o'rgatgan ustozlar xizmatini yuz ganj ila ado etib bo'l-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

masligini yozgan va hayotda o'z ustozi mavlono Lutfiyga bo'lgan ehtiromida uning amaliy isbotini namoyon etgan. Shu boisdan, azal-azaldan bu kasb juda e'zozli hisoblangan. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ko'p jihatdan bog'liq.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish va respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda ularning kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yuksak hurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi va mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Resupblikasida ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikri ibratlidir:"-Tarbiyachining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. ...O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

...maktablardagi jarayonlarda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: "Mening aytganim aytgan, deganim degan".

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini, ko'pincha, yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz".

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi lozim?

O‘qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma’lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan ma’n etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi kerak:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O‘qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

9. O‘qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning diqqatini ko‘p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o‘rinsiz foydalanmaslik, fasl,

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik, aynan, o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

"Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir", -degan shior kun tartibiga o'rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosi kun tartibiga qo'yilgan bugungi kunda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o'ringa chiqdi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya'ni sahovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rtaga olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo'yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: "Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin". 1) avvalo: o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; 2) o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida xokisor bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; 4) ko'rish (nojoiz) lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish; 7) ustoziga qarshi bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Ana shu kesimlarda o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi dialektik munosabat to'laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan, birinchi navbatda, quyidagilar talab qilinadi:

1. Jismoniy va aqliy salomatlik.
2. Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
3. Kuchli va keng qamrovli poyindor bilim.
4. Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
5. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.
6. Muttasil o'z ustida ishlash, malakasini oshirish va boshqalar.

Odatda, ko'pchilik o'qituvchilar shaxsni o'rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o'z o'quv fani doirasida o'quvchini tegishli bilim va ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko'radilar. Vaholanki, o'qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi-ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy pedagogika o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Bu fikrni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsa-da, uning kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi;

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda, texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish lozim bo'ladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

7.2. O‘qituvchining nutq madaniyati

O‘qituvchining nutq madaniyati, notiqlik san’ati va o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifodalay olishi haqida mulohaza yuritishdan oldin til va nutq xususida ayrim ma’lumotlarni eslatish lozim.

Nutq madaniyati jamiyat hayoti va madaniyatining o‘ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi ko‘rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, so‘zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o‘z ichiga oladi, ularni «boshqaradi», ular orqali voqelikka aylanadi, ta’sir qilish quvvatiga ega bo‘ladi.

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo‘lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o‘zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutq-bu rasmiy tildir. U keng ma’noda so‘zlardan, so‘z birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan lingvistik me’yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo‘lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma’naviyatini belgilovchi (ko‘rsatuvchi) etik va estetik kategoriyadir, hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me’yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlargina emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko‘tarish, odamlarda ma’lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi;

2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog‘liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;

3) nutq madaniyati muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo‘limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri o‘zining murakkab ko‘rinishlariga va qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Shunday qilib, nutq madaniyatiga berilgan eng muhim ta'riflar quyidagilardir:

1. Nutq madaniyati-adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir (Praga lingvistik maktabi).

2. Nutq madaniyati (til madaniyati)-bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).

3. Nutq madaniyati-tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).

4. Nutq madaniyati-kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).

5. Nutq madaniyati-faqat to'g'ri nutqqina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).

6. Nutq madaniyati-til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir (A.I. Yefimov).

7. Nutq madaniyati-bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D.E. Rozental va boshqalar).

8. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq-madaniy nutqdir (M.Agafonova).

Xulosa shuki, nutq madaniyati-tilni, aloqa va aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo'ladi. Aksincha bo'lsa, unda nutq madaniyati ham past saviyada bo'lishi muqarrardir.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov(mezon)ga asoslanish kerak bo'ladi. Mana shu o'lchov(mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor).

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me’yor.
2. Talaffuz - (orfo-yepik) me’yor.
3. Yozuv (grafika) me’yori.
4. Fonetik me’yor.
5. Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me’yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me’yor.
7. So‘z yasalish me’yorlari.
8. Imloviy me’yor.
9. Uslubiy me’yor.
10. Punktuatsion me’yor.

Adabiy me’yorning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, og‘zaki adabiy me’yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifaguy xalq shoir-baxshilari katta hissa qo‘shsalar, yozma adabiy me’yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me’yorini o‘rganish yangi hodisa emas. Til me’yori va adabiy me’yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o‘rganib kelingan. Adabiy til me’yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari-nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me’yoriga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatdan farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til me’yoridagi o‘zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me’yorini doimiy rivojlanib, o‘zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me’yori sistemasidagi yangi holatlarni, o‘zgarayotgan, o‘zgargan holatlarni, shuningdek, «o‘lgan», iste’moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til me’yori sistemasidagi qaramaqarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari bo‘yicha tekshirishi lozim.

Ma’lumki, tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mav-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

jud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demak, shu tilda so'zlashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda, til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. O'qituvchi ham bundan mustasno emas. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televidenieni kuzatib borishi, umuman, ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina kasbiy nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi adabiy tilda gapirishi lozim. Adabiy til va uning me'yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi: so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. So'zlash deyilganda, so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashi tushuniladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlashning monologik va dialogik ko'rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish-o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqea - hodisadan xabardor bo'ladi.

Nutq-so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning muayyan ko'rinishi ifoda bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq va aniq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, nutq oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, fikran aniq, tuzilishiga ko'ra chiroyli va yo'nalishiga ko'ra maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyligi, ta’sirchanligi va maqsadga muvofiqligi unga qo‘yiladigan eng muhim talablardir.

Nutqning to‘g‘riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya’ni mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun, asosan, ikki me’yorga - urg‘u va grammatik me’yorga qattiy amal qilish talab etiladi. O‘qituvchi og‘zaki nutqining bu ikki muhim komponenti uning notiqlik mahoratini belgilovchi bosh mezonlar darajasiga ko‘tarilishi tabiiydir. Atamalar va terminlar, tushuncha va iboralar ifodasida urg‘uni to‘g‘ri qo‘llamaslik o‘qituvchi nutqidagi eng katta kamchilik sanaladi.

Grammatik me’yorga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘zak va qo‘shimchalarni qo‘shishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik, kelishik qo‘shimchalarini o‘z o‘rnida qo‘llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlari tushuniladi.

Aniqlik nutqning aloqaviy sifatlaridan biri bo‘lib, u obyektiv borliq bilan nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo‘llash;

b) nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish;

v) so‘zning ko‘p ma’noligiga jiddiy e’tibor berish, ko‘p ma’noli so‘z nutqda qo‘llanganda uning qaysi ma’no qirrasi ko‘zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish fikrning yuzaga chiqishida bu so‘zning boshqa ma’no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko‘z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

d) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e’tibor berish;

e) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb - hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm so‘zlarning ma’nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.

Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me’yoriga muvofiq kelish -kelmasligi tushuniladi.

Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta’sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi, urg‘usi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

2. O‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari.
3. Jargonlar.
4. Vulgarizmlar.
5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so‘zlar.
6. Kanselyarizmlar.
7. Varvarizmlar.

Sanab o‘tilganlardan o‘rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir o‘qituvchi o‘z nutqining adabiy me’yorlar darajasida bo‘lishi uchun harakat qilishi lozim. O‘z shevasiga xos bo‘lgan til vositalarini nutqqa o‘rinsiz olib kirish ham nutqni buzadi. Ammo dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida ma’lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning ma’lum g‘oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin.

Nutqda o‘rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so‘zlar varvarizmlar deb ataladi. Jargon – biror guruh vakillarining, o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib, ishlatadigan so‘z va iboralaridir.

Vulgarizmlar-dag‘al so‘z yoki iboralardir(so‘kish, haqoratlash, qo‘pollik, johillik kabilar).

Parazit so‘zlar deb ataluvchi lug‘aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilib, notiqning o‘z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari bo‘lgan to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir.

Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan, og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e’tiborga olinadi. Ya’ni, bunda notiq tinglovchilarni ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Professional bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo‘n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo‘lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. O‘qituvchi nutqining auditoriyaga mosligi uning eng asosiy sifat ko‘rsatkichi ekanligini doimo nazarda tutib so‘zlashi lozim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Tinglovchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ifodalanayotgan fikrga ishontira olish o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek,o'quv materialini va uning mazmun hamda mohiyatini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq, belgilangan rejasi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchining o'z nutqiga munosabati ham muhim kasbiy fazilat hisoblanadi. Bunday holat o'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqaning mustahkamlanishiga samarali xizmat qiladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subyektiv fikr-mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinek–doxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur.

Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati-adabiy til me'yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir.

Til - aloqa quroli, til - hayot ko'zgusi, til - ma'naviyat belgisi bo'lishi bilan bir qatorda o'qituvchi uchun eng muhim metodik vosita sifatida katta xizmat qiladi. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan omil ham tildir. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur «mevalari» til va nutq orqali yuzaga chiqadi.

So'zning tarixiy - madaniy, ma'naviy xizmati cheksiz, albatta. Lekin tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi va o'qituvchilar shu imkoniyatlardan samarali foydalanishlari lozim. Nutq sifatsiz bo'lar ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari ta'lim-tarbiya jarayonlarida yetarli darajada yuzaga chiqmay qolaveradi.

Fapb donishmandlaridan R.Emirsonning ta'kidlashicha, «Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi». Bu gapda nutqning shunday fazilati ta'kidlanayaptiki, u, birinchi navbatda, ishontirish san'atidir. O'quvchilar bilan muloqotda bo'layotgan o'qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi dalillangan, puxta asoslangan bo'lishi lozim. O'quvchilarning ishonchini, mehrini qozongan o'qituvchinigina haqiiqiy ustoz deyish mumkin.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Nutq-harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o‘zaro mantiqiy bog‘lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq-so‘z, so‘z birikmalari va gaplardan iborat bo‘ladi.

Nutq, nutq odobi-insonning ma’naviyati va ma’rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos holda adabiy me’yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish va muntazam ravishda mashq qilish hamda tilga jiddiy munosabatda bo‘lish orqali erishiladi. O‘quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o‘qituvchidir. Buni o‘qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag‘batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilarni shirin va yoqimli so‘zlar bilan rag‘batlantirishi lozim.

«Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi» (S.Ibrohimov).

O‘qituvchining yozma nutqiga ham katta talablar qo‘yiladi. Bular imloviy savodxonlik, fikrni yozma tarzda ravon ifodalash, yozuv qoidalariga rioya qilish, orfografik va punktuatsion hamda stilistik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Shuning uchun o‘qituvchining yozma nutqi ikkita komponent-imlo savodxonligi va husnixat(kalligrafiya, yozuv uslubi)dan iborat, deb yuritiladi.

Og‘zaki va yozma mukammal nutq shartli ravishda (ma’joziy ma’noda) o‘qituvchining ikki “yorug‘ yuzi” deb ham ataladi.

Tilning dunyoni bilish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, uning asosiy funksiyasi kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashi va ularning bilim olishida qudratli qurol ekanligida ko‘rinadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

VIII BOB. MASOFAVIY VA MODULLI O‘QITISH

8.1. Masofaviy va modulli o‘qitish va ularning rivojlanish bosqichlari

Masofaviy o‘qitish-yangi va ancha progressiv bo‘lgan o‘qitish shaklidir. Bu usulning turli xil ta’lim muassasalariga, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sohalarga tatbiqi o‘quvchi-talaba va o‘qituvchi(pedagog)larni dunyoning ilg‘or ilmiy maktablarining yuqori sifatli o‘quv-uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so‘nggi axborotlaridan, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatini beradi. Bularning barchasini e’tiborga olgan holda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi «Ustoz» fondi qiyofasida jahon institutlari bilan oliy ta’limda masofaviy o‘qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi.

Bunday loyiha, nafaqat O‘zbekiston uchun, balki O‘rta Osiyoning barcha hududlari va Qozog‘iston hamda hamdo‘stlik davlatlari uchun masofaviy o‘qitish sohasida jahon banki institutining ilg‘or loyihalaridandir.

Jahon banki loyihasi masofaviy o‘qitish tizimini rivojlantirish uchun boshlang‘ich maydon bo‘ladigan masofaviy o‘qitish tarmoqlari infratuzilmasi baza elementlarini yaratish, masofaviy o‘qitish usullarini qo‘llash sohasini kengaytirish va masofaviy o‘qitishni amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Toshkent shahrida joylashgan universitetlarda jahon banki loyihasining muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uning hayotiyligi va yuqori ko‘rsatkichga erishilganligini tasdiqladi.

Oliy o‘quv yurtlaridan 30 nafardan ortiq yetuk o‘qituvchilar tanlab olinib, ular masofadan o‘qitishlar bo‘yicha qayta tayyorlandi. 2000-yilda jahon banki tashabbusi bilan Moskva va Bishkekda o‘qitish markazlari tashkil etilib, unga taklif etilgan qatnashchilar yangi o‘quv metodologiyasini masofadan rejimli boshqarish va elektron kurslari metodlari bo‘yicha qayta tayyorlandi. Loyihaning universitet ishtirokchilari uchun iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha masofaviy

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

o‘qitish tartibida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun texnik baza vositalari tashkil etildi. Internetga ulanish yo‘llari izlanmoqda. Bularning barchasi berilgan texnologiya turlarining istiqbollari to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

Masofaviy o‘qitishning an’anaviy o‘qitish shakllaridan quyidagi xususiyatlarini farqlash mumkin;

Egiluvchanlik. O‘ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o‘qitish imkoniyatini beradi.

Modullik. O‘quv kursiga bog‘liq bo‘lmagan holatda shaxsiy hamda guruh talabiga javob beradigan o‘quv rejasini amalga oshiradi.

Qurshov. Bir vaqtda ko‘p ishtirokchilarga o‘quv axboroti bo‘yicha murojaat qilish, tarmoq yordamida o‘zaro axborot almashinuvini to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi.

Tejamkorlik. O‘quv maydonlari, texnik vositalar, moddiy va ma’naviy ashyolardan unumli foydalanish, o‘quv axborotlarini to‘plangan va bir xillikka keltirilgan holda ifodalash hamda ularni o‘zlashtiruvchi mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha xarajatlarni kamaytiradi.

Texnologiklik. Ta’lim berish jarayonida insonni jahonning industrial fazosiga kiritishga imkon beradigan yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.

Ijtimoiy teng huquqlilik. O‘qituvchining turar joyidan, salomatligi, moddiy ta’minlanganligidan kelib chiqib, katta ko‘pchilikka mustaqil ta’lim uchun teng imkoniyat yaratiladi.

Baynalmilallik. Ta’lim xizmatlari bozorida erishilgan yutuqlarning eksporti va importi ta’minlanadi.

O‘qituvchi(pedagog)larning yangi vazifalari. Masofaviy o‘qitish o‘qituvchi(pedagog)ning vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O‘qitilayotgan kurslarni doimo takomillashtirish, tinglovchilarning ijodiy faolligini va ularning malakasini oshirish, kiritilgan yangilik va innovatsiyalarga mos bilim berish jarayonlarini muvofiqlashtirish zarur.

Masofaviy o‘qitish talabaga ijobiy ta’sir etadi. O’zini-o‘zi tashkil etishda, bilim olishga intilishda, kompyuter texnikasi bilan o‘zaro ishlash va mustaqil mas’uliyatli vazifalarni hal qilishda uning ijodiy va tafakkur salohiyatini o‘stiradi. Masofaviy o‘qitish sifati kunduzgi ta’lim olish tartibidan sifat jihatidan qolishmaydi.

Masofaviy o‘qitish quyidagi ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta’sir etishi lozim:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- ta'lim xizmatlarida aholining ehtiyojini amalga oshirish;
- sifatli tayyorlangan mutaxassislar bilan davlat ehtiyojlarini qondirish;
- aholining ijtimoiy va professional harakatchanligini oshirish;
- tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi, o'zligini anglashi tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish;
- davlatimizning oliy maktablarida yig'ilgan bilimlar hamda kadrlarning moddiy salohiyatini saqlash va ko'paytirish;
- butun jahon hamjamiyati chegarasida ta'lim fazosining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashni o'z ichiga olgan yaxlit ta'lim fazosini rivojlantirish;
- geosiyosiy masalalarni yechish va boshqalar.

O'qitishning mazmuni. O'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibi hamda amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

O'qitishning obyekti. Masofaviy o'qitishda ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar ushbu usulda ta'lim oluvchilar uning obyekti bo'ladi.

O'qitish subyektlari. Masofaviy o'qitish subyekti o'qituvchi (pedagog) lar hisoblanadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi (pedagog) faoliyatining muhim ahamiyatini uning maslahatchilik funksiyasida hamda informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishida ta'kidlaydi.

O'qitish usullari. Masofaviy o'qitish tartibi o'z ichiga beshta umumdidaktik o'qitish usullarini qamrab oladi: informatsion-retseptiv, reproduktiv, muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalarning o'zaro harakatlari pedagogik aktlarining butun to'plamlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'qitish usuli. O'qitish maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar o'zaro harakati ta'sirining me'yoriy tizimini nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdir.

O'qitishning mazmuni. Bu o'quv axborotining tarkibi, tuzilishi, ma'lumotlari hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plamini aks ettiradi, o'qitish jarayonlari va ularning metodikasini belgilaydi, bilim oluvchilarning kasbiy malaka va idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O'qitish vositalari. Masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan ham foydalaniladi. Ular AKT ni qo'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida so'nggi erishilgan natijalarga asoslangan.

O'quv-ilmiy va moddiy asosi. O'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'quv va o'quv-yordamchi joylarni, o'qitishning texnikaviy vositalari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy materiallarni oladi.

Moliyaviy-iqtisodiy tizim. Ta'limda bozor munosabatlari qatnashchilari sifatida faqat ta'lim muassasalari ta'lim xizmati buyurtmachilari bo'lib kelmasdan, balki davlat ham buyurtmachi va iste'molchi bo'ladi.

Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy o'qitish texnologiyasidan foydalanuvchi o'quv tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, umumiy tashkillashtirishning o'ziga xosligini ochib beradi:

- uzluksiz ta'lim;
- o'quv jarayonining olib borilishiga individual yondashish;
- geografik joylashishi uzoq bo'lgan o'quv muassasalarini yetakchi oliy o'quv yurtlari bazasi markazida masofaviy o'qitishni markazlashtirish;
- tinglovchilar yo'nalishiga ko'ra o'qituvchi(pedagog)-maslahatchilarning mavjudligi.

Masofaviy o'qitishning qulayligi. Kelgusida maqsadga muvofiq ravishda laboratoriya amaliyotlarini o'tkazishni qisqartirish mumkin.

Masofaviy o'qitish nazorati. Bu o'rganilayotgan o'quv materiallarining nazariy o'zlashtirilish natijalarini tekshirishdan iborat. Test haqiqatdan ham fan bo'yicha juda ko'p savollardan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Talaba ular orasidan to'g'ri javobni tanlashi lozim. Testlar o'z-o'zini tekshirishga yaxshi mo'ljallangan va individual mashg'ulotlar uchun juda qulay.

Masofaviy o'qitish qatnashchilari, ya'ni tinglovchilar, o'quvchi-talabalar va o'qituvchi(pedagog)lar yetarli darajada tayyor bo'lishlari, ya'ni masofaviy o'qitishning o'rgatish usullaridan, vositalaridan va tashkiliy shakllaridan foydalana bilishlari kerak. Shuning uchun ham fundamental informatika AKTlarning nazariy va amaliy asosi sifatida masofaviy o'qitishning harakatga keltiruvchi kuchi va uning ajralmas qismi bo'lishi shart.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi.

Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo'laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo'ladi.

Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi mumkin. Ularning bir-biriga nisbatan proporsionalligi qat'iy bo'lmasligi, ularning o'zaro ta'siri umumiy jarayonda turlicha bo'lishi mumkin.

Modulli o'qitish – pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'laklari o'zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari **algoritm** deyiladi.

Eng kichik bo'lak pedagogik texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to'plami o'qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Modullarning o'zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demakdir. Bunda o'quv materiali bitta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismi o'lchamida, ya'ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o'qitilishi mumkin. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar (bloklar) tarzida o'qitish keng qo'llanilmoqda. Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy bo'laklariga mos keladigan bloklardan ham foydalanilmoqda. O'quv reja va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo'llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlari hamda ularning o'zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Modullashtirish va o'quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin bu borada o'quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genezisi va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik eksperimentning qat'iy xulosalariga tayanib ta'lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to'la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo'llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

8.2. Masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari

Oliy ta'lim sohasidagi o'qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimediya kabi texnologik usullar o'quvchi-talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, qo'llanmalar asosida kompyuter dasturlarini ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda. Zero, masofaviy o'qitish har qanday sohada ham jahon ta'lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so'nggi axborotlarni olish va ulardan jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'lim shakllaridan farq qiladi. U o'quvchi-talabalarni o'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy va guruh talabi asosida o'quv rejalari ishlab chiqiladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga ilmiy axborot va ma'lumotlar bo'yicha markazlashgan tarmoq orqali o'zaro axborot almashinuvini joriy etish mumkin. O'quv maydonlari, texnik va transport vositalaridan samarali foydalanish, ma'lumotlarni yig'ib bir tizimga solingan holda ifodalab berilishi va mutaxassislarni qayta tayyorlashda ham xarajatlarni kamaytirishga erishilishi kutilmoqda. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va turli samarali texnologiyalardan foydalaniladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Masofaviy ta'lim o'qituvchi (pedagog) va mutaxassislarning ham vaqtini tejab, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda moddiy manfaatdorligini oshirish bilan mustaqil ta'lim olish uchun keng sharoit yaratib beradi. Ta'lim sohasida erishilayotgan yutuqlarning jahon ta'lim tizimi doirasida almashinuvini tashkil etish, bu sohadagi yutuqlarni qo'lga kiritishni ta'minlashi shubhasizdir.

Masofaviy o'qitish usuli mutaxassis o'qituvchi (pedagog) larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Chunki o'quv materiallarining muntazam to'ldirib borilishi, ta'lim beruvchilarning ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan o'z malakasini oshirishlari va bu ko'rsatkichlarni jahon ilmi yutuqlari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etilmoqda. Bu o'qitish usuli ta'lim talabiga asosan o'quvchi-talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv-uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib, to'ldirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilishi bilan masofaviy o'qitishni bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni yechishda ham joriy etish mumkin. Ta'lim sohasiga bo'lgan fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishda qulayliklar yaratish bilan respublikamizning malakali mutaxassislarga bo'lgan talabi ham qondiriladi. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish mumkin. Xususiy tadbirkorlik bilan mashg'ul shaxslarning jamiyat hayotidagi faolligini mustahkamlab, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimida yig'ilgan ilmiy yutuqlar, mutaxassis xodimlar va ularning ishtirokida yurtimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashdek ustuvor rejalarni amalga oshirish vazifasini qo'ymoqda.

Masofaviy ta'lim berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o'tib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va jahon miqyosidagi yirik ta'lim markazlari bilan muloqotda bo'lib, ta'lim olishning yangi zamonaviy yaxlit ta'lim imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Masofaviy o'qitish geografik jihatdan turlicha joylashgan ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan edi. Lekin zamonaviy axborotlar va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada masofaviy o'qitish uslubi asosida o'qitish tez vaqt

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ichida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Masofaviy o'qitish bo'yicha Xalqaro Kengashning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda jahon miqyosida 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQShda shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda hamda ular milliy kadrlarni zamon talablari asosida tayyorlash va qayta tayyorlash afzalliklariga egadir.

Masofaviy o'qitishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. O'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi (pedagog) ilm toliblarini o'qitadi, o'quvchi-talabalar esa faqat berilgan materialni o'qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o'qitish asosida esa o'quvchi-talabalarning o'zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va o'zlarining tajribalari yordamida boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi hamda o'z o'rnida mehnat ta'limi olishini rag'batlantiradi.

2. Mustaqil ta'lim olish imkoniyatining borligi. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish boshlang'ich, o'rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tayyorgarligi turli darajada bo'lgan inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

3. Ish joyidagi katta o'zgarishlar. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

4. O'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish asosida ta'lim olish oliy o'quv yurti tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning boshqalardan ustunligi ularni eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchi (pedagog)lar bilan ta'minlashdir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o'qituvchi (pedagog) auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerak.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Masofaviy o'qitishning axborot-texnologik asoslari.

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon yoki hodisalarning holati haqidagi yangi ma'lumotlarni targ'ib etish uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari va ma'lumotlarni yetkazib beruvchi vositalar majmuidan foydalanish jarayonidir. Axborot texnologiyalari ta'limiy mahsulot va xizmatlarni tashkil etishda dastgoh hisoblanadi.

Ta'limiy mahsulot – ta'lim jarayoniga tatbiq qilish uchun ifodalangan ma'lumotlar majmuidir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi – shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi axborot texnologiyasidir.

Jamiyatni axborotlashtirish – fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini va ularning huquqlarini amalga oshirishni qanoatlantirishdagi maqbul shartlarni bajarish, davlat va hokimiyat, mahalliy va o'zini-o'zi boshqarish organlarining talablari asosida axborot resurslaridan foydalangan holda jamoat birlashmalarini tashkil etish va ular faoliyatini yo'lga qo'yishning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlaridir.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish – bu jamiyatni axborotlashtirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklar va afzalliklar bilan bog'liq o'zgarishlarda qatnashadi:

- jamiyatning har bir a'zosi haqidagi ma'lumotlarni va bilimlarni olishga yo'l ochib berishda;
- shaxs uchun intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantirishda;
- jamiyatning har bir a'zosi hayotida uning faolligi evaziga malaka oshirish xizmatlarini tezkor o'zgartirishda;
- masofaviy o'qitish o'zib ketuvchi (ilg'or) ta'limni tashkil etish va uning samarasini oshirishni ta'minlashda;
- ta'lim mahsulotlarini va xizmatlarini yaratish va tashkil etish maqsadida turli axborot texnologiyalarini qo'llashda;
- guruhlash, turlash, hisoblash, ma'lumotlarni agregatlash uchun AKT xizmatlaridan maksimal darajada foydalanishda;
- masofaviy o'qitish qatnashchilarining axborot talablarini qondirish uchun boshqaruv axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda;
- masofaviy o'qitish qatnashchilari bilan AKT vositalarining o'zaro axborot almashuvi jarayonlarida;
- fanlar bo'yicha ekspertlarning to'plagan bilimlar mahsulotlarini masofaviy o'qitishdan foydalanuvchilar tomonidan olinishi-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ning keng imkoniyatini beruvchi ekspert tizimli axborot texnologiyalarini ishga tushirishda va shu kabilar.

Bunday tashkiliy-metodik masalalarning asosiy yechimlaridan biri – bu yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, shu bilan birga, respublikaning uzluksiz ta'lim tizimida, aynivsa, birinchi navbatda, oliy ta'limda masofaviy o'qitish uslubi o'z o'rnini egallashi kerakligidadir. Dunyoda masofaviy o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha juda katta tajriba orttirilgan. Jumladan, tajribali o'qituvchilar va mutaxassislarning o'qitilayotgan kishiga yakka tartibda yordam berish, talabalar o'qishini turli uslubda nazorat qilish, ularning bilim saviyasi va malakaviy mukammalligini baholash maqsadida AKT turli variantlaridan foydalanishi tufayli talaba va o'quvchilarning o'qish sifati va mehnat unumdorligi oshadi.

Masofaviy o'qitish uslubining sifatli qo'llanilishi borasida quyidagi yo'llanmalar shakllanmoqda:

O'qitilayotgan borliqni markazlashtirish. Respublikamiz va xorijlik olimlar hamda mutaxassislarning bilim va tajribalarini qo'llash, zamonaviy o'quv qurollaridan foydalanish e'tiborda tutiladi. Bunda turli o'quv manbalaridan foydalanish, talabalarni axborot bilan ta'minlash, bu axborot esa, o'z navbatida, butun dunyo mutaxassislari bilimlaridan, elektron kutubxonalardan olingan axborotlardan foydalanish talaba va o'quvchilar hamda ularning o'qituvchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'qituvchiga talabni kuchaytirish. Ta'lim jarayonining standart holda jamlanishi, o'qituvchi(pedagog)larning bilim darajasini oshirish majburiyatini yuklaydi. Bu uslublar ularning ish natijasi va bilim darajasining ko'tarilishiga yordam beradi.

Erkin va standartlatirilgan ta'lim berish jarayonining ta'minlanishi, uzluksiz monitoring imkoniyati, o'quv jarayonlarining to'g'ri nazorat qilinishi va boshqarilishi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va o'quv yurtlari tomonidan o'qituvchi va talabalarning bilim saviyasining tekshirilishi (ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchilarning harakatlarini nazorat qilish, bunga talabaning faolligi va o'qituvchi ishining unumliligi, talabalarni attestatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq amallar ham kiradi) masofaviy ta'limda ham yo'lga qo'yilishi shart. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlarining samaradorligini oshirishda ham bunday tadbirlar amal qiladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O'qitish turining egiluvchanligi. Qulay vaqtda shug'ullanish mumkinligi, qulay joyda va qulay tezlikda o'quvchi-talabalarning bilim qabul qilishining turli shakllarini qo'llash mumkinligi, ular tomonidan modellashtirish va ko'rgazmali vositalarni joyida qo'llash, axborot va bilimlarni yetkazishda ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan unumli foydalanish ikoniyatlarining mavjudligi ta'limning ushbu shakli egiluvchanligini ifodalaydi.

O'qituvchining roli va uning pedagogik imkoniyatlari. O'qituvchining o'quvchi-talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvining turli shakllarini qo'llash va har bir o'quvchi-talabaning bilim darajasi va tayyorgarligini har tomonlama o'rganish sharoitining mavjudligida ko'rinadi.

O'quvchi-talabaning bilim va tadqiqot motivlari hamda stimullarini rivojlantirish. O'quvchi-talabaning o'qituvchi(pedagog)ga va o'zaro muloqotida ishonchsizlik hissiyoti bilan bog'liq psixologik to'siqlarni yo'qotish, talabaning intellektual va ilmiy imkoniyatlarini hamda o'zini-o'zi tarbiyalash va takomillashtirish shart-sharoitlarini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, bilim oluvchilarning aqliy va jismoniy mehnati uyg'unligini ta'minlaydi.

Iqtisodliligi. Bu tizim o'qitishdagi kechikishlarni kamaytirishni ta'minlaydi. O'qitish xonalaridan foydalanish, yo'l xarajatlari va taklif qilishga malakali o'qituvchi(pedagog)lar uchun ularning asosiy ish joyidan haq to'lash xarjatlarini kamaytiradi. Ular o'z bilimlarini masofadan o'qitish shaklida uzatishlari mumkin. Sog'lig'i, ijtimoiy va moddiy ta'minlanganligidan qat'iy nazar, bilim olishning keng imkoniyatlari yaratilib, ijtimoiy tenglik yuzaga keladi.

O'qitish doirasida musobaqa muhitini rasmiylashtirish. Masofadan o'qitish texnologiyasi bu – jamiyatni axborotlashtirish umumiy oqimi va yo'llari bilan jipslashgan bo'lib, masofaviy o'qitishning texnik vositalarini axborotlashtirish tizimlari va oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish jarayonini avtomatlashtirish tizimlari bilan zamonaviy axborotlashtirish texnologiyasi asosida birlashuvini ta'minlaydi.

Masofaviy o'qitish usulidan foydalanishning kamchiligi – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita muloqot va psixologik birlikning chegaralanganligidir.

Umuman olganda, masofaviy o'qitish tizimi o'quvchi-talabalarda ta'lim tizimidagi bo'layotgan dunyoviy o'zgarishlar, texnik vositalardan foydalanish yo'llari, uning qanchalik afzallik tomonlari va, shu bilan birgalikda, qanday kamchiliklari kamchiliklari mavjudligi haqida ma'lumot beradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

IX BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI QO‘LLASH BILAN BOG‘LIQ TASHKILIY-USLUBIY ISHLAR

9.1. Ayrim pedagogik va psixologik tajribalar

Uzluksiz ta’lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta’lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta’lim–tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi va javobgarlini his eta oladigan, raqobatbardosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish bilan uzviy ravishda bog‘liq.

Ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab qiladi. Bunday munosabatlarni tashkil etmasdan turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, unda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, bilim oluvchi shaxsini hurmat qilish kabilardan iborat o‘quv faoliyati tashkil etiladi.

Pedagogning o‘quvchi yoki talabaning shaxsiga bo‘lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg‘urish, shaxsga bo‘lgan yuksak ishonch, o‘zaro hamkorlik, mukammal muloqot madaniyati, ixtiyoriylik va erkinlik, rag‘batlantirish va kamchiliklarga chidamlilik hisobiga amalga oshadi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning faolligi va teng huquqliligi talab etiladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash – bilim beruvchi va bilim oluvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarda tanlash va o'z fikri hamda nuqtai nazarini erkin bayon etish sharoitining yaratilishiga olib keladi. Bu O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni –Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan me'yorlarga ham muvofiq keladi.

Yangi munosabatlarning o'zida xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchilarning mustaqilligi va ijodiy o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan ularni belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, qiziqtirish, ehtiyojlarni hisobga olish va erkin hamda faol mehnatga undash tufayli amalga oshirilishi bilan xarakterlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi. Ular xilma-xildir. Verbal (nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol-javoblar, bahs-munozara, muzokara, axborot va ma'lumot berish, kengashish, maslahatlashish, nasihat yoki tanbeh berish kabilar), noverbal (imo-ishora, qo'l va gavda harakatlari yordamida ma'lum ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlash), vizual (ko'rgazmalilik elementlari-plakatlar, jadvallar, suratlar, diagrammalar, sxemalar, yozuv va tasvirlar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, video lavhalar, jonli va jonsiz obyektlar, turli buyumlar va boshqalar), audio (magnit yozuvlari, lingofon va radio vositalar, musiqa va nutqiy asarlar kabilar), tabiiy (odam, hayvon, o'simlik, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, inshootlar kabilar), o'quv anjomlari (kitob, atlas, xarita, reaktivlar va boshqalar) kabi vositalar farq qilinadi va ular yakka yoki omixta tarzda keng miqyosda qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mexanizmini taniqli pedagoglar-J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov quyidagicha bayon qilishgan:

1. Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma'ruza. Adabiyotlar tavsiya etish.

2. Yangi texnologiya asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Ular orqali o'qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

3. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish:

- seminar;
- trening;
- individual maslahat berish;
- ko'rgazmali darslar tashkil etish.

4. Yangi texnologiya asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.

5. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodika kengashida, pedagogika kengashlarida chiqishlarini tashkil etish.

6. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materillar, vositalar xonasini tashkil qilish.

7. Yangi texnologiya bo'yicha ishlashning afzalliklarini, o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanishini oshkor etib borish.

8. Ilg'or, innovator pedagoglardan innavator pedagogik jamoani shakllantirish.

9. Yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Har bir ta'lim muassasasi o'z pedagogik jamoasining umumpedagogik tayyorligi, istak va xohishlariga muvofiq pedagogik texnologiyani joriy etish strategiyasi va taktikasini o'ziga moslab rejalashtirishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun o'qituvchilar bilan quyidagi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi:

- yakka tartibda (individual) ishlash (ta'lim muassasasida, kutubxonada, uyda, ma'rifiy tadbirlarda);
- juft bo'lib ishlash (o'quv yurtida);
- kichik guruhlarda ishlash (ta'lim-tarbiya muassasalarida, hududiy tashkilotlarda);
- katta guruhlarda ishlash (mintaqaviy ko'lamda).

Tajriba almashish, ilg'or pedagogik faoliyatni ommalashtirish, anjumanlarda qatnashish, interfaol mashg'ulotlar tashkil etish va shular kabi ko'rgina tadbirlar ham amalda tez-tez qo'llaniladi.

Bularda quyidagi tartib-qoida va yo'riqlarga rioya qilinishi lozim:

- vaqt rejimiga bo'ysunish;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- vaqtdan unumli foydalanish;
- o‘zgalar fikri bilan hisoblashish;
- boshqalarning tajribasi va mulohazalariga hurmat bildirish, hamkorlik va hamjihatlik;
- keng fe’llilik va tanqid qilmaslik, tanbeh bermaslik;
- mulohazalilik;
- fikrni lo‘nda bayon etish va boshqalarning fikriga diqqat bildirish;
- erkin munozara vaziyatiga bo‘ysunish;
- o‘zaro munosabatda samimiylik hamda xolislik va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim pedagogik va psixologik tajribalarni e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

O‘zlashtirish-shaxsning individual xususiyatiga bog‘liq bo‘lganligi uchun o‘quv jarayonini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish, diqqatni to‘plash, xotirani mashq qildirish, xarakterni tarbiyalash, axborot olishning yakka tartibli usulini keng qo‘llash zarur.

Shaxsning individual va psixologik diagnostikasi ma’lumotlarini amaliyotda hisobga olish va o‘quv faoliyatini takomillashtirishning intensiv usullaridan keng foydalanish, bilim oluvchilarning o‘zlashtirish jarayonini tekshirish va nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga bo‘ysunish ijobiy natija beradi. Ta’lim berish va tarbiyalash jarayonida shaxsning biologik, fiziologik, genetik, sotsial (ijtimoiy) jihatlarini o‘rganib pedagogik tadbirlarni tashkil etish va o‘qitish mexanizmini ishga tushirish, avvalo, samara, so‘ngra sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Mashg‘ulotlar turlarining an’anaviy ko‘rinishlari bilan bir qatorda noan’anaviy tashkiliy tadbirlarni keng yo‘lga qo‘yish ta’lim oluvchilarning sezilarli darajadagi rivojlanishiga olib boradi. Bunday o‘zgarishlar miqdor va sifat kesimlarida, vaqt birligi davomida salmoqli natija beradi. Mashq qilish tufayli ko‘rish va eshitish sezgilari evaziga bo‘ladigan o‘zlashtirish natijalarini oshirish pedagogik tajribada isbotlangan.

O‘qitishning asosiy tashkiliy shakli-dars va uning uzviy hamda mazmuniy davomi bo‘lgan darsdan tashqari ishlar xilma-xil variantlarda amalga oshirilganda ta’limning sifat va samaradorligi proporsional ravishda ko‘tariladi. Bunda motivatsiyaning ahamiyati katta. Motivatsiya-shaxsni o‘qishga, ko‘nikma va malaka egallashga hamda

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltiruvchi (undovchi) turli sabablarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq, pedagogik-psixologik tashhis xizmatining keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi sodir bo'ldi. Salbiy va ijobiy motivlar, kamchilik va yutuqlar, maqtov va e'tiroz, tanbeh va rag'bat nisbatlarining shaxs o'lchamida nomuvofiq baholanishi yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Shuning uchun,

- inson farzandi asosiy tarbiyani oilada olishini;
- dastlabki ta'lim va tarbiya elementlari bolaning murg'akligida shakllanishini;
- maktabgacha ta'lim turida berilajak ma'lumotlar va tarbiyaviy fikrlar faqat oilaning shu boradagi fondiga yordamchi ekanligini;
- individual yoki tabaqalashtirilgan ta'lim ommaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanligini;
- o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi eng yaqin va samimiy ta'sir funksiyasi kelgusi yutuqlarning garovi bo'lishini;
- ta'lim va tarbiyadagi muvaffaqiyatlarning ichki (shaxsiy) va tashqi (atrof-muhit) omillarga bog'liqligini;
- bolalik, o'smirlik, o'rta va katta yoshlik hamda keksalik davrlaridagi aqliy faoliyat bir-biridan jiddiy farq qilishini;
- balog'at fazasida inson organizmining fiziologik nuqtai nazardan keskin o'zgarishlarga uchrashi va buning oqibatida ta'lim va tarbiya omillariga bo'lgan munosabatning ijobiy yoki salbiy taraflarga o'zgarishi mumkinligini;
- ta'limdagi muvaffaqiyatlar shaxsning o'z muammolari, aqliy va jismoniy salomatligi, oilaviy ahvoli, jamoatchilik omillari, moddiy ta'minoti, qiziqishi va o'qishga tayyorgarligi, qobiliyati, hayotda orttirgan belgilari, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, motiv va hissiy tuyg'ulari kabi ko'pgina holatlarga bog'liqligini pedagogik faoliyatda diqqat markazida tutgan holda ishlash, o'qitish va tarbiyalash lozim.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, obyektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin, ayniqsa, ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli.

Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Odamning shaxs sifatidagi eng asosiy belgisi-uning ijtimoiyligidir. Ong va psixik jarayonlar insonning olamni va o'z-o'zini anglashiga xizmat qiladi. Bunda birinchi va ikkinchi signal tizimlari uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Muloqot va fikrni og'zaki yoki yozma ifodalash va masofaga uzatish inson individining eng katta yutug'idir. Individ ijtimoiy mavjudot darajasiga ko'tarilganda shaxsiy sifatlar mukammallashadi.

Shaxsning eng xarakterli jihati – uning individualligidir. Individuallik shaxs psixologik xususiyatlarining qaytarilmaydigan (betakror) birikmasi bilan ifodalanadi. Shaxsga ta'sir qilayotgan barcha omillar uning umri davomida moddiy va ma'naviy dunyoni hamda o'zligini anglashiga, ularga javob reaksiyasini namoyon qilishiga va axborotlarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatn o'zgaruvchanlik xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligini va o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni uning dinamik strukturasi(tuzilmasi)ni hosil qiladi.

Shaxsning harakatlantiruvchi kuchlarini va uning psixologik tuzilishini hamda faollik manbalarini 3 asosiy omil bilan bog'lab o'rganiladi:

1. Tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit.
2. Shaxsga umri davomida tizimli tarzda va uzluksiz maromda beriladigan ta'lim-tarbiya.
3. Odamga tug'ma ravishda beriladigan nasliy xususiyatlar.

Psixologlar ta'lim-tarbiya jarayonlarining obyektlari va subyektlari hisoblanadigan shaxs xaritasining bir qator elementlarini e'tirof etadilar.

Psixologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vokal, artistlik, badiiy, texnik, matematik, adabiy, ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik, axloqiy, huquqiy jihatlarni, xarakterning umumiy xislatlari sifatida esa insonparvarlik, vatanparvarlik qat'iylik, soflik, g'ayratlilik, faollik, uyushqoqlik, jamoatchilik, optimizm, ko'ngilchanlik kabi individual xususiyatlarni qayd etishgan.

Psixik jarayonlar bilan bog'liq individual xususiyatlar ta'lim jarayonida va tarbiyalanishning turli bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bular – emotsional muvozanatlilik, diqqat-e'tiborlilik, xotiraviy mustahkamlik kuchli emotsiyalar, tanqidiy tafakkur, farosatlilik, ijodiy xayol, irodalilik, maqsadga intiluvchanlik, matonatli-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
lik, qat'iyatlilik, intizomlilik kabi sifatlar bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy jihatlardir.

Insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko'rish a'zosi orqali	- 80-85 %
Eshitish a'zosi orqali	- 9-13 %
Hid bilish a'zosi orqali	- 2,5-3,5 %
Teri sezgisi orqali	- 1,5-3 %
Ta'm bilish a'zosi orqali	- 1-2 %
Jami	- 100 % gacha.

Turli sezgi organlari ishtirokida o'zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi:

O'qilganlar	- 10 %
Eshitilganlar	- 20 %
Ko'rilganlar	- 30 %
Ko'rilgan va eshitilganlar	- 50 %
Gapirilganlar	- 80 %
Gapirilgan va amalda bajarilganlar	- 90 %.

Eslab qolish va o'zlashtirish bilan bog'liq unutish, xotiraga joylash, qismlarga ajratib yodlash, mexanik yoki anglab yodlash, xotira mashqi suggestopediya (bir shaxsning boshqasiga psixik ta'sir ko'rsatishi), suggestiya(lotincha-ishontirish), gipnopediya(uyquda o'qitish) kabi ko'pgina ta'lim beruvchi va tarbiyalovchi operatsiyalar ham pedagogik tizimga tez kirib kelmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'lgan ta'lim mazmunini davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar asosida yetkazishga xizmat qiladi. Har qanday texnologiya ta'lim maqsadiga mos sabab bilan yaratiladi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq ko'pgina tashkiliy-uslubiy muammolar ham borki, bugungi kunda ularni, albatta, e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bular-o'qituvchining kasbiy salohiyati va metodik mahorati, poyindor bilimi, o'quv-metodik ta'minlanganligi, malakasini oshirishi va jahon pedagogik tajribasidan xabardorligi, fuqarolik mas'uliyati, axborot olamining benihoya kengayib borayotganligi, ta'lim muassasalarining moddiy va ma'rifiy

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

imkoniyatlari, bilim va kasb-hunar egallovchilar kontingentning dunyoqarash ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalardir. Eng muhimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish shiori ostida va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bahonasida tarix va ijtimoiy hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tib va yashab kelayotgan an'anaviy o'qitish metodikasi, metod va usullaridan voz kechib yubormaslikdir.

Biroq o'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir.

9.2. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari

Pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan har qanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruratini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonida amalga oshiriladigan tashkiliy va uslubiy tadbirlar orasida tajriba-sinovlarni tashkil qilish va o'tkazish muhim bosqich hisoblanadi.

Shuning uchun ushbu tajriba-sinovlar xususida qisqacha (muxtasar) ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda, aniq maqsad sari yo'naltirilgan yangi yo'nalish, mazmun, usul, vosita va yangi ta'lim-tarbiyaviy muhit yaratishdan iboratdir.

Masalani aniq tasavvur qilish uchun asosiy tushunchalarning ta'riflarini aniqlab olishimiz lozim.

Tajriba-sinov —bu shunday tafakkur metodi bo'lib, uning yordamida tabiiy yoki sun'iy tarzda yaratiladigan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan jarayonlar tadqiq qilinadi, muammolarni hal qilishning yangi vositalari izlanadi va amalda sinab ko'riladi.

Pedagogik tajriba-sinov-bu ilmiy-pedagogik tafakkur metodi bo'lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar va uslubiy yondashuvlar orasidagi sabab-oqibatli aloqadorlikni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkoniyatini beradigan tadbirlardir.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, uning tizimlarini integratsiyalashtirish va ular o'rtasidagi eng muhim qonuniy bog'lanishlarni aniqlashdir.

Empirik metod-tajriba-sinov tadbirlariga oid ma'lum bo'lgan ilmiy-nazariy, o'quv-uslubiy, ilmiy-ommabop, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va mavjud g'oyalar, farazlar hamda tajribalarni tahlil qilish evaziga tajriba-sinovga daxldor modellar va bajarilishi kerak bo'lgan ishlar loyihasini yaratish, sinab ko'rish va amaliyotga tatbiq qilish metodidir.

Tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchliligi va kafolatlanganligi muhim ko'rsatkichdir. Tajriba-sinovlarni amalga oshirish natijasida har xil kutilmagan xulosa va natijalar olinishi mumkinligi nazarda tutilishi lozim. Buning sababi shundaki, tajriba-sinovlar yakuni hamma vaqt ham kafolatli natijalarni beravermaydi. Tajriba-sinovlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni o'tkazuvchining uquv va malakasi, metodik mahorati, bilim va tajribasi, respondentlar (tajriba-sinov ishtirokchilari) ning soni va ularning bu tadbirlarga munosabatlariga bog'liq.

Tajriba-sinovlarga kirishishdan oldin shu sohaga doir eng maqsadga muvofiq ish metodini belgilab olish muhimdir. Bu metodlar, asosan, yuqorida aytilgan nazariy hamda empirik tajribalarga asoslangan ikki asosiy guruhga bo'linadi.

Tajriba-sinovga mavzu qilib olingan muammoga bog'liq barcha me'yoriy va metodik hujjatlar, tavsiyalar, yo'niqnomalarni o'rganib chiqish zarur hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish, og'zaki va yozma so'rovlar o'tkazish, anketa va test savollariga javoblar olish, turli ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarga yordam beradi.

Bunday ishlarni tashkil etish va o'tkazish borasida pedagogik texnologiya asoslariga doir o'quv qo'llanmasini davlat tilida birinchilardan bo'lib yaratgan mualliflar – J.G'.Yo'ldoshev va S.A. Usmonov eng asosiy tasniflarni taklif etganlar.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinov dasturini tayyorlash.
2. Dasturni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish:

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- tajriba-sinov ishlarining moddiy bazasini yaratish;
- boshqaruv vazifalarini taqsimlash;
- kadrlarni bu jarayonga maxsus tayyorlashni tashkil qilish.

3. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish.

4. Tajriba-sinovda ishtirok etgan pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

5. Ilmiy rahbar yoki konsultant izlash, tanlab olish va ularni tajriba-sinov ishlariga jalb etish.

Tajriba-sinov dasturini tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Taklif qilinayotgan pedagogik texnologiyaning dolzarbligini asoslash. Uning asosiy mazmunining bayoni.

2. Tajriba-sinov obyektini aniqlash:
- pedagogik jamoa;
- o'quvchilar;
- tarbiyaviy ish tizimlari va boshqalar.

3. Tajriba-sinov predmeti.

4. Tajriba-sinov maqsadini talqin etish:
-yangi metodika;
-yangicha tabaqalashtirish;
-yangi dastur yoki o'quv rejasi;
-ma'lum texnologiyaning yangicha varianti;
-yangi metodik ishlanma va hokazo.

5. Tajriba-sinov vazifalarini umumiy hamda xususiy maqsadlar bo'yicha aniq belgilash.

6. Tajriba-sinovning aniq metodikalari va metodlarini tanlab olish.

7. Tajriba-sinov muddatini belgilash.

8. Tajriba-sinov bosqichlarini belgilash.

9. Talab qilinadigan vaqt miqdorini belgilash.

10. Tajriba-sinovning aniq bazasini aniqlash.

11. Tajriba-sinovdan kutilgan natijalarni baholash mezonlarini tanlab olish.

12. Kutilayotgan natijalarni belgilash.

13. Tajriba-sinov dasturini ekspertiza qilish tartibini belgilash.

14. Tajriba-sinov jarayoni natijalarini kuzatib borish, nazorat qilish qoidalarini belgilash.

15. Tajriba-sinov natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilash va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash uchun uning uzluksiz kuzatilishi-monitoringini tashkil etish lozim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

X BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT UYG'UNLASHUVINING ISTIQBOLLARI

10.1. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan yagona va uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etuvchi 7 ta ta'lim turi-maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim kabilar orasida oliy ta'lim turi malakali mutaxassislar va xalq xo'jaligi hamda jamiyat hayotining turli jabhalarida xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashning samarali «o'chog'i» sifatida alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bu ta'lim turiga alohida va jiddiy e'tibor berilishi hayotiy zaruratimiz darajasiga ko'tarilgan. Oliy ta'limning mazmuni va uning hajmini standartlashtirish masalasi 2001-yilning 16-avgustida Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan rasmiy vazifa tarzida tasdiqlandi. Shundan keyingi o'tgan tarixan qisqa vaqt mobaynida ushbu ta'lim turi bilan shug'ullanuvchi muassasalar va ularning mutasaddilari tomonidan ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini yaratish, o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini barpo etish, darslik va boshqa o'quv adabiyotlarining yangi avlodini nashrga tayyorlash va ularni o'quv amaliyotiga kiritish kabi ishlar shu jumladandir. Ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, ta'limning amaliy tamoyillarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini intensivlashtirish, ta'lim texnologiyalarini mukammallashtirish, ta'lim va tarbiyaning birligini kuchaytirish, xususan, ushbu ta'lim turining mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Bunday ulkan vazifalarning maqsadga muvofiq tarzda bajarilishi ko‘pgina omillarga bog‘liqdir. Ularni ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro‘yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy, ijtimoiy, ma’naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san’at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta’lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so‘z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o‘rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish-mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo‘ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo‘nalish ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan yangi avlodni shakllantirishni ta’minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar faqat mavjud ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta’minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlar sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti, ta’limga oid xizmatlarning iste’molchisi va ularning yaratuvchisi;
- uzluksiz ta’lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;
- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste’molchisi;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida ta'kidlab o'tganidek: «Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasa, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashtirilmasa, albatta, bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi».

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

2. Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.

3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.

4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.

5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.

6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.

7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llash.

8. Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.

9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, ya'ni ijtimoiy va

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differensiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differensiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differensiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha subyektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdan, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdan, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishla-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

shiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik tex-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.
nologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar konsepsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashxisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;
- o'quv jarayoniga elektron pochtadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarning bilimlarini obyektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil ta'lim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilyapti, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi alohida tahsinga loyiq.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «subyekt-subyekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'quv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir.

Respublikada shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

10.2. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o'tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini qat'iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra «pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir».

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zgarishi muqarrardir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ydi. Chunonchi, Milliy dastur ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy istiqlol mafkurasining mohiyat-mazmuniga to'liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, o'quvchi-talabalarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

Bugungi kunga kelib, o'qituvchi (pedagog)lar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika (uslubiyat) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig'indisidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda ushbu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi.

Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Endilikda ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda «O'rganish»ning birlamchi jarayonlarini an'anaviy metodika va o'qitish vositalari qolipiga sig'may o'qituvchi (pedagog)ning individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining tarkibiy komponentlariga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular zamonaviy pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv voqelikka aylandi. Axborotlashtirish esa bu jarayondagi inqilobiy «burilish»dir, ya'ni, ta'lim axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi-talaba-kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarning ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish – har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, bugungi kun yoshlari texnika va texnologiya, iqtisodiyot asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi.

Keng ko'lamli va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik talaba yoshlar ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishining zaminidir.

Talabalar ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti bu – faoliyatdir. Demak, pedagogning asosiy vazifasi ushbu faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo'nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Axborot ta'minotining haddan ziyodligi ham vazifani ijobiy hal etmaydi. Shu sababli axborot ta'minotini pedagogik jihatdan boshqa-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

rish, ularning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va ijodkorlikka erishish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarishning predmeti inson omili bo'lib, u o'ziga xos ta'lim-tarbiya ishlari va uni boshqarish, ijodiy masalalarni yechish metodikasi va algoritmini o'rganishni ko'zda tutadi. Talabalar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, tayyorlash jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuv tizimi shaxs ijodkorligi va yaratuvchanligini boshqarishning bosh masalalaridan biri hisoblanadi va u o'z ichiga zaruriy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, uni qayta ishlash, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish, reja bo'yicha ijodkorlik ishlarini tashkil qilish, uning amalga oshishini nazorat qilish, ushbu tizim faoliyatini tartibli olib borish va maxsus yechimlar qabul qilish kabi bosqichlarni oladi.

Har qanday boshqarish jarayoni, avvalo, maqsadni belgilash, ya'ni maqsadni to'g'ri qo'ya bilishdan boshlanadi. Bu esa boshqarish obyektining ayni paytdagi holatini tahlil qilish va uning rivojlanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Ilmiy-texnik ijodkorlikni maqsadli pedagogik boshqarish mohiyatiga ko'ra obyektiv tavsifga ega, unda inson shaxsini kamol toptirishning obyektiv qonunlari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari maqsadli boshqarish tafakkur mahsuli va ular shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shakllanadi. Maqsad, o'z navbatida, pedagogik obyektdagi o'zgarishlarning yo'nalishlari, boshqarish faoliyatini uning asosiy turlari va ularning mazmunini belgilab beradi.

Maqsadli pedagogik boshqarish o'z mazmuniga ko'ra vaqt omili va sharoitiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi. Yo'nalish mazmuni esa, shartli ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy va ilmiy-texnikaviy maqsadlar sifatida guruhlanadi.

Ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim sharti maqsadli pedagogik boshqarishda qatnashuvchi shaxsni yuqori darajadagi obyektiv axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Obyektiv axborotgina maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita bo'la oladi.

Insonning miyasi turli xil axborotlarni turli darajada qabul qilish qobiliyatiga ega, bu esa ma'lumotlarni yengil, erkin va qiziqarli uzatishni talab etadi. Texnik vositalardan mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida samarali foydalanish didaktika muammosi hisoblanib, aso-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

san, ko'rsatmalilik prinsipini ta'minlash borasidagi faol harakat, usul deb baholanadi.

Ta'lim jarayonida ko'rsatmalilik zarurati bilish jarayonining xarakteri, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagog va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi va tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi, shuningdek, o'qitish jarayonida ham olg'a siljish bo'lmaydi. Demak, ko'rsatmalilik faqat ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonli motivni ham yuzaga chiqaradi, his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasida o'qitishni texnik vositalarsiz ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri – axborotlarni o'quvchi-talabalarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi

Shunday qilib, fanning rivojlanishi bilan ilmiy-texnik taraqqiyot bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta'minlash muayyan darajada boshqarish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ammo o'quv mashg'ulotlarini ta'lim metodlari bilan boyitish ta'lim tizimi va mantiqini buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quvchi-talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu ma'lumotlar esa fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi ko'p jihatdan uning axborot ta'minotiga ega bo'lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimli hamda uzluksiz bo'lishini taqozo etadi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

XULOSA

Ma'rifatli va madaniyatli dunyonig ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo'lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi. Zero, shaxs mansub bo'lgan muhitda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ham alohida o'rni bor. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar mamlakat iqtisodiyotini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon beradi. Mazkur masalaning dolzarbligini ta'kidlab, Prezidentimiz I.A.Karimov "-O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega", degan edi. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimizning jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. O'quvchi va talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligini ta'minlab berish uchun yangidan-yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'z-da tutadi.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatining samarali shakl va us-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

lublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O‘quv-tarbiya jaryonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunda barcha turdagi mashg‘ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni o‘ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o‘rgatadi. Mashhur ingliz adibi J.Bernard Shou topib aytganidek, “Bilimga eltuvchi yagona yo‘l, bu – faoliyatdir”. Ana shunday faoliyatning o‘quvchi va o‘qituvchi mehnati ko‘rinishidagi turlari omixtalashganida kutilganidan ziyodaroq natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘qitishning asosiy tashkiliy shakli bo‘lgan dars va darsdan tashqari ishlar, ular qanday ko‘rinishda (an’anaviy yoki noan’anaviy darslar, sinfdan va maktabdan tashqari o‘quv-tarbiya tadbirlari, ma’ruza yoki amaliy mashg‘ulotlar) tashkil etilishidan qat’iy nazar, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik va ma’rifiy-ma’naviy jihatdan to‘laqonli bajarilganidagina yuksak pedagogik samarani berishi mumkin. Bunda, albatta, bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadigan mashg‘ulotlar ko‘zda tutiladi. Buning uchun esa ta’lim va tarbiya beruvchining mukammallik darajasidagi pedagogik mahorati va kasbiy salohiyati talab qilinadi. O‘t-dalali almashlab ekishni dehqonchilik madaniyatiga dunyo amaliyotida birinchi bo‘lib tavsiya etgan taniqli tuproqshunos olim R.Vilyamsning “-Yomon yer yo‘q, balki undan hosil undirish yo‘lini bilmaydigan uquvsiz dehqonlar bor”, degan purhikmat iborasiga pedagogik o‘zgarish kiritib aytadigan bo‘lsak, “-Yomon o‘quvchi (bilim oluvchi) yo‘q, balki unga o‘qish-o‘rganishning maqbul yo‘lini ko‘rsata olmaydigan noshud o‘qituvchi (pedagog-tarbiyachi) largina bor”.

Kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o‘qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. Bilimsizda metodik mahorat bo‘lishiga ishonib bo‘lmaganidek, bularning har ikkisiga ega bo‘la turib, odamiylikdan bexabar shaxsning ham o‘qituvchiligidan ne foyda? Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat ham yuqorida tilga olingan uchlikning tugalligisiz sxolastika botqog‘iga botib turaveradi.

Ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi-juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lganligi uchun ham bu borada yagona va qudratli tavsiya yoki yo‘l-yo‘riq berib bo‘lmaydi. Hattoki, zamonaviy pedagogik yoki

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham foydalana bilishning o'ziga xos va o'ziga mos mezonlari mavjudligini unutmaslik kerak. Noan'anaviylik, innovatsiya yoki interfaollik bayrog'ini baland ko'taruvchilar ham o'qitishning ming (balki, million) yillik an'ana va tajribalari, to'plangan ulkan tajribaviy zaxirasini inkor etmasliklari lozim. Eski va yangining o'zaro munosabati, bazis va ustqurmaning mutanosibligi, an'ana va tashabbusning kelishuvchanlik tamoyillarini unutmaslik kerak.

O'qituvchi(pedagog)ning mehnatiga faqat uning tasarrufidagi shaxslarning uquv, ko'nikma, malaka va bilim sifatiga qarab baho berilishi lozim. Ha, aynan bilim sifatiga (bilim darajasi ham emas, qo'yilgan reyting ballari ham emas, o'zlashtirish ko'rsatkichlari ham emas!) qarab baholash odilona ish bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va o'qituvchi(pedagog)lar mehnatining foydali ish koeffitsientini oshiradi.

Boshqacha aytganda, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv va rang-barang pedagogik faoliyatdan iborat xizmat ko'rsatish sanaladi.

Ayni davrda, zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul, metod va vositalarlarni xilma-xillash, ta'lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish-bular hammasi ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya'ni oxiri yo'q, deyiladi. Shunday bo'lgach, pedagogik texnologiyalar ham, pedagogik mahorat ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko'p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo'lsa-shunchalik kamdek tuyulaveradi. O'qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir. O'qituvchi (pedagog) larning faqat ana shu taxlitdagi faoliyati oxir-oqibatda yuksak ijtimoiy buyurtmaning bajarilishiga olib keladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.

3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.

4. *Karimov I.A.* Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.

5. *Karimov I.A.* O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.

6. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999 y.

7. *Karimov I.A.* O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.

8. *Azizxo'jaeva N.N.* Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003.

9. *Bahrieyv A., Bahrieyva N.* Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. -25-28 b.

10. *Jumaev A.* Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. -17-20 b.

11. *Беспалко В.П.* Педагогика и прогерссивные технологии обучения. – М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.

12. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2001, № 3. -69-71 b.

13. Педагогика профессионального образования. *Под ред. В.А.Сластенина.* -М.: Академия, 2004.

14. *Питюков В.Ю.* Основны педагогической технологии. –М.: Гном-Пресс, 1999.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

15. *Поулсен С.* Введение в современную методику преподавания. – Бишкек: Кесип, 2007.

16. *Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q.* Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.

17. *Sayidahmedov N.* Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

18. *Селевко Г.К.* Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.

19. *Tolipova J., Numonova N.* Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2002, № 3. -20-24 b.

20. *Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A.* Pedagogik texnologiya asoslari. / Toshkent: O'qituvchi, 2004.

21. *Xo'jayev N.X., Xodieyv B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T.* Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2002.

22. *Qudratov R.* O'quv faoliyati-ijtimoiy hodisa. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2002, № 4. -58-61 b.

23. *Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M.* Pedagogika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2006.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

ILOVALAR

1-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BILAN O‘QITISHDAGI USLUBIY TIZIM



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

2-ilova

O‘QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING TAMOYILLARI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

O‘QITISH PIRAMIDASI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

4-ilova

DIDAKTIK SAKKIZBURCHAK
O‘qish(o‘rganish)ning maqsadi



5-ilova

ZAMONAVIY O‘QUV-USLUBIY MAJMUANING ASOSIY KOMPONENTLARI:

1. Davlat ta’lim standartlari.
2. O‘quv rejasi.
3. Fan bo‘yicha namunaviy dastur.
4. Fan bo‘yicha ishchi o‘quv dasturi.
5. Texnologik xarita.
6. Dars o‘tish kalendar rejasi.
7. Ma’ruzalar matni.
8. Amaliy mashg‘ulotlar tafsiloti va mazmuni .
9. Asosiy tayanch tushunchalar.
10. Masala – mashqlar va testlar.
11. Fan bo‘yicha oraliq, joriy, yakuniy baholash mezonlari.
12. Yozma ishlarni baholash mezonlari.
13. Fan mavzulari bo‘yicha tayyorlangan slaydlar, chizmalar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar.
14. Amaliy ish o‘yinlari.
15. Kurs ishi mavzulari.
16. Referat mavzulari.
17. Bitiruv malakaviy ish mavzulari.
18. Yozma ish savollari va boshqalardan iborat.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING KLASSIFIKATSIYASI

- Insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiya (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondashuv, demokratik boshqaruv, ochiq insonparvarlikka yo'naltirilgan mazmun).
- Ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya. (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kerakli tushunchalar, kommunikativ o'qitish).
- O'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqalarga asoslangan pedagogik texnologiya. (programmali o'qitish, differensiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish guruhli va jamoaviy o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya).
- O'quv materialini metodik takomillashtirish va didaktik rekonstruksiya qilishda pedagogik texnologiya. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).
- Xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiya.
- Muqobil texnologiya.
- Umumiy politexnologiya.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

7-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BILAN XUSUSIY METODIKA ORASIDAGI AYRIM FARQLAR

Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
Ta'riflar	Pedagogik texnologiya – insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat	Metodika – ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning sifatli bo'lishini ta'minlash
Qo'llash miqyosi	Butun ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlari o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alohida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'lim va tarbiya texnologiyasi, ta'lim menejmenti va marketingi, ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi, yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olinishi ta'minlanadi	Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bunda natijalar har kishida har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijaga erishadilar
Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

8-ilova

MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PEDAGOGIK YECHIMLARI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

9-ilova

KO‘RGAZMALILIK METODINING ASOSIY KOMPONENTLARI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

10-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHIDA BOSQICHMA-BOSQICH AQLIY HARAKATLARNI SHAKLLANTIRISH



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

11-ilova

MAVZUNI KOMPLEKS LOYIHALASHTIRISH METODIKASINING TARKIBIY KOMPONENTLARI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

12-ilova

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MA'RUZA MATNINI TAYYORLASHNING TAXMINIY TUZILMASI



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

13-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI



Shuningdek,

1) dars davomidagi mustaqil fikrlash faoliyati;
2) darsdan tashqari (sinfdan va maktabdan, ta'lim muassasasidan tashqari) vaqtdagi mustaqil ishlar;
3) oilaviy sharoitdagi mustaqil ishlar;
4) AKT lari bilan muloqot davomidagi mustaqil ishlar;
5) ijodiy tadqiqot ishlariga yaqin harakatlar;
6) talabalarda mustaqil muammolarni yechishga harakat uyg'otish;
7) individual va guruhiy xususiyatlarni hisobga olish;
8) mustaqil ishlarni individualizatsiyalashtirish;
9) yordam, ijodiy yordamni tashkil qilish.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

14-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYa MONITORINGI
(pirovard natijasi)

I bosqich	O‘rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushunib yetish	O‘zlashtirganini isbot eta bilish
III bosqich	Tahlil eta bilish	Qiyoslash, xulosa chiqarish, o‘zaro bog‘lash
IV bosqich	Tatbiq eta bilish	Qoida-qonunni anglash va qo‘llash
V bosqich	Sintez	Axborotni ijodiy qayta ishlay olish
VI bosqich	Baho olish	Yangi bilimga o‘tish

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

15-ilova



Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT BILAN ALOQADOR AYRIM SO‘ZLARNING IZOHLI LUG‘ATI

Absolut va nisbiy haqiqat – bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi kategoriyalar. Nisbiy haqiqat o‘sib absolut haqiqatga aylanadi.

Abstrakt tafakkur – narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo‘lmagan xususiyatlari, o‘zaro munosabatlari, qonuniyatlari haqidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi. Bunda mavhum tushunchalar hosil qilinadi.

Abstrakt tushuncha – narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o‘zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

Avtoritar pedagogika (avtoritar pedagogik texnologiya) – ta’lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o‘qituvchining obro‘siga asoslanish, unga o‘quvchilarning ko‘r-ko‘rona, so‘zsiz itoat etishlari. Bunda o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashlari, shunday harakatlar qilishlari cheklangan bo‘ladi.

Avtoritet – shaxsniig boshqalar e’tirof qilgan obro‘si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta’siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki sohta bo‘ladi.

Adaptiv mashg‘ulot – o‘quvchining tashqi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini bajara olishga moslashuvini ta’minlashga qaratilgan mashg‘ulot.

Algoritm – pedagogik texnologiya tarkibiy bo‘laklari (modullari) o‘zaro joylashuvining hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartibini (qoidasini) bildiradi.

Algoritmlash – pedagogik texnologiya tarkibiy bo‘laklari (modullari)ning o‘zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligi tartibi (qoidasi)ni belgilash jarayoni.

Atama – tabiiy tildagi so‘z yoki so‘z birikmalari (real yoki abstrakt narsalarni ifodalovchi). Atamaning u yoki bu kontekstdagi ma’nosi to‘g‘risidagi masala doim muhokama qilinadi, chunki odatdagi til ko‘p ma’noli. Odatdagi til ko‘p ma’noli bo‘lgani sababli,

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

atamaning har bir holatdagi qo'llanilishi ma'nosi muhokama qilib boriladi.

Bir fan yoki ilmiy nazariyada atamalar bitta ma'noda ishlatiladi.

Atamalar nazariy, empirik turlarga ajratiladi. Nazariy atamalar tajriba bilan asoslangan, empirik atama esa tajriba orqali tasdiqlangan xulosalarga tegishli bo'ladi.

Bakalavr, magistr – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

Bakalavriat – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajradadi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilim – tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi.

Empirik bilim – bilishning kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi. Narsa-hodisalarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Empirik ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqliklarning muntazam takrorlanishi empirik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular, ko'pincha, ehtimollik xususiyatiga ega bo'ladi.

Nazariy bilim – empirik holatlarni tasvirlash, tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilish – obyektiv borliqning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda bo'ladi:

Hissiy bilish – sezgilar, idrok, tasavvur orqali.

Ratsional bilish – tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi.

Shu bilan birga, bilish – kundalik, badiiy, ilmiy bo'ladi. Ilmiy bilish tabiatni va jamiyatni bilishga ajraladi.

Birlamchi modul – pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashda dastlabki modul sifatida tanlangan va o'z

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

tarkibiga bitta yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul to'plami.

Vertikal pedagogika – yuqori sinf o'quvchilarining quyi sinf o'quvchilariga yordam ko'rsatishini tashkil qilish shakli. Bunda har bir o'quvchining ayrim fan bo'yicha o'zidan bir sinf yuqorida o'qiydigan o'quvchilardan ilmiy rahbari va bir sinf quyida o'qiydigan o'quvchilardan otaliqdagi o'quvchisi bo'ladi.

O'quvchilarga o'zlaridan quyi sinf mavzusini takrorlash, keyin quyi sinf o'quvchisidan sinov olish varaqasini (savollar, misol yoki topshiriqni) tayyorlash topshiriladi. Sinov haftada bir marta o'tkaziladi. Sinov jarayonida quyi sinf o'quvchisi mavzuni to'liq o'zlashtirgunicha o'zaro muloqot davom etadi. Natijada yomon baholar bo'lmaydi.

Guruhli ta'lim – bir o'qituvchi bir necha o'quvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3–6 o'quvchi), o'rta (7–15 o'quvchi), katta (15 dan ortiq o'quvchi) guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'lim yo'nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo'llash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Diagnostika – pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

Didaktika – pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Inversnoy ta'lim – ag'darish, joyini almashtirish; tafakkur tizimini shakllantirish yo'nalishidagi ta'lim.

Innovatsiya – yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

Integral – chambarchas bog'liq, butun, yagona; o'z cheksiz kichik qismlarining yig'indisi.

Intellekt – insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, mulohaza, tafakkur, aql.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Kichik modul – pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

Kognitiv – atrof odam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differeniiyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish extiyojlarini rivojlantirish ta'limi.

Kreativ – tadqiqotchilik xarakteriga ega; o'quvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi.

Ko'nikma – ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'lum vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.

Magistratura – bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

Malaka – shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalari yig'indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.

Malaka amaliyoti – o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Malaka oshirish – mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

Malaka talablari – uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Marketing – bozor holatini chuqur o'rganish, oldindan baholarni bilgan holda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar tashkil qilish, g'oyalar yaratish va ularning sotuvini tashkil qilish orqali yuqori foyda olishni ta'minlash.

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Menejer – korxona, muassasa, tashkilotni zamonaviy usullar asosida boshqaruvchi mutaxassis.

Menejment – korxona, muassasa, tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan boshqarish, ya'ni xodimlar va ishchilar mehnatini tashkil qilish tamoyillari, usullari, vositalari, shakllari.

Modul – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab, tegishlicha darajadagi modullar deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo'lib, ular go'yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi «rishtacha»lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega.

Bunda kichik modul, modul to'plami, birlamchi modul va modul darajasi degan tushunchalardan foydalaniladi. Ular quyidagicha ta'riflanadi:

Modul darajasi – pedagogik texnologiyani tasvirlash ko'lamiga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligi ko'rsatkichi.

Modul to'plami – pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Modullashtirish – pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

Monitoring – korxona, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv. Me'yoriy xujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi o'z muddatida hamda qanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi.

Ta'lim-tarbiya sohasida monitoring – o'quv jarayoni va uni boshqarishning uzluksiz kuzatuvini olib borish.

Metod – grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Metodik – metodikaga tegishli qatiy ketma-ketlikka, tizimga, ilgaridan o'rnatilgan reja, tizimga aniq, rioya qilish.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodist – biror o'quv fanini o'qitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

Metodologik – metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

Metodologiya – bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot. Biror fanda qo'llanadigan metodlar majmuasi.

Motiv – odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Oliy ma'lumot darajasi – shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan ta'lim dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi.

Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) - akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning ta'lim dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'lim - uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori – oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti – ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me'yoriy hujjat.

Pedagogik texnologiya – eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifi: barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini taklif qilishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya – axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni ochish hamda axborotlar orasidagi yangi bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnikaviy va odam resurslarini va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya – ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya – insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya – o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi rahbarligida o'quvchining mustaqil ravishda bilim olishi, o'rganishi, o'zlashtirishi jarayoni.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umum-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

lashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lib, avvalo, jarayon ko‘rinishida amalga oshiriladi va shu ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga, bu jarayon o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o‘rganish davom etmoqda.

Pedagogika – ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o‘rganuvchi fan. U barkamol insonni voyaga yetkazish maqsadlariga xizmat qiladi.

Perseptiv qobiliyat – o‘quvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

Salbiy motiv – bu majburlab o‘qitish, lekin bunda o‘quvchining o‘qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatimizni yo‘qqa chiqaradi.

Strategiya – tashkilot, sohalar, hududlar, mamlakat, millat taqdiri uchun jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq, muddatli dasturi. Ta’lim sohasidagi bosh maqsadlarga qaratilgan uzoq muddatli ishlarni amalga oshirish dasturi ta’lim strategiyasini hosil qiladi.

Taktika – bosh maqsad yo‘lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Pirovardida strategik maqsadlarga ko‘proq; samara bilan erishishni ta’minlash uchun sharoitning o‘zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

Tarbiya – 1. Bolani boqib va ta’lim berib katta qilish, voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnat va g‘amxo‘rlik. 2. Ish-hunar, odob-axloq o‘rgatishga va umuman kishining g‘oyaviy va ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimi. 3. Parvarish, qarov: 1) tarbiyalab katta qilmoq, voyaga yetkazmoq, o‘stirmoq, ulg‘aytirmoq; 2) ilm-hunar bermoq, odob-axloq o‘rgatmoq, tarbiyalab biror xislat-fazilatni singdirmoq; 3) parvarish qilmoq.

Tafakkur operatsiyalari – qiyoslash, tahlil, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

Ta’lim – ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanishi zarur bo‘lgan ma’lumot va ko‘nikmalar majmui; bilim.

Ta’lim dasturi – o‘quv fanlarining bakalavriat yo‘nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta’minlovchi, bloklarga jamlangan ro‘yxati.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Ta'limning jamoa usuli (jamoa ta'limi) – o'quvchilarning bir-birini o'qitish shakli. Har bir o'quvchiga yangi dars mavzusi bo'yicha bir varaqdan kam bo'lmagan hajmdagi ilmiy matn yoki maqolani qayta so'zlab berish va hamma savollarga javob bera olish darajasida o'rganish topshiriladi. Har bir o'quvchi navbatma-navbat bir necha o'quvchi bilan bittadan abzatsni, misolni, savolni o'zaro muhokama qilib, o'zlashtiradi. So'ngra kichik guruh yoki butun sinf oldida so'zlab beradilar va o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar, yozma bayon qilishlari ham mumkin. Bu usulni qo'llash jarayonida yakka va guruhli ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasini zamonaviy menejment qonunlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

Ta'lim sifatini nazorat qilish – o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Texnolog – biror texnologiya mutaxassisi.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

Trener – ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

Trening – ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Tushunish (I) – tafakkur jarayoni, yangi mazmunni o'zlashtirish va uni mavjud g'oya hamda tasavvurlar tizimiga qo'shish. Ilmiy bilishning asosiy funksiyalaridan biri.

Tushunish (II) – ma'lum namuna, standart, me'yor yoki tamoyil asosida baholash jarayoni va natijasi.

Tushunishga yordam beruvchi ***izohlash*** – baholash standartini izlash va uni muhokama qilinayotgan masalaga muvofiq kelishini asoslashdan iborat.

Tabiatni tushunish uning hodisalariga unda nimalar ro'y berishi lozimligi nuqtai nazaridan, ya'ni narsa va hodisalarning me'yoriyligi yoki tabiiyligi to'g'risidagi ilgarigi tasavvurlarni bilish tajribasiga taya-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

nadigan o‘rnatilgan nuqtai nazardan kelib chiqadigan baho berishdan iborat.

Tushuntirish – ilm-fanning eng asosiy vazifasi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tushuntirishning dastlab mifologik, diniy, natur-filosofiya tizimlari paydo bo‘lgan. Hozir tushuntirishning quyidagi shakllari mavjud:

Ilmiy tushuntirish – obyektiv qonuniyatlar asosida tushuntirish. Bu – voqea-hodisalarni, ularning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish hisoblanadi.

Ratsional tushuntirish – hodisalar va odamlar harakati qanday amalga oshirilgan bo‘lsa, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’iy nazar, asli holicha tushuntirishdan iborat.

Bundan tashqari, harakatni amalga oshiruvchining maqsadini tushuntirishda ham uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’iy nazar, shu maqsadning o‘zini tushuntirish shakli qo‘llaniladi.

Tushuncha – narsa va hodisalar, ularning xossalari, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fikrlar.

Ilmiy tushunchada mohiyatni ifodalavchi alohida belgilar umumlashtiriladi.

Har bir tushunchaning mazmuni va hajmi bo‘ladi. Mazmun – tushuncha orqali aks ettirilgan belgilar yig‘indisi, shu mazmunga tegishli belgilarga ega narsa, hodisalar yig‘indisidan iborat.

Tushunchada aks ettiriladigan narsalar doim kengroq sinf tarkibidan ajratuvchi belgilarga ega bo‘lib, shu kengroq sinfga nisbatan turlarni ifodalaydi. Masalan, turli burchakli uchburchaklar – umuman uchburchaklar sinfiga nisbatan tur. Uchburchaklar esa geometrik shakllar sinfiga nisbatan tur hisoblanadi.

Tushunchalar hajmiga ko‘ra – hajmsiz, bir elementli, ko‘p elementli bo‘ladi:

- hajmsiz – *oltin tog‘i; suv parisi.*
- bir elementli – *Ulug‘bek rasadxonasi; Samarkand shahri.*
- ko‘p yoki umumiy elementli – *o‘simlik; raqamlar; tarixiy voqea; tabiat hodisasi.*

Tushunchaning mazmuni ortsa, hajmi kamayadi va aksincha. Masalan, uchburchak tushunchasi mazmuniga teng tomonli belgisini qo‘shsak, uning mazmuni, ya’ni belgilari soni ortadi va hajmi kamaydi, chunki teng tomonli uchburchak tushunchasi, uchbur-

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

chaklar tushunchasining bir qismini tashkil qiladi. Tushunchalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- ilmiy tushunchalar. Bu barcha fanlarga oid bo'lib, fizikaviy, kimyoviy, falsafiy, tibbiy, texnika, siyosat, huquq, iqtisod, tarixiy va boshqa tushunchalar;
- badiiy-estetik tushunchalar – san'at, adabiyot, musiqa, teatr, kino va boshqalar;
- sport, jismoniy tarbiya, kasb-hunarlarga oid tushunchalar;
- mifologik, diniy tushunchalar va boshqalar.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Faollik – biror maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Evristik – yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

Eksklyuziv – g'ayri oddiy, faqat ma'lum bir obyektga taalluqli, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar va boshqa belgilar. Faqat o'ziga berilgan (huquq).

Empirik – hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ularning yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

Yakka ta'lim ikki xil shaklda bo'ladi: 1) bir o'quvchini bir o'qituvchi o'qitishi – ta'limning juft shakli; 2) mustaqil ta'lim olish –ta'limning yakka shakli.

Yakunlovchi davlat attestatsiyasi – bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

O'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;

2) ularni amaliy faoliyatda qo'llash; ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

O'qitish sifatini nazorat qilish – talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

O'qitishning me'yoriy muddati – ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O'quv yili – oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faolyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2007-2008 o'quv yili.

O'quv fanlari bloki – ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O'quv rejasi – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat.

O'quv semestri – oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O'quv fani – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, uquv va ko'nikmalar tizimi.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

Hamijodkorlik – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi.

Hamkorlik pedagogikasi (hamkorlik pedagogik texnologiyasi) – ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

MUNDARIJA

Kirish 3

1 bob. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» fanining predmeti, maqsad va vazifalari

1.1. O'zbekiston ta'lim tizimining dolzarb muammolari 7
1.2. Pedagogik texnologiyaning umumiy asoslari 17
1.3. Pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning ta'riflari 29

II bob. Pedagogik texnologiyaning tavsifiy jihatlari

2.1. Pedagogik texnologiyaning manbalari, metodologik asoslari va uning turlari 39
2.2. Ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuv 47

III bob. Pedagogik texnologiyaning shakllanishi va uning zamonaviy tuzilmasi

3.1. Ta'lim texnologiyasi va uning tuzilishi 61
3.2. Ta'limda axborot texnologiyalari 71
3.3. Pedagogik texnologiyada qo'llaniladigan usul va vositalar 79

IV bob. Pedagogik texnologiyani joriy etish muammolari

4.1. Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi 91
4.2. Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy fanlarni o'qitish 97

V bob. Didaktik o'yinli texnologiyalar

5.1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar 115
5.2. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalari 125

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

VI bob. Pedagogik texnologiya: sifat va samaradorlik

6.1. Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari 133
6.2. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni 149

VII bob. O'qituvchi-kasb egasi sifatida

7.1. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari 156
7.2. O'qituvchining nutq madaniyati 165

VIII bob. Masofaviy va modulli o'qitish

8.1. Masofaviy va modulli o'qitish va ularning rivojlanish bosqichlari 173
8.2. Masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari 178

IX bob. Pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy ishlar

9.1. Ayrim pedagogik va psixologik tajribalar 184
9.2. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari 191

X bob. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat uyg'unlashuvining istiqbollari

10.1. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati 194
10.2. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari 201

Xulosa 206
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 209
Ilovalar 211

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

Omonov Hojiqul Tovboyevich,
Xo'jayev Nutfillo,
Madyarova Svetlana Aminovna,
Eshchonov Erkaboy Uskinovich

«PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT»

Darslik

Muharrir *E.Bozorov*
Texnik muharrir *M.Alimov*
Kompyuterda sahifalovchi *A.Ro'ziyev*

Bosishga ruxsat etildi 01.07.2009. Qog'oz bichimi 60x84$^{1}/_{16}$.
Hisob-nashr tabog'i 15. Adadi 1000.
Buyurtma №19

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, H.Asomov ko'chasi, 7-uy.
Hisob-shartnoma 39-2009.

«HUMOYUNBEK - ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasi
100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Generated by Foxit PDF Creator © Foxit Software
http://www.foxitsoftware.com For evaluation only.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

Toshkent - 2009